

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/339139705>

MILLIY G‘OYA TARG‘IBOTI TEXNOLOGIYALARI

Book · February 2020

CITATIONS

0

READS

22,956

1 author:



Эргашев Ибодулла

National University of Uzbekistan

49 PUBLICATIONS 32 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA-MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**I.Ergashev, O.Muxammadieva,
S.Berdiquulova, M.Safarov**

**MILLIY G'OYA TARG'IBOTI
TEXNOLOGIYALARI
(O'QUV QO'LLANMA)**

Toshkent – 2019

Mualliflar guruhi: siyos.f.d., prof. Ergashev Ibodulla (rahbar), f.f.n., dots. Muhammadieva Oynisa, Berdiqulova Surayyo, Safarov Muxlis: Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2019. 206 b.

Mas’ul muharrir: prof. Ergashev Ibodulla

Taqrizchilar: f.f.d. Norqulov Dustmurod
f.f.n. Tuychiev Berdiqul

Mazkur qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ITD-1 “Jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivolanishi, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta’limning uzviylik va uzluksizligini, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish” dasturi doirasida: **A-1-240 “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” kursi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasini nashrga tayyorlash** amaliy loyihasi asosida tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 9 fevraldagги 133-sonli buyrugiga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro‘yxatga olish raqami №133-110.

Qo‘llanma Respublika oliy ta’lim muassasalarida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanayotgan bakalavrular uchun mo‘ljallangan. SHuningdek, qo‘llanmadan milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlар, jamoatchilik bilan aloqalar sohasi vakillari, yosh mutaxassislar, professor-o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

M U N D A R I J A

Kirish	4
1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining ob‘ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari	8
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyati	22
3. Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi: mazmun-mohiyati, tuzilmasi va tasnifi	37
4. Milliy g‘oya fanining pedagogik texnologiya asosida o‘qitish nazariyasi	45
5. Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning asosiy omillari	52
6. Milliy g‘oya targ‘ibotining texnologik asoslari	63
7. Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari	77
8. Milliy g‘oya targ‘ibotida zamonaviy texnologik uslublar	95
9. Milliy g‘oya fanini o‘qitishda didaktik jarayon loyihasining interfaol usullari	106
10. Milliy g‘oya targ‘ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalar”	115
11. Milliy g‘oya targ‘ibotida Ommaviy axborot vositalarining o‘rni	125
12. Milliy g‘oya targ‘ibotida xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning o‘ziga xos usullari	137
13. Milliy g‘oya targ‘ibotida milliy-madaniy markazlarning o‘rni va roli	148
14. Globallashuv jarayonida yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirish texnologiyalari	158
15. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari	173
Xulosa	190
Glossariy	195
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati	200

KIRISH

“Oldimizga qo’ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo’ladigan milliy g’oyani rivojlantirishimiz zarur”.¹

(SH.M.Mirziyoev)

Jamiyat hayoti turli-xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liq holda rivojlanib, o‘zgarib kelgan. Bu holat hozirgi globallashuv davrida ham o‘ziga xos namoyon bo‘lmoqda. G‘oya va mafkuralar maydoni keng jamoatchilik xususan yoshlar ongiga, ishonch va mayillariga o‘zining turli-xil ta’sirini ko‘rsatmoqda. Uning natijasi g‘oya va mafkuralarning maqsadi, mo‘ljallariga hamda insonning ma’naviy dunyosi, ishonchiga bog‘liq. SHuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: *“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirlingimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibolarchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan ozuqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”²ligini alohida ta’kidlaydi.*

Hozirgi zamonda mafkura targ‘iboti sohasida yangi texnologiyalar tobora takomillashib bormoqda, Undan turli-xil nosog‘lom maqsadlarda foydalanishga urinishlar kuchaymoqda. Bu, O‘zbekiston jamiyatini milliy g‘oya va ma’naviy-

¹ Ш.М.Мирзиёев. Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь. 270-сон.

² Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008, Б-4.

ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarga tayanib ish ko'rishga undaydi. Uni hisobga olish ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Hamda O'zbekistonning mustaqil tarraqqiyot yo'lidan rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oya tarig'boti texnologiyalari fanining maqsadi – yoshlarga milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari, uni amalga oshirish yo'llari va sohalari bo'yicha tushunchalar berish orqali globallashuv jarayonlarida g'oyaviy mafkuraviy kurash va ma'naviy tahdidlarning oldini olishda milliy g'oya negizlari va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishini targ'ibot texnologiyalariga, targ'ibotchining faolligiga bog'liqligini ko'rsatishdan iborat.

U milliy g'oyani targ'ibot qilishning yangi texnologiyalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Amaliy mashg'ulotlarni joylarda va interfaol, zamonaviy uslublarda tashkil etishga e'tiborni qaratgan holda, yoshlarning Vatanga mehr-muhabbatlarini, tarixiy-madaniy xotiralarini, milliy-madaniy meros, urf-odatlar va an'analarimizga tayanib, turli xalqlar madaniyatiga xurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirishga, o'zlikni anglashiga alohida e'tibor berishni taqazo etadi. Mafkuraviy kurashlar davom etayotgan hozirgi sharoitda, milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish va uni takomillashtirish milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur fanni o'rganish milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan mutaxassis kadrlarga mo'ljallangan. CHunki, bu sohadagi mutaxassis kadrlar sifatida, ulardan milliy g'oya targ'iboti texnologiyalarini bilishlarini, undan to'g'ri foydalanish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishlarini taqozo etadi. SHuningdek, milliy g'oya va mafkura targ'iboti texnologiyalarini sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlar ta'lim-tarbiya hamda ma'naviy-ma'rifiy sohaning takomiliga xizmat qiladi.

Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalarini hayotga tadbiq etishda ta'lim-tarbiya sohasi muhim ahamiyatga ega. Uning o'ziga xos jihat shundaki, mavjud ta'lim standartida, fanning namunaviy o'quv dasturi, ishchi o'quv dasturida aniqlab berilgan uning targ'iboti amalga oshiriladi. Mavzu bo'yicha tayanch

tushunchalarning mazmuni va mohiyati bo‘yicha yoshlarda bilim va ko‘nikmalar hosil qilinadi.

Buning uchun turli xil uslub yoki texnologiyalardan foydalaniladi va qo‘llaniladi. U zamon, yoshlar ongi va tafakkuri, dunyoqarashi xususiyatlariga, milliy g‘oya maqsadlarini anglashga, ishonch va e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qilishi muhim.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini o‘qitishda, shu yo‘nalishda ta’lim olayotgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash alohida o‘rin tutadi va o‘ziga xos hususiyatlarga ega. Bu ularni mutaxassis kadrlar sifatida, milliy g‘oyaning yoshlar ,keng jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda ijtimoiy hayot sohalari orqali, undan samarali foydalangan holda, targ‘ibot vositalaridan unumli foydalanishga erishish ta’lim tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishga ko‘maklashadi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini bilish, o‘rganish orqali, undan ta’lim va tarbiya sohasida to‘g‘ri foydalanishning zamon talablariga javob berish uning muhim maqsadidir.

Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalarini o‘qitish orqali zarur kunikma va malakalarini shakllantirish muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu:

- ta’lim tarbiyaning uzviyligini ta’minalashga xizmat qiladi;
- Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalarini bilish, to‘g‘ri tadbiq etish ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi;
- Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini o‘rganish, uni amaliy hayotga tadbiq eta olish, yoshlarda milliy g‘oyaning bosh g‘oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillarni ta’lim orqali ong va tafakkurda ijtimoiylashishiga, ishonch va e’tiqodga aylantiradi;
- Milliy g‘oya yoshlarni vatanparvarlik, yon atrofga dahldorlik hissi bilan tarbiyalaydi, ma’suliyatini oshiradi.
- Milliy g‘oya targ‘ibotini to‘g‘ri tashkil etish uning usul va texnologiyalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi. To‘g‘ri foydalanish kunikmasiga, malakasiga mahoratiga ega bo‘lish ta’lim orqali targ‘ibotning samaradorligini ta’minalashga ko‘maklashadi.

- YOshlarni milliy g‘oyaga bo‘lgan ishonch va e’tiqodini mustahkamlaydi;
- YOshlarni yot va zararli g‘oyalarni ta’siridan himoyalaydi, mafkuraviy immunitetni oshiradi;
- YOshlarning turli xil maqsadlar, dunyoqarash, mayl va ko‘nikmalarga egaligi, targ‘ibotning turli xil texnologiyalari orqali ularni yagona – mushtarak maqsadlarni anglashga, uning atrofida o‘zaro yakdil, hamjihatlik, hamkorlik tuyg‘ularini tarbiyalashga erishish uning muhim mezoni hisoblandi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari namunaviy dastur bo‘yicha asosan 9 ta mavzuni o‘z ichiga oladi. Lekni, mazkur o‘quv qo‘llanmani tayyorlash zarurligi, unga bo‘lgan ehtiyojini, muammoning ko‘lamini kengligini hisobga olib, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini nafaqat oliv ta’lim bosqichida, uni ta’limning barcha bosqichlarida hamda ta’limdan keyingi bosqichda ham kundalik hayotda, mafkuraviy hayot sohalarida uchrayotgan muammolar bilan bog‘liq holda o‘rganishni ham taqozo etadi.

SHuning uchun, ijtimoiy hayot sohalarida, milliy g‘oya targ‘ibotida mavjud savollarga, muammolarga ham javob berish foydalidir.

SHuning bilan birga milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi, uni o‘qitishda hozirgi zamon pedagogik texnologiyalarini qo‘llash, undan foydalanishning usul va uslublarini yaxshi o‘zlashtirib olishlari, uni mavzularga tadbiq eta olish bilan birga ijtimoiy hayotda uchraydigan turli-xil muammoli vaziyatlarni tahlil etishda, uning echimini topish, umumiy to‘g‘ri xulosalar chiqarish va qarorga kelish ikoniyatini beradi. Bunga alohida e’tibor qaratiladi. Bu turli vaziyatlarga yangi innovatsion targ‘ibot texnologiyalarini qo‘llash orqali tegishli xulosalar, tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qo‘llanma, milliy g‘oya targ‘iboti bilan qiziquvchi mutaxassis kadrlar, professor-o‘qituvchilar, milliy g‘oyani o‘rganish ilmiy-amaliy markazi, ma’naviyat targ‘iboti markazi xodimlari, hamda ota-onalar, keng jamoatchilik uchun foydalidir.

1-mavzu: Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari: fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining asosiy tushunchalari, ma’no-mazmuni
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanini o‘rganish usullari va tamoyillari

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fani o‘zining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalariga ega. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini o‘rganish milliy istiqlol g‘oyasi fanining amaliy jihatni hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan yondashganda ularning o‘zaro munosabatida ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalarida umumiy va farqli jihatlari mavjud.

“Milliy g‘oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umidlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchani mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz”.³

Milliy g‘oyani o‘rganishning ob’ektiv zarurligi uning mazmun-mohiyatini, asosiy tushuncha va tamoyillarini nazariy-metodologik asoslarini keng jamoatchilikka etkazish, tushuntirishdan iborat. Ma’lumki, milliy g‘oya shakllanadi va shakllantiriladi. Uning shakllanishi voqeа-hodisalarga har-bir kishining mustaqil dunyoqarashi bilan bog‘liq bo‘lsa, shakllantirish jarayoni esa uning amaliy jihatdan ta’lim-tarbiya, targ‘ibot texnologiyalari, sohalari va

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:“Маънавият”, 2008. Б -71.

yo‘nalishlari, targ‘ibot vositalari bilan uzviy aloqadordir. SHuning uchun ham milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish, uni to‘g‘ri tashkil etish va yo‘naltirishga bevosita bog‘liq.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi – ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ezgu g‘oyalarning ma’nosini, mazmunini, mohiyatini yoritish, tushunish orqali shu ezgu maqsadlarga yoshlarni da’vat qilish, chorlashda texnik vositalar, yangi texnologiyalardan foydalanish, uning ezgu maqsadlarga yo‘naltirish, safarbar etish orqali jipslashtirish, yot va zararli g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash usul va uslublarini o‘rganish to‘g‘risidagi fandir.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining **ob’ekti**:

- ❖ milliy g‘oya targ‘iboti yo‘naltirilgan ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan eng bunyodkor g‘oyalar, maqsadlarni o‘rganish;
- ❖ xalqimizning urf-odat, an’ana, qadriyatlari tizimini targ‘ib etish;
- ❖ xalqimiz hayot tarzi, ularning orzu-umidlari, ong-tafakkur tarzlari, O‘zbekiston jamiyati hayoti sohalari va milliy-ma’naviy negizlari, umuminsoniy demokratik qadriyatlar, tamoyillarni targ‘ib etish;
- ❖ turli xalqlar va millatlar, guruhlar va unga ta’sir etuvchi omillar, jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy targ‘ibot sohalarida foydalaniladigan vositalar hamda uslublar majmuidir. Demak, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining ob’ektini jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy sohasining tashuvchilari hisoblangan turli xil ajdodlar, avlodlar, xalqlar, millatlar, insonlar, ijtimoiy etnik guruhlar va qatlamlar tashkil etadi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari milliy istiqlol g‘oyasi fanining asosiy tushuncha va tamoyillariga tayanadi.
- ❖ umuminsonny qadriyatlarga sodiqlik;
- ❖ xalqimiening ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- ❖ insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

❖ vatanparvarlik.⁴

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining maqsadi va vazifalari milliy g‘oyaning bosh g‘oyasi va asosiy g‘oyalarini keng jamoatchilikka targ‘ibot-tashviqot qilish, ularning ma’naviy tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirish, barkamol avlodni voyaga etkazish bilan uzviy bog‘liq.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining **predmeti** milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘llaniladigan usullar, unga yondoshish mahorati va xususiyatlarini keng jamoatchilik: insonlar, turli guruhlar va qatlamlar, xalqlar, millatlarning ishonchi va e’tiqodiga aylanishi, uning milliy-madaniy, umuminsoniy negizlarini to‘g‘ri targ‘ibot etish, orqali jamiyat hayoti sohalarida namoyon bo‘lish shart-sharoitlari, omillari, qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.

Milliy g‘oya targ‘ibotidan ko‘zlangan asosiy **maqsad** va **vazifalar**:

1. Xalqni ezgu g‘oya bilan bog‘liq mushtarak maqsadlar bilan birlashtirish va uyushtirish;
2. Fuqarolarni milliy g‘oyaga ishontirish.
3. Fuqarolarni muayyan ezgu g‘oyaga jipslashtirish;
4. Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga safarbar etish.
5. Ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish hamda milliy g‘oya negizlariga bo‘lgan ishonch va e’tiqodini mustahkamlash.
6. YOshlarni milliy g‘oya maqsad va tamoyillariga sodiq holda tarbiyalash.
7. YOt va zararli g‘oyalar, turli xil mafkuraviy xurujlar, “ommaviy madaniyat” va ma’naviy tahdidlarga qarshi g‘oyaviy immunitetini shakllantirish hamda mustahkamlash, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda harakat dasturi bo‘lishga yo‘naltirilgan⁵.

Milliy g‘oyaning targ‘iboti texnologiyalari vazifalari: 1) milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari bo‘yicha kompleks dastur yaratish; 2) milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini yanada takomillashtirish; 3) milliy g‘oya targ‘ibotida

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. – Т.:“Ўзбекистон”, 1996. Б -67.

⁵ Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. – Т.: “Ўзбекистон”. 2000. Б -20.

yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishga erishish; 4) milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida ta’lim tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish; 5) milliy g‘oya targ‘ibotida interfaol usullardan foydalanish orqali uni ommalashtirish va bosqichma-bosqich singdirib borish; 6) milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatining yanada oshib borishi v.h.

SHu maqsadlarga erishishda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan oqilona foydalanish va tashkil etish kutilgan amaliy samarani berishi mumkin.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanining asosiy tushunchalari, ma’no-mazmuni

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan

tushunchalarga asoslanadi. Ular jamiyat ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy mafkuraviy sohalarida shakllangan turli xil tushunchalardir. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur, ular turli halqlar va jamiyatlar hayotida o‘ziga xos o‘ringa ega. Ularning mazmun-mohiyatini targ‘ibot texnologiyalarini amalga oshirishda xolisona hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ular: **birinchidan**, turli jamiyatlar xalqlar hayoti milliy madaniy qadriyatları, maqsadları bilan bog‘liq bo‘lgan turli xil ma’no-mazmunga ega umumiyl tushunchalar “g‘oya”, “mafcura”, “milliy g‘oyalar”, “umumbashariy g‘oyalar”, “texnologiya”, “targ‘ibot-tashviqot”, “targ‘ibotchi”, “targ‘ibot texnologiyalari”; **Ikkinchidan**, turli jamiyatlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti va faoliyati bilan bog‘liq maqsad va intilishlarni ifoda etadigan turli xil siyosiy mafkuralari ko‘rinishlar bilan bog‘liq tushunchalar. **Uchinchidan**, O‘zbekiston jamiyati va xalqining xayoti, uning tarixi milliy-madaniy merosi va qadriyatları bilan bog‘liq bo‘lgan, uni o‘zida aks ettiradigan va unga xizmat qiladigan: “milliy istiqlol g‘oyasi”, “milliy istiqlol mafkurasi”, “Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari”, “Milliy istiqlol g‘oyasining bosh g‘oyasi”, “Milliy istiqlol g‘oyasining umumbashariy tamoyillari”, “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari”, “Milliy g‘oya targ‘iboti asoslari va yo‘nalishlari”, “Milliy g‘oya targ‘iboti vositalari” va boshqa tushunchalardir.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari bilan bog‘liq tushunchalarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u asosan, O‘zbekiston xalqi ijtimoiy xayot sohalari bilan, xalqning milliy-madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari, tili, madaniyati, tarixi, falsafasi bilan uzviy bog‘liq. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari milliy rivojlanish xususiyatlarini e’tirof etadi va unga hurmat bilan qaraydi. Dunyoda erishilayotgan yutuqlardan samarali foydalанилди. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida “sinfiylik”, “partiyaviylik”, “egoizm”, “milliy egoizm”, “milliy ayirmachilik”, “shovinizm” kabi nosog‘lom g‘oyalarga asoslanilmaydi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari boshqa mamlakat xalqlarining xayotiga o‘z g‘oyalarini oshkoror yoki pinhona tarzda singdirishni da’vo qilmaydi. Bu bilan u “kommunistik g‘oya targ‘iboti texnologiyalari”dan, “ommaviy madaniyat” va “ma’naviy tahdid” ko‘rinishidagi texnologiyalardan tubdan farq qiladi.

Umuman, “g‘oya” va “mafcura”, “texnologiyalar” tushunchalari keng ma’noga ega. “Milliy g‘oya” va “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” tushunchasi bir-biridan farq qiladi. Milliy g‘oya O‘zbekiston jamiyatni hayoti bilan bog‘liq. U jamiyatning mafkurasidir. U milliy-madaniy merosi va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq negizlarini o‘zida ifoda etadi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari ham O‘zbekiston xalqining milliy-madaniy merosi, umuminsoniy qadriyatlarni, ezgu maqsad va manfaatlarni ifoda etadi. Uni keng jamoatchilikka etkazish mahorati, yo‘llari, vositalari, shakl va usullarining majmuini o‘z ichiga oladi.

“Texnologiya” yunoncha, techne - mahorat, san’at; logos-ta’limot ma’nosini bildiradi. U keng ma’noga ega, masalan, ishlab chiqarishning biror sohasiga ishlov berish, qayta ishslash, ularning holati, xossalari va shaklini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan usullar majmuini anglatadi. Uni milliy g‘oya targ‘ibotiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. SHu nuqtai nazardan yondashganda, uni milliy g‘oya targ‘ibotini tashkil etish mahorati, san’atida qo‘llaniladigan usullar majmui sifatida talqin etish mumkin. Demak, “milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” tushunchasi o‘ziga xos mazmun va xususiyatlarga ega. U ishlab chiqarish sohasida

qo‘llaniladigan “texnologiya” tushunchasidan farq qiladi. U insonlar ongi va tafakkuriga yo‘naltirilgan o‘ziga xos xususiyatga ega. Buni milliy g‘oya targ‘ibotida alohida hisobga olish zarur.

“Targ‘ibot” tushunchasi arabcha “targ‘ib” so‘zidan olingan bo‘lib, xoxishni, qiziqishni kuchaytirish, rag‘batlantirish ma’nolarini anglatadi. Bu, biror g‘oya, ta’limotni yoyishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini bildiradi. “Targ‘ibotchi” – targ‘ibot ishlarini olib boruvchi shaxsni, “targ‘ibotchilik” esa targ‘ibot olib borishni, targ‘ibot ishini anglatadi⁶.

Milliy g‘oya va milliy istiqlol g‘oyasi keng, murakkab serqirradir. Bu Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g‘oyalarning ma’nomazmunini teran anglab olishga xizmat qiladi. Bu g‘oya xalqni-xalq, millatni-millat etadigan, uning sha’nu sharafi, ishonch-e’tiqodini ifodalaydigan, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda mutassil rivojlanib boruvchi qarashlar tizimidir.

Ko‘rinib turibdiki, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini o‘rganishni taqazo etadigan umumiyligi va o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Bu inson va jamiyat hayotini rivojlanishining muayyan g‘oya bilan o‘zaro bog‘liqligini bildiradi. Jamiyatni rivojlanishi ana shu g‘oyaning ko‘rinishiga, maqsad va vazifalariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Bunda g‘oyalar xilma-xilligini, ezgu, bunyodkor, vayronkor va tajavvuzkor g‘oyalar mavjudligini, ularni jamiyat taraqqiyotiga har xil ta’sir ko‘rsatishini hisobga olish lozim. Milliy g‘oya – bunyodkor g‘oyadir. Jamiyat mafkurasiz va maqsadsiz yashay olmaydi. Milliy g‘oya targ‘iboti va texnologiyalari o‘zgaruvchanligi va uning dinamik xarakterda ekanlidigkeit. Uning milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida hisobga olish zarur. Hozirgi davrda mafkura sohasidagi kurashning kuchayib borayotganligi ham milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan oqilona va unumli foydalanishni taqazo etadi. Jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi, lekin hamma mafkuralar ham ezgu maqsadni ko‘zlayotganligi yo‘q. SHuni hisobga olgan holda, **birinchidan**, mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa inson, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini

⁶ Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли лугати. –Т.: 4 жилд. Б -6.

yo‘qotishi muqarrar. **Ikkinchidan**, qaerdaki g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga kelsa, targ‘ibot texnologiyalari zamon talablaridan orqada qolsa, o‘sha erda yot g‘oya va mafkuralarning kirib kelishi ehtimolining oshishini aniq hisobga olish zarur. Bu holatlarni hisobga olish milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining mazmuni, maqsadi va xususiyati nuqtai nazardan qaraganda ustuvor ahamiyatga ega. U O‘zbekiston Respublikasining kelajagi bilan o‘zligini saqlab qolishi hamda o‘z negizida mustaqil rivojlanishi, dunyoda o‘ziga xos va mos o‘ringa ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining asosiy tushunchalari, shu ma’noda o‘ziga xos ma’no va mazmunga ega.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanini o‘rganish usullari va tamoyillari

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanini o‘rganishning o‘ziga xos usul va tamoyillari mavjud. “Metod”-

usul, uslub demakdir. Demak u milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘llaniladigan usul va uslublarni anglatadi. Avvalo, ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rganadigan asosiy metodlarga tayanishini hisobga olish lozim. Bunda milliy g‘oya targ‘ibotini tashkil etishda “dialektik uslub”dan keng ma’noda foydalanish muhim ahamiyatga ega. CHunki, dialektika voqeа va xodisalarga o‘zgarishda va rivojlanishda deb qarash tamoyillarini beradi. SHu ma’noda dialektika baxs-munozora, o‘zaro-muloqot uslubi sifatida umumnazariy ahamiyatga ega. Bu milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan foydalanishda ilmiy, xolisona xulosalar chiqarishga yordam beradi. Faqat dialektikani “materialistik dialektika”dan tubdan farq qilishini hisobga olish zarur. CHunki, materialistik dialektika jamiyat hayoti rivojlanishini bir tomonlama faqat moddiylik omiliga bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. Uni mutloqlashtiradi. Ijtimoiy hayotning o‘zgarishi esa “ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi”⁷ orqali amalga oshadi. SHunda rivojlanish, taraqqiyot, inson va xalqlar manfaatiga xizmat qiladi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari fanini o‘rganishda sotsiologiya, psixologiya, sotsial-psixologiya, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy fanlar usullariga ham tayanadi. Fanni o‘rganishda sotsiologik so‘rov, qiyosiy tahlil, baxs-munozara, xozirgi zamonda keng kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik

⁷ Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008. . Б -65-70.

texnologiyalar, ineterfaol uslullaridan: “klaster usuli”, “Ajurli-arra”, Ekspert baholash” usuli, “Delfi” usuli, “Pattern” usuli, “O‘yinlar nazariyasi” usuli; “Sokrat” usuli, “SWAT - tahlil” usuli, “Aqliy xujum” usuli, “Fokus guruhlar” usullari va boshqa usullardan ham foydalaniladi.

Globallashuv jarayonida mafkuraviy kurash o‘zining yuqori nuqtasiga chiqayotgan bugungi kunda, mafkuraviy ta’sirlar avvalo, yoshlarning ongini zaharlash va ularni o‘z manfaatlari yo‘lida birtomonlama foydalanish oqibatlari shuni yana bir bor isbotlamoqdaki, avvalo mana shu qatlam orasida milliy g‘oya targ‘botini keng ko‘lamda yoyish, mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasida an’anaviy uslublarning o‘rnini ham inkor etmagan holda, uni yangicha talqin etish, boyitish, turli shakllarda zamonaviylashtirish foydalidir. Zamonaviylashtirish an’anaviylikni inkor etmasligi muhim. Targ‘ibotda an’anaviy uslublardan zamonaviy tarzda foydalanish samaralidir. Turli debatlar, ta’lim tizimidagi targ‘ibot texnologiyasi sifatida asosiy mazmun kasb etuvchi - “ajurli arra” (ya’ni, turli mavzularga nisbatan talabalarning munosabatlarni ikki guruhga bo‘lingan ravishda tahlil qilish), “klaster”, ya’ni axborotlarni tarqatish, shuningdek, “munozara”, “o‘z o‘rningni top” ya’ni, agar auditoriyada muayyan mavzu bo‘yicha tortishuvlar vujudga kelsa, mazkur usul yordamida muammo echimi aniqlanadi. Uning mazmuni darsning asosan kirish qismida qo‘llaniladi, o‘tilayotgan mavzuga nisbatan turli yondashuvlar mavjudligi aytiladi. Bu bir tomondan. Ikkinci tomondan talabalar fikrini bayon qilishi, o‘zgartirishga imkon tug‘iladi. Mustaqil fikrlarni shakllanishiga va o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining qarashlarini ifoda etish imkoniyatidir. Nihoyat dars so‘nggida o‘qituvchi mavzuni o‘zlashtirish darajasini baholaydi. Bundan tashqari bugun pedagogik texnologiyaning “Debatlar” usuli kabi interfaol usullaridan keng va ommaviy ravishda ta’lim tizimlarida foydalanish milliy g‘oya targ‘ibotida etakchi mazmun kasb etadi. “Debatlar” asosida darsni tashkil etishdan asosiy maqsad muammoning echimini topishda talaba o‘z yondashuvining to‘g‘riligiga o‘zlarini ishontirishdir. O‘z fikrini aniq, lo‘nda bayon etish, buning uchun to‘g‘ri

dalil va xulosa topish ko‘nikmasini shakllantirishda “debatlar” samarali usul hisoblanadi.

Milliy g‘oya targ‘iboti va tashviqotining asosiy usullaridan biri-“Ijodiy tanqidiy fikrlash” usuli hisoblanadi. Bu faqat tanqid qilish yoki e’tirof etmaslik degani emas. Tanqid xolis ijodiy va amaliy bo‘lishi, aniq xulosalarga, takliflarga tayanishi lozim. Vazifasi: Demokratik jamiyatda har bir fuqaro muammoni oqilona echish qobiliyatiga, salohiyatiga, tafakkuriga, ilmiga ega bo‘lishi lozim. SHu boisdan milliy g‘oyani aholi va ayniqsa, yoshlar orasida milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishda ta’lim texnologiyasining o‘rni beqiyosdir. SHuning uchun, talabalarni babs-tortishuv orqali masalaning echimini topishga ko‘proq jalg qilish lozim. Bu ularni fikrlashga undaydi. Faolligini ma’suliyatini oshiradi.

Savollarni echishda talabalarda tinglash, muloqot olib borish, turli fikrlarni taqqoslash, o‘zgalar fikriga befarq qaramaslik kabi odatlar shakllana boradi. Masalani echish va hukm chiqarish, analitik fikrlash qobiliyati rivojlanadi, munozara yuritish, echimlarni to‘g‘ri topish madaniyati o‘zlashtiriladi.

Baxs-munozara jarayonida quyidagilarga:

- ❖ bahs madaniyatiga;
- ❖ har bir fikrni hurmat qilishga;
- ❖ fikrlarni asoslash va dalillashga;
- ❖ fikrdagi mushtarak maqsadlarni ko‘ra bilish va uni e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. U turli xalqlar va mamlakatlar xayotida ongi, dunyoqarashi, ma’naviy-madaniyati, qarashlarida sodir bo‘layotgan yangilanishlar bilan uzviy bog‘liq. Ayni paytda g‘oya va mafkura sohasida yangi texnologik o‘zgarishlarni keng joriy etilishi ham uni zamon bilan hamnafas holda yangilanib va takomilashib borishini taqazo etadi. Bu milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasini hayot bilan birga takomilashib borishini davr o‘zgarishlaridan orqada qolmasligini zarur qilib qo‘yadi. Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalari davr va zamon o‘zgarishlari bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchanlikka ega. Buni targ‘ibotda hisobga olish zarur.

Bugun davr o‘zgardi, ayniqsa, milliy g‘oya targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy mutaxassislarga talablar oshib bormoqda. Bugungi axborot asrida ta’lim-tarbiya tizimida muhim islohotlar, o‘zgarishlar amalga oshdi. Mustaqillik tufayli ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha qarash shakllandi. O‘qish jarayoniga yangicha zamonaviy uslublar kirib kelmoqda. Bular: **birinchidan**, ma’lumki, an’anaviy o‘qitish, yozma-og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rish hamda “axborotli o‘qitish” sifatida tavsiflanadi. Bunda o‘qituvchi auditoriyada o‘zining yakka ta’siriga ega bo‘ladi. Bunda yoshlar o‘quv jarayoniga faol ishtirok etmaydi, ularning qiziqishlari va mustaqil fikr-mulohazalari to‘liq hisobga olinmaydi. Bu “yakka mafkuraviy aqidalarga tayanish” talabiga mos bo‘lganligi aniq. Lekin, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi, demokratiya sharoitidagi talablariga javob bermaydi.

Ayni paytda bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiyadagi o‘rnini ikkinchi darajali bo‘lib qolishini anglatmaydi.

Ikkinchidan, axborotlar hajmining ko‘payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha yondashuvlarni taqazo etadi.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiyada yangi texnologiyalarning uzluksiz joriy etilishi yoshlarning an’anaviy o‘qitish uslubini yangilanishi va tabiiy ravishda, yangi pedagogik texnologiyalarini qo‘llanishi yoshlarni o‘quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining reguliyativ ta’siri amaliy nuqtai-nazardan quyidagi holatlarni hisobga olishga:

1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan samarali foydalanishga undaydi;
2. Dunyo fani erishayotgan yutuqlardan amaliy faoliyatda foydalanishga safarbar qiladi;
3. Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqali uning salohiyatini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib beradi;

4. Axborotning yangi vositalaridan foydalanish, aholining keng qatlamlari orasida targ‘ibot olib borishda milliy g‘oyaning yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridagi yangilanishlar va uning zamon bilan hamnafas bo‘lishini, jamiyatdagi demokratik yangilanishlar, globallashuv va mafkuraviy kurashlar sohasidagi o‘zgarishlarni ham taqazo etadi. CHunki, dunyoda mafkura sohasida yangi texnologiyalarni qo‘llab, ko‘proq uni “jozibali” bo‘lishiga erishish orqali yoshlarni o‘ziga jalb etishga, oxir-oqibatda ularning ongiga milliy g‘oya negizlaridan begona bo‘lgan qadriyatlarni olib kirishga urinish mavjud.

SHunga asoslanib texnologiyani milliy g‘oyani targ‘ib etish mahorati, zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur usuli, degan xulosaga kelish mumkin. Milliy g‘oya targ‘ibotining zamonaviy mahorat darajasiga ko‘tarish va ko‘tarilganligi uni hozirgi zamon bilan hamnafasligining ifodasidir. Aks holda zamondan orqada qoladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi nuqtai nazardan u jarayon sifatida uchta qoida bilan tavsifланади:

1. Jarayonni o‘zaro bog‘liq bosqichlarga taqsimlash;
2. Kutilayotgan natijaga (belgilangan maqsad) erishishga qaratilgan harakatlarni izchil va bosqichma-bosqich bajarish;
3. Quyilgan maqsadga mos natijaga erishish alohida ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari hozirgi zamon bilan hamnafas tarzda quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

1. Milliy g‘oya targ‘iboti bo‘yicha har bir joyning va sohalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks zamonaviy dastur yaratish;
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining mazmun-mohiyatini ochib berish orqali uni yanada takomillashtirish;
3. Milliy g‘oya targ‘ibotida yangi pedagogik texnologiyalardan yanada unumli foydalanish;

4. Ta’lim tizimida milliy g‘oya targ‘iboti faoliyatini takomillashtirish, uni rivojlantirish yo‘llarini belgilab berish;
5. Milliy g‘oya targ‘ibotida interfaol usullardan foydalanish orqali uni ommalashtirish va fuqarolar ongiga bosqichma-bosqich singdirib borish;
6. Aholi keng qatlami orasida milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni muntazam olib borishdan iborat.

Ilmiy adabiyotlarda “boshqaruva texnologiyasi”, “pedagogik texnologiya”, “axborot texnologiyasi” keng tavsiflangan. Ular o‘zлari tegishli bo‘lgan sohalardagi maqsadlarga erishishning asosiy tamoyillarini o‘z ichiga oladi va faoliyat ko‘rsatadi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini avvalo, ta’lim-tarbiya tizimida keng qo‘llash orqali ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. CHunki, “Milliy g‘oyada mujassam bo‘lgan buyuk maqsadlarni ruyobga chiqarish avvalambor jamiyatimiz va shu jamiyat a’zosi bo‘lmish har qaysi insonning ma’naviy olami va dunyoqarashidagi ijobiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekanini unutmasligimiz zarur”⁸.

Milliy g‘oya targ‘iboti uzoq davom etadigan uzlusiz jarayon bo‘lib, uning samaradorligini oshirish, avvalo, targ‘ibot texnologiyalariga ham bog‘liq. Aynan shu turdagи texnologiyalardan foydalanish milliy g‘oyani aholi ongiga singdirish, tushuntirish va mohiyatini ohib berish etakchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda targ‘ibot texnologiyalari yangiliklarini targ‘ib etish, ta’lim jarayonlarida mustaqillikni ta’minlab berishi bilan ham ajralib turadi.

Ta’lim-tarbiya sohalarida milliy g‘oya negizlariga, tamoyillariga tayanish muhim. Bunda milliy g‘oya targ‘ibotida an’anaviy yo‘l bilan birga zamonaviy yondashuv o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Zamonaviy usullardan foydalanish deganda, ko‘proq, yangi texnik vositalardan foydalanishni, materialni yangicha uslubda taqdimot shaklida etkazib berish, jonli muloqot, savol-javoblar, bahsmunozara, interfaol usullarni ko‘proq qo‘llash tushuniladi. Bu bir tomonlama emas, ko‘p tomonlama faollikni oshiradi. Eshituvchini fikrlashga, fikrini uyg‘otishga, uning jamiyatdagi o‘rnini his etishga, ong va tafakkurining to‘g‘ri va

⁸Каранг: Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008, . Б -76.

maqsadli o‘zgarib borishiga undaydi. Inson-murakkab mavjudot. U axborotlarni, jarayonlarni turli xil tarzda qabul qiladi. Bunda ongli, tahliliy qabul qilish va farqlash muhim ahamiyatga ega.

SHaxs, jamiyat va davlat orasidagi munosabatlarning texnologik o‘zgarishi natijasida, munosabatlar texnologiyasi shaxsning mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish kabi jarayonlarning barqaror borishi uchun:

1) Inson hayotida turli vaziyatlarga tushib qolganida uning hayot mobaynida to‘plagan tajribasi, insoniy fazilatlari etakchi rol o‘ynaydi; 2) YOshlarda muammolar, voqeа-hodisalarni real makon va vaqt chegaralarida aniq tasavvur qilish va echimlarini belgilay olishini rivojlantirish muhim; 3) Bir vaqtning o‘zida bir qancha muammolar mohiyatini anglash orqali tajribani yangi muammolar echimiga yo‘naltirish zarur; 4) O‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z faoliyatini aniq va to‘g‘ri tashkil qilish qobiliyati, har qanday ishga shaxsan kirisha bilish va uning bajarilishini nazorat qilish kabi shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish milliy g‘oya maqsadlari bilan hamohang muhim ahamiyatga egadir.

Milliy g‘oya – millatni birlashtiruvchi bamisolari bir bayroq. Jamiyatning har bir a’zosi uchun ahamiyati turli xil “g‘oyalar” kurashi avj olayotgan zamonda yanada ortadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotining asosiy maqsadi ham insonlarni boshqa yot g‘oya va mafkuralar “ta’siriga” tushib qolmasligini, o‘ziga xos ravishda ular bilan kurashish quvvatiga ega bo‘lgan immunitetni shakllantirishga qaratilgan. “Yot g‘oya”, “zararli g‘oya” tushunchalarining ma’no-mazmunini farqlash lozim. Milliy g‘oya har qanday g‘oyani emas, faqat “yot g‘oya” yoki “zararli g‘oya”ni e’tirof etmaydi. CHunki, “yot” yoki “zararli g‘oya”ning maqsadlari ezgu emas, inson maqsadlariga zid, milliy g‘oyaning milliy madaniy va umuminsoniy tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydi. SHuning uchun ham u “yot” yoki “zararli g‘oya” sifatida baholanadi, munosabat bildiriladi. Aynan milliy g‘oyani hayotning mazmuni va maqsadi bilan bog‘lagan shaxsgina bugungi istiqlolning qadriga etadi va uni himoya qilishni ma’suliyati deb his qiladi. “Boshqacha qilib aytganda, hozirgi

vaqtida dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo‘lsa-da, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuraviy tortishuvlar to‘xtagani yo‘q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko‘zlangan maqsad – inson, avvalambor, yoshlari qalbini egallah, muayyan mamlakat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish, uni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish, ma’naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko‘ra dahshatlidir”⁹.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining ob’ekti, predmeti, maqsadi va vazifalarini bilishning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati katta. Aynan milliy g‘oya targ‘iboti yo‘llari va usullari, uni amalga oshirish texnologiyalaridan unumli foydalanishdan maqsad ham uni jamiyat a’zolarining ongiga singdirish yo‘llarini to‘g‘ri ko‘rsatib berishdan iboratdir. Bu jarayon bevosita jamiyatimizning “g‘oyaviy ta’sirlar”, shuningdek, “mafkuraviy tahdidlar” ta’siridan himoya qilishda barchaning ma’sulligi darajasi bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar: milliy g‘oya, targ‘ibot, targ‘ibotchi, texnologiya, interfaol usullar, milliy g‘oya targ‘iboti, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari, targ‘ibot texnologiyasi, targ‘ibot texnologiyalarining reguliyativ ta’siri, milliy g‘oya targ‘ibotining an’anaviy va zamonaviy uslublari, dialektik uslub, yot va zararli g‘oyalar, materialistik dialektika.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar.

1. Milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyasining ob’ekti va predmetini, uning umumiyy va farqli jihatlari bo‘yicha “aqliy xujum” usulida umumiyy va o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy taqqoslang.
2. Fanning asosiy tushuncha va tamoyillarni “Klaster” usulidan foydalanib yozing va tavsiflang.
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini an’anaviylik va zamonaviylik munosabatida “Swot-tahlil” qiling.

⁹ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкура халқни –халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. Т.: “Ўзбекистон”, 1998. Б -5.

2-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy - gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyati

Reja

1. Milliy g‘oya targ‘iboti va ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘zaro bog‘liqligi
2. Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimi va milliy g‘oya negizlari
3. Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda ajdodlar merosi, xalqlarning orzu umidlari aks etgan manbalar

Milliy g‘oya targ‘iboti va ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘zaro bog‘liqligi

O‘zbekistonda qurilishi lozim bo‘lgan yangi jamiyat o‘zining g‘oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyangandagina

pirovard maqsadga erishish mumkin. Qayd etish lozimki, o‘zbek xalqining ming yilliklar davomida yaratgan o‘ziga xos g‘oyalari - tinchlik, ozodlik, hurlik, mustaqillik, ezgulik, barqarorlik, ma’naviy barkamollik, shaxsni ulug‘lash, uning manfaatlarini hurmatlash - bularning bari yangi shakllanayotgan jamiyatimizning g‘oyaviy poydevori hisoblanadi. Ushbu g‘oyalar orqali yoshlarda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish va kamol toptirishda ta’lim-tarbiyaning roli kattadir. «Bugun biz yangi davlat, yangi jamiyat qurayotgan ekanmiz, - deydi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov, - bu tizimda ijtimoiy - siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o‘ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma’no kasb etishi shubhasiz. Avvalo, shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat munosabatlari batamom yangicha mazmun va shakl topishi, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillarga asoslanishi kerak»¹⁰. Darhaqiqat, xalqimiz, ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlodning haqiqatni anglab etishga erishish uchun, avvalombor, ularning dunyoqarashini kengaytirish, yuksaltirish, ongiga milliy g‘oya, uning falsafiy-tarixiy ildizlari to‘g‘risidagi bilimlarni singdirish muhim ahamiyatga ega.

Totalitar tuzum mafkurasi ruhi bilan sug‘orilgan ta’lim tizimi o‘quv

¹⁰ Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Т.:Ўзбекистон, 2000. –Б. 3.

jarayonida o‘quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘l qo‘ymaslik, har qaysi o‘quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, ularning sobiq sovet tuzumiga va soxta g‘oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo‘llash tamoyili asosiy o‘rinni egallar edi.

Respublikamiz mustaqilligini qo‘lga kiritilishi ta’lim va tarbiya tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirish imkonini berdi. Darhaqiqat, totalitar tuzum mafkurasi bilan sug‘orilgan sobiq tuzumning ta’lim sohasidagi yakkahokimligiga chek qo‘ymasdan turib, O‘zbekistonning kelajagini yaratuvchi yoshlarda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, ularning ongi va tafakkurida mustaqillikni mustahkamlovchi g‘oyalarni singdirish mushkul vazifa edi. 1997 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishi va hayotga tadbiq qilinishi ta’lim tizimidagi islohotlar ko‘lamini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim qadam bo‘ldi.

Milliy istiqlol, mustaqillikni mustahkamlash g‘oyasiga asoslangan yangi ta’lim dasturi va ushbu hujjat asosida yaratilgan Davlat ta’lim standartlarida asosiy e’tibor shaxsnинг kamolotiga qaratildi. Bunda ijtimoiy-gumanitar fanlarning mas’uliyati yanada kuchaytirildi. CHunki, sinfiylik g‘oyasi bilan sug‘orilgan totalitar tuzum mafkurasi, kommunistik axloq tarbiyasiga asoslangan adabiyot, tarix, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarga shu qadar singdirib yuborilgan ediki, ushbu fanlarni tubdan o‘zgartirmasdan, yoshlarning tafakkurini o‘zgartirish mushkul edi. YOshlarning mustaqil duyoqarashini va falsafiy tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy gumanitar fanlarning o‘rni beqiyosdir. Mustaqillik tufayli ta’lim sohasiga joriy etilgan “Milliy istiqlol g‘oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Ma’naviyat asoslari”, “Odobnama”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlar yoshlar tafakkurini kengaytirishda, mustaqil dunyoqarashini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Falsafa”, “Etika va estetika”, “Tarix”, “Iqtisod”, “Adabiyot”, “Huquq” kabi ijtimoiy gumanitar fanlar yoshlarga nafaqat ilm beribgina qolmay, ularni komil inson bo‘lib etishishlarida asosiy omil vazifasini bajaradi. Ushbu fanlar orqali g‘oyaviy tarbiya amalga oshiriladi, yoshlarning estetik, huquqiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy dunyoqarashlari yuksaladi. Tarix saboqlari

orqali ularda O‘zbekistonning qadim SHarq sivilizatsiyasining beshigi bo‘lganligi, uning erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari, ozodlik va mustabidlik davrlari o‘rganilib, undan bugungi kunimizga kerakli xulosalar chiqariladi. YOshlarda mustaqillikni qadrlash, tarixiy qahramonlarimiz, mutafakkirlarimizdan o‘rnak olish, ular bilan faxrlanish tuyg‘usi shakllanadi. Falsafa ilmi yoshlarimizni hayotda ezgulik va yovuzlik g‘oyalari kurashida ezgulikning g‘alabasi, taraqqiyotda bunyodkor g‘oyalarning tantanasi, inson hatti-harakatining oqibatlari, ziddiyatlarni bartaraf etishdagi mantiqiy mushohadalarga o‘rgatsa, adabiyot insonni hayotga bo‘lgan muhabbatini, go‘zallikka bo‘lgan his-tuyg‘ularini yanada oshiradi. Adabiyot orqali insonda vatanni sevish, uni qadrlash va vatan uchun fidoiylik hislatlari kamol topadi. SHoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan go‘zal san’at asarlari inson ruhiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy g‘oya - ijtimoiy g‘oya shaklidir. U millat ijtimoiy ongingin mahsuli. SHunday ekan milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning, jumladan “Falsafa”, “Tarix”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Huquqshunoslik”, “Maiaviyat asoslari”, “Iqtisodiyot”, “Pedagogika” kabilarning o‘rni bekiyosdir.

Miliy g‘oya va ijtimoiy gumanitar fanlar o‘rtasidagi umumiylar aloqadorlik shundan iboratki, ularning har ikkalasi ham insonlar qalbida ezgulik, adolatparvarlik, yaxshilik, insonparvarlik, bunyodkorlik, axloqiy go‘zallik kabi tuyg‘ularni kamol toptirishga xizmat qiladi. Milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlari katta bo‘lib, bu bevosita o‘sha fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarida ko‘zga tashlanadi. Jumaladan, Milliy g‘oya – milliy o‘zlikni anglashdan, tarixiy xotirani tiklashdan, milliy g‘urur va iftixon tuyg‘usini anglashdan boshlanar ekan. Bu xususiyatlarni anglashda tarix fanining imkoniyatlari beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida yaratilgan haqiqiy Vatan tarixini, ma’naviy va moddiy merosimizni o‘rgangan yosh avlodga targ‘ib-tashviq etishda, ularni tarixiy merosimiz bilan yanada chuquroq tanishtirish, qurollantirish va haqiqiy tarixni yoshlar ongiga chuqurroq singdirishda tarix fani yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqli. Bu ishlarni zamонавиј мafkuraviy audiovideo va

ko‘rgazmali vositalar bilan qurollangan holda olib borish kerak milliy g‘oya targ‘ibotida samarali natijadorlikka olib keladi. “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”¹¹ degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov.

Tarix fani orqali xalqimizning qadimgi, o‘tmishdagi madaniyati, urf odatlari, beqiyos ilmiy merosi, buyuk ajdodlari haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lamiz va ular bilan bugun faxrlanamiz. SHuningdek, xalqimizning necha asrlik tarixi davomida mustaqillik va mustamlakachilik davrlarini qiyosiy taqqoslash orqali mustaqillikning buyuk va bebaho ne’mat ekanligini anglashimizda ham ushbu fanning imkoniyatlari kattadir.

Falsafa fani olamni bilish, odamni olamga munosabati, insonning dunyoqarashi va qadriyatlarga munosabati, mantiqiy fikrashi va bir butun dunyonи yaxlitlikda,o‘zaro aloqadorlikda olib o‘rgana ekan, bu masalalarning echimi, yutug‘i milliy g‘oya targ‘ibotida ham muhim o‘rin tutadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotida “Adabiyot” fanining imkoniyatlari ham alohida ahamiyata egadir. Buyuk adib Abdulla Qahhor ta’kidlaganidek, “Adabiyot atomdan kuchlidir”. Darhaqiqat, dunyoda mafkuraviy kurashlar avj olayotgan hozirgi vaqtida mumtoz adabiyotimiz orqali yoshlarimiz qalbida milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat, vatanparvarlik va ezgulik g‘oyalarini kamol toptirish dolzarb ahamiyatga egadir. Xalqimizning mardligi, qahramonligi va vatnaprvarligini o‘zida jo etgan “To‘maris”, “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “SHiroq”, “O‘tgan kunlar”, “YUlduzli tunlar”, “Sarbadorlar”, “Amir Temur” kabi ma’naviy meroslari aynan adabiyot darslarida yoshlar ongiga singdiriladi. Vatanni, ota-onani, sof muhabbatni madh etuvchi she’rlar ham adabiyot darslari orqali o‘quvchilar tomonidan yod olinadi. Bu esa ular qalbida bunyodkor g‘oyalarni yanada keng o‘rin olishida katta imkoniyat yaratadi. Aynan, adabiyot fani orqali o‘quvchilar qalbida kitobga muhabbat, milliy va jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk adib va shoirlarning ijodi orqali yoshlar qalbida

¹¹ Каримов И. А. “Юксак маънавият енгилмас куч”. Т., “Маънавият” 2008, 4\б.

vatanparvarlik, muhabbat va sadoqat, imon e’tiqod, yuksak ma’naviyat kamol topadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlardan biri bo‘lgan pedagogika fani imkoniyatlaridan milliy g‘oya targ‘ibotida foydalanish muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Aynan milliy g‘oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishda ta’lim-tarbiya muassasalarining o‘rniga alohida e’tibor berilganligi ham bejiz emas. YOshlar ongida mustaqil dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim tarbiyaning o‘rni katta. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “... Biz – o‘z haq-huquqini taniydigan, buning uchun kurasha oladigan; O‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko‘radigan; Atrofida sodir bo‘layotgan voqeа - hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan; SHaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritadigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak”².

YUqoridagi fikrdan ko‘rinib turibdiki, milliy g‘oya targ‘iboti bevosita shaxs tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Pedagogikaning mafkuriyyiy asosi - milliy istiklol g‘oyasi va tamoyillarini o‘zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishidan iborat. Bunday barkamol insoni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaniig fidoyi, mustiqil fakrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifitli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat asosiy vazifalarni amalga oshirib borish orqali yoshlar qalbiga milliy g‘oya singdirib boriladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi “Ma’naviyat asoslari”, “Iqtisodiyot”, “Axloqshunoslik”, “Estetika” kabi fanlaning imkoniyatlari ham Milliy g‘oya targ‘ibotida alohida ahamiyatga ega, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mamlakat mustaqilligining muhim poydevori iqtisodiyot ekanliginidan kelib chiqib, iqtisodiyotimizda erishilayotgan yutuqlar xalqimizning farovonligini ta’minlashi haqidagi bilimlar orqali milliy g‘oyaning amaliy ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

² И.А.Каримов. “Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда”. Т.: “Ўзбекистон”. 2000. 232-233-бетлар.

Prezidentimiz SH.Mirziyoev bu masalaga alohida e'tibor qaratib shunday deydi: "Inson manfaatlarini ta'minlashda iqtisodiyotimizning yuksak sur'atlar bilan barqaror rivojlanishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz. Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. SHu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi¹².

Umuman olganda, har bir pedagog, targ'ibotchi o'z faoliyatida ijtimoiy-gumanitar fanlarning imkoniyatlaridan o'rinli foydalangan holda, milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirsa, yoshlar qalbida milliy g'oya chuqur o'rin egallaydi va ularning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ijtimoiy gumanitar fanlar tizimi va milliy g'oya negizlari

Tarixdan shu narsa ma'lumki, hech bir davlat yoki jamiyat g'oyasiz, mafkurasiz bo'lishi mumkin emas. Bordiyu davlat yoki jamiyatning muayyan maqsad sari birlashtiruvchi o'z g'oyasi, mafkurasi bo'lmas ekan, u holda o'sha davlat yot va zararli mafkuralar ta'siriga tushib qolishi shubhasiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lishi mumkin emas. Agar biror bir insonning o'z orzu istaklari, o'z maqsadi va tanlagan yo'li bo'lmasa, boshqa odamlarning maslahatiga, ko'rsatmasiga amal qilib yashaydi. Bu esa har doim ham yaxshi natijaga olib kelavermaydi. Jamiyatning o'z tanlagan yo'li - bu uning g'oya va mafkurasida o'z ifodasini topadi. Biz tanlagan erkin, ozod, obod, vatan va farovon hayot yo'limizning mohiyati yoshlarimiz ongiga, ularning qalblariga etib bormas ekan, g'oyaviy tarbiya, milliy g'oya targ'ibotida e'tiborsizlikka, loqaydlikka yo'l qo'yilsa, yoshlar ongida g'oyaviy bo'shliq yuzaga kelishi muqarrar. G'oyaviy

¹² Ш.Мирзиёев. Конун устуворлиги ва инсон манбаатларини таъминлаш — юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишиланган маросимдаги маърузаси.

bo'shliqni oldini olishda ta'lim-tarbiya muassasalarida o'qitilib kelinayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mustaqillik sharofati bilan qayta tiklangan tariximiz sahifasida xalqimizning ming yillik tarixi, madaniyati, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning adolatli siyosati va uni jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishi, YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan 4 mingdan ortiq moddiy va ma'naviy yodgorliklarimizni milliy qadriyatlarimiz darajasidan umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgani har bir yurtdoshimizning qalbida faxr va iftixonor tuyg'usini kamol toptirishi shubhasiz. Bu kabi ilmiy dalillar asosida millatimizni, davlatimizni kansituvchi vayronkor g'oyalarga qarshi kurashish, o'tmishi buyuk yurt bo'lganligimizni asoslovchi g'oyalar bilan, kelajagimiz ham buyuk bo'lishiga yoshlarni safarbar etishimizda tarix fani yutuqlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

YUrtimiz xalqlariga xos bo'lgan bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalarining tarixiy ildizlari ham uzoq o'tmishga borib taqalishini asoslashimizda ham tarix va dinshunoslik kabi fanlarning yutuqlari muhim o'rinn tutadi. Bu esa o'z navbatida, millatchilik, aqidaparastlik, shovinistik g'oyalarni oldini olishda, yoshlarimizni milliy va diniy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan vaqtimizda mamlakatimiz iqtisodiyoti ayanchli ahvolda edi. Ijtimoiy iqtisodiy imkoniyatlarimiz yuqori bo'lishiga qaramasdan, oziq-ovqat mahsulotlari, g'alla, sanoat mahsulotlari chetdan keltirilar edi. mamlakatimiz asosan, qishloq xo'jaligiga, xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan edi. Jamiyatni isloh etishda, mamlakatni rivojlantirishda, xususan, iqtisodiyotni rivojlantirishda Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro miqyosda tan olingan taraqqiyotning "O'zbek model'i va unda ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilini hayotga tadbiq etilishi orqali erishilgan ulkan yutuqlarimiz asosan iqtisod fani orqali yoshlar ongiga singdiriladi. Bu o'z navbatida O'zbekistonni yildan yilga rivojlanib borayotganini, xalqimizga farovon turmush kafolatlanib borayotganidan dalolat beradi. YUrtimizda yashayotgan har bir fuqaro, yosh avlod o'z imkoniyatlarini

to‘la ishga solish orqali moddiy farovonlikka erishayotganligi, buning uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar, huquqiy asoslar yaratilganligi bevosita “Huquqshunoslik” fani orqali tushuntirilar ekan, bu ham o‘z navbatida yoshlar ongida milliy g‘oya chuqur o‘rin tutishiga, g‘oyaviy bo‘shliqni oldini olishga katta imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibida Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar fani mustaqillik yillarda shakllangan fanlardan biridir. Ushbu fanning kategoriyalari bo‘lgan g‘oya, ideya, mafkura, ideologiya kabi tushunchalari falsafa fanida ancha ilgariroq o‘ziga xos tarzda tadqiq etilgan. “G‘oya – insonning borliqqa, ijtimoiy jarayonlarga, jamiyat hodisalariga bo‘lgan munosabati, o‘z oldiga qo‘ygan muddaolari asosida vujudga keladigan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, odamlarni harakatga chorlaydigan, ularni muayyan maqsad sari etaklaydigan va biron-bir tarzda namoyon bo‘ladigan fikr yoki fikrlar majmuini ifodalaydi”¹³. G‘oyani gnoseologik nuqtai nazardan tushunish quyidagi ma’nolarni anglatadi:

- ❖ inson ongingin tarkibiy qismi;
- ❖ tashqi olamning obrazli, in’ikosi va aksi;
- ❖ inson va hodisalarni anglash shakli;
- ❖ inson ongingin tashqi olam va hayot hodisalariga nisbatan aks ta’sirining namoyon bo‘lish shakllaridan biri.

G‘oyani falsafa nuqtai nazaridan tushunish, ya’ni uni gnoseologiya va ontologiya asosida talqin qilish nihoyatda muhimdir. G‘oyani gnoseologiya nuqtai nazardan tushunishda narsa va hodisalar mohiyatini anglatadigan falsafiy kategoriya ekani e’tirof etiladi. Bu, o‘z navbatida, uni ilmiy tushuncha sifatida talqin qilish imkonini beradi va g‘oyani siyqalashtirish maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatadi. G‘oyani ontologiya nuqtai nazardan tushunish esa uning ob’ektiv reallik bilan uzviy aloqada ekanligini isbotlash uchun asos bo‘ladi. Bunday yondoshuv haqiqiy g‘oya nafaqat sub’ektiv hodisa, ya’ni biron bir kishi tomonidan xayolan o‘ylab topilmaydigan, balki tashqi olam va hayot hodisalari

¹³ К.Назаров. Фоялар фалсафаси. Т., Академия., 2011. – Б.42

asosida shakllanadigan, o‘z ob’ekti va sub’ektiga ega bo‘lgan tushuncha ekanini isbotlash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda “g‘oya”, “mafcura”, “ideya” va “ideologiya” tushunchalari ishlatiladi. Ideya va ideologiya ko‘proq g‘arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. “Ideya” iborasi yunon tilidagi “idea” so‘zidan olingan, u ideologiya so‘zining o‘zagi hisoblanadi va tushuncha, yohud fikr ma’nosini anglatadi. Ideologiya atamasi esa g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limotni anglatadi va ikki xil ma’noda ishlatiladi. 1. G‘oyalarning mazmun mohiyati, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha hisoblanadi. 2. Muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga etishish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi. G‘oyaning ijtimoiy xarakteri shunda namoyon bo‘ladiki, muayyan g‘oya, odatda, alohida shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasiga yoyiladi. Bu jarayonda har bir inson o‘z ma’naviyatini, g‘oyalar dunyosini o‘zini shaxs sifatida anglaganidan boshlab, hayotini oxirigacha shakllantirib, rivojlantirib boradi. Mustaqil hayotga qadam qo‘ygan yangi avlod jamiyatdagi mavjud g‘oyalar ta’sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g‘oyalarni o‘z e’tiqodiga singdiradi, o‘z navbatida yangi g‘oyalarni yaratadi va targ‘ib etadi. Falsafiy nuqtai nazaridan g‘oyalarni o‘rganishga qaratilgan yuqoridagi tahlildan, jamiyatdagi mavjud g‘oya ta’sirida yosh avlod tarbiyalanib, uning ta’sirida voyaga etar ekan, demak, milliy g‘oya asosida yoshlarni tarbiyalab, ushbu g‘oyani ularning e’tiqodiga aylantirishda falsafa fanining xizmati nihoyatda katta ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyot – so‘z orqali isonning his tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega. SHuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. Har bir adabiyot milliydir, shunga ko‘ra u har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi¹⁴. Xalqning tarixiy hayotidagi va ruhiyatidagi xususiyatlar adabiyotning milliyligi mazmunini tashkil etadi va o‘ziga xos milliy shaklni yuzaga keltiradi.

¹⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси 1 жилд.Т., 2000, - Б.120.

Adabiyot hayot oynasi bo‘lishi bilan birga u millatning mavjudlik belgisidir, adabiyoti yuksak millat jahon umumjamiyatida yuksak qadrlanadi va jahonga o‘z millatini tarannum qila oladigan daholar etkazib bera oladi.

I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyotdir”¹⁵ Milliy mustaqillik davri adabiyotida tasvirlanayotgan inson o‘zining bashariyat, vatan, el yurt oldidagi mas’uliyatini chuqur his etgan holda namoyon bo‘lmoqda.

«Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodasini, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi»¹⁶.

Milliy g‘oya targ‘ibotida hech bir vosita adabiyot va san’atchalik ta’sir kuchiga ega emas. Badiiy adabiyot milliy g‘oyaning muhim manbai sifatida juda qadim tarixiy ildizga egaligini xalq og‘zaki ijodiyotini boy namunalari maqollar, naqllar, ertagu rivoyatlar, mehnat va marosim qo‘shiqlari, shuningdek, “Avesto”, “Oltin yorug”, “Alpomish” dostonlar mohiyatida o‘z ifodasini topgan milliy g‘oyaga xos bunyodkorlik, ezgulik kabilar buni yaqqol tasdiqlaydi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida xususan, qahramonlik eposlarida vatanparvarlik, mehnatsevarliak, yovuzlikka qashi kurash ilgari surilgan bo‘lib, bular sirasiga Qayumars, Alp Erto‘nga, Alpomish, Go‘ro‘g‘li kabilar shular jumlasidandir. Badiiy adabiyotda tarixiy shaxslar timsoli jumladan, SHiroq, To‘maris, Spitamen, Amir Temur kabi obrazlar Vatan erki, ozodligi va hurligi ramzidir.

Adabiyot milliy g‘oyani ajdodlardan avlodlarga etkazishdek o‘ta muhim vazifani ado etib kelgan. YA’ni, xalq ruhidagi ezgu g‘oyalarni, orzularni ro‘yobga chiqishida, kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Milliy g‘oya adabiiy, ma’naviy ildizlardan kuch oladi, rivoj topadi. CHunki, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar silsilasi mujassamdir. Ahmad YAssaviy

¹⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 136-бет.

¹⁶ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 137 б.

hikmatlarida, Alisher Navoiy dostonlarida bu kabi g‘oyalar chuqur joy olganligini ko‘rishimiz mumkin.

Milliy g‘oyaning muhim tamoyillari hisoblanmish millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik yuqoridagi misralarda bayon etilgan. Ushbu g‘oya buyuk shoir va faylasuf Mirzo Bedil ijodida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mutafakkir insonlarga bo‘lgan munosabatda ularni bo‘lishda mazhab, millat, din kabilarga qarab ajratishni qoralaydi. Hammani insonlarni sevishga chaqiradi.

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda ajdodlar merosi, xalqlarning orzu umidlari aks etgan manbalar

Istiqlol yillarida mustaqillik, erkinlik, vatanparvarlik, ezgulik g‘oyalarini o‘zida mujassam etgan badiiy asarlar, she‘r va g‘azallar xalqimiz qalbidan chuqur joy

olib, yanada rivojlanmoqda. SHoir va yozuvchilar tomonidan yaratilayotgan keng qamrovli asarlarni yoshlarimiz tomonidan mutolaa qilinishini yanada yuksaltirish maqsadida kitob o‘qish madaniyati yurtboshimiz SH.Mirziyoev tomonidan davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ham bejiz emas, albatta. YUrtimizda qizlar uchun ta’sis etilgan “Zulfiyaxonim” davlat mukofoti ham adabiyot orqali milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘yilgan ulkan qadam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. YOsh shoira qizlarning Ona vatanni, mehr muhabbatni, ota-onani madh etuvchi ijod namunalari yoshlar qalbida milliy iftixor tuyg‘usini yuksaltirishda yana bir omildir. YUrtboshimiz SH.Mirziyoevning bir qator shoir, adib, yozuvchi, san’at va madaniyat xodimlari bilan bo‘lgan uchrashuvda, ular oldiga xalqimizni ma’naviy kamol toptirishga, ularga ruhiy ko‘tarinkilik kayfiyatini ulashishga, xalqimizning ming yilik tarixi, qadriyatları, ulkan madaniyatini o‘zida mujassam etgan, komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladigan badiiy va san’at asarlarini yaratish vazifasini qo‘ydilar. Bu esa milliy g‘oya targ‘ibotida adabiyot va san’atning o‘rnini yaqqol ko‘rsatadi.

San’at insonni xudbinlik dunyosidan forig‘lantirish orqali qalbni turli muammolardan forig‘ etib, yuksaklikka - insoniyat kelajagi bilan bog‘liq masalalar orqali boyitadi. San’at va adabiyotda namoyon bo‘luvchi estetik xususiyatlar,

jumladan, ulug‘vorlik insonni qahramonlikka, vatanparvarlik millatsevarlikka undasa, go‘zallik muhabbatga – insonparvarlikka jalb qiladi.

Teatr san’ati boshqa san’at turlari kabi obrazli – badiiy tabiat bilan inson qalbiga emotsional ta’sir ko‘rsatish, uning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borish, shu orqali ma’naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega.

Inson san’at va adabiyot bilan estetik munosabatga kirishganda nafaqat asardan zavq oladi, balki o‘zi ham ijodiylikka intiladi. Estetik rag‘bat hozirgi zamonda shunchaki ko‘ngil ochish ma’nosini anglatibgina qolmay, inson ma’naviyatini, inson mohiyatini ifodalash usuli hamda inson ruhiyati orqali butun bir olamni tanish yo‘lidir.

Adabiyot va san’at asarlarininig kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki ruhiy dunyosiga emotsional ta’sir ko‘rsata olishidadir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalshda adabiyot va san’atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir.

SHarq ilk uyg‘onish davri qomusiy olimi Abu Nasr Forobiy (872—950) tabiiy-ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy masalalar bilan bir qatorda tilshunoslik, she’riyat, notiqlik san’ati, xattotlik va musiqa nazariyasiga oid o‘nlab asarlar yaratdi.

Forobiy insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqa san’atining o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Forobiy san’at o‘z mohiyatiga ko‘ra ruhiy hayotning inikosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha, musiqaning kishilar tuyg‘usiga ta’siri buyukdir. Bu ilm shu ma’noda foydaliki, o‘z muvozanatini yo‘qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, noqis xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo‘lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi, deydi u. Forobiy musiqaning shifobaxsh kuchini uqtirib, «bu ilm tananing salomatligi uchun hach foydalidir», deydi.

Darhaqiqat Birinchi Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek, “Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta, bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib

bo‘lmaydi... Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakillari tomonidan ijo etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi”¹⁷.

Ayniqsa qo‘shiqlarimizdagi matnlar masalasiga I.Karimov a’lohidagi e’tibor qaratgani bejiz emas. “Agar insonning qulog‘i engil-elpi, tumtarot ohanglarga o‘rganib qolsa, bora- bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas... Oxir oqibatda bunday odam “SHashmaqom” singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va CHaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi”¹⁸.

Aflatun fikricha, musiqa va qo‘shiq san’atida ijo etiladigan go‘zal, mardona harakatlar yaxshi odamlarga yoqadi, bachkana, engiltak, hunuk harakatlar yomon odamlarga yoqishini ta’kidlaydi. Aflatun musiqa sanatining davlat siyosatida muhim o‘rin tutishi, musiqa, qo‘shiq, raqsdan ham qanday ta’sirlanishiga qarab, fuqarolarning aqliy, axloqiy, ma’naviy barkamolmi yoki engiltak, ongsiz, yomon xulqli ekanligi farqlash mumkinligi haqida fikr bildirgan edi.

“...O‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va milliy madaniyatini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiti va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san’ati namunalaridan keng bahramand bo‘lishi uchun zarur shart sharoitlar yaratish, musiqiy ta’limni yanada rivojlantirish masalalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi”¹⁹.

Adabiyot va san’at asarlari mustaqil Respublikamiz fuqarolari ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma’naviy g‘oyasi yuksak, badiiy, jozibali adabiyot va san’at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta’sir qilish, hayotiy voqeа-hodisalarni chuqur mushohada etishga da’vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. SHuning uchun adabiyot va san’at asarlari kishilarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta’sir etishdek

¹⁷ Ислом Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: 2008. 140 б

¹⁸ Ислом Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: 2008. – Б.143

¹⁹ И.А.Каримов. «Юксак маънавият енгилмас куч» асари. Т.: 2008. – Б.143

vositalik xususiyatidan imkonи boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz SHavkat Mirziyoevning bir qator san'at arboblari, adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida ushu masalaning dolzarb ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. 2017 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"²⁰gi qarori e'lon qilindi. Undan ko'zlangan maqsad aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy etuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlarni takomillashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Ushbu qarordan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturda bir qator vazifalar belgilangan bo'lib, ular orasida O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rirlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash; yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalg etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda yanada keng targ'ib etish, xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "SHarq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, O'zbekiston Respublikasi

²⁰Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг "Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисидаги" қарори. 2017 йил, 31 май.

Madaniyat vazirligi yoshlarni teatr va muzeylarga, konsert-tomosha tadbirlariga tizimli ravishda jalb etish orqali ularning ma’naviy-axloqiy, estetik va madaniy darajasini yanada yuksaltirish kabi bir qator vazifalarning belgilanishi ham bejiz emas, albatta.

Xulosa qilib aytganda, Milliy g‘oya targ‘iboti ijtimoiy-gumanitar fanlar, adabiyot, san’at va madaniyatning roli katta bo‘lib, targ‘ibotchilar ularning imkoniyatlaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy-gumanitar fan, falsafa, “Falsafa”, “Tarix”, “O‘zbek tili va adabiyoti”,. “Huquqshunoslik”, “Maiaviyat asoslari”, “Iqtisodiyot”, “Pedagogika”, SHarq sivilizatsiyasi, “g‘oya”, “mafcura”, “ideya” va “idealogiya”, Teatr san’ati

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. YOshlarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishda ta’lim tizimining roli qanday?
2. Ijtimoiy - gumanitar fanlarning milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rni va o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. Milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy- gumanitar fanlarning imkoniyatlari qanday?
4. G‘oyaning mazmun-mohiyati, shakllanishi va rivojlanishida falsafaning o‘rni qanday?
5. YOshlar qalbida milliy tuyg‘uini shakllantirishda adabiyot qanday rol o‘ynaydi?
6. Milliy g‘oya targ‘ibotida san’atning imkoniyatlari qanday?

3-mavzu: Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi: mazmun mohiyati, tuzilmasi va tasnifi

Reja:

1. Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati
2. Oliy ta’lim tizimida “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanining tuzilmasi va tasnifi
3. Oliy ta’lim tizimida milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini modernizatsiyalash va innovatsiyasi

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati

Ma’lumki, barcha davrlarda ham o‘qitish mazmuni, ta’lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o‘zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Jamiat taraqqiyotidagi ijtimoiy o‘zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta’lim mazmunida o‘z aksini topadi. Buni ilm-fan sohalaridagi o‘zgarishlarning o‘qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko‘rish mumkin. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan asoslangan ilmiy bilimlardan yosh avlodni xabardor etish maqsadida tizimli, izchil, uzluksiz va albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boriladi. XX asrda texnika va texnologiya sohalarining jadal rivojlanishi esa ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy o‘zgarishlar, ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ta’lim mazmuniga singdirishda peshqadamlikka erishildi. Agarda ta’lim jarayonida o‘tgan asrning 30-yillarida pedagogik texnika sifatida usul va vositalar qo‘llanilgan bo‘lsa, 50-yillarda ta’lim jarayonini texnik vositalar yordamida tashkil etish, 60-yillarda esa o‘qitish ishlarini dasturlash an’anasi shakllandı²¹.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab beruvchi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” uzluksiz ta’lim tizimi oldiga umumiylar hamda mutaxassislik madaniyatini yuksak, ijodiy va ijtimoiy

²¹Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг табиийасослари. – Тошкент: “Фан” нашириёти, 2006 й.

jihatdan faol, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan voqealarni tahlil eta oladigan, istiqbolli masalalarni hal etish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash vazifalarini qo‘ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligini taqazo etmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligiga hamda ularni o‘quv muassasalariga yanada keng miqyosda tadbiq etishga alohida ahmiyat qilib kelinmoqda. Respublikamizning etuk olimlari ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqda.

«Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tavsiflab bera olmaydi, shuning uchun mazkur tushunchani ijtimoiy-falsafiy tahlil qilgan holda tadqiq etsak, unda oliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalar bu o‘qituvchi tomonidan o‘qitish vositalari yordamida talabalarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni, deb ta’riflasak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’lumki, uzoq yillardan beri pedagogik o‘qitish texnologiyalarga o‘quv jarayonini texnik vositalari yordamida amalga oshirish deb qarab kelindi. Faqat 70-yillardan boshlab adabiyotlarda bu tushuncha yangicha talqin etila boshlandi. **Texnologiya** - sub’ekt tomonidan ob’ektga ko‘rsatilgan ta’sir natijasida sub’ektda sifat o‘zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob’ektga yo‘naltirilgan amallarning bajarilishini ko‘zda tutadi. **Ta’lim texnologiyasi** (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishidir. Ma’lumki, **ta’lim texnologiyasi** – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiylarini, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga

erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi deganda, pedagogning o‘qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoitlarda ko‘rsatgan tizimli ta’siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa, deb ta’riflash mumkin. Ta’riflar nazariyasi bo‘yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik o‘qitish texnologiyasi deyiladi.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ilmiy-ma’rifiy aloqalar o‘rnata boshladilar. Natijada, mamlakatimiz ta’lim tizimiga ilg‘or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. SHular qatorida, jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib keldi hamda pedagog jamoatchilik bu texnologiya bo‘yicha muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.

Pedagogik texnologiyani o‘quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergen rossiyalik olim V.P.Bespalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir»²². Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov esa «Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo‘lgan tartibli amallar tizimidir», degan qisqacha ta’rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e’tiborni qaratadi. «Pedagogik texnologiya – o‘quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg‘unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub’ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi»²³, - deydi. V.M.Klarin fikricha esa, pedagogik texnologiya – o‘quv

²²Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика. 1989г.

²³ Монахов В.М. Аксиоматический подход к проектированию пед. технологий. Педагогика. 1997г. №6.

jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingen maqsad ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, o‘quv jarayonini loyihalashdir²⁴.

B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta’rif beradi: Pedagogik texnologiya – ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv bo‘lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog‘liq ijtimoiy hodisadir²⁵.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergen. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofig‘i **YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi.** “**Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir**”.

Oliy ta’lim tizimida “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanining tuzilmasi va tasnifi

YUqoridagi ta’rifni tahlilidan kelib chiqqan holda aytish mumkin, ta’limning barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. SHunda milliy g‘oyaning yoshlar ongiga singdirish borasidagi turkum fanlarni, jumladan, oliy ta’lim tizimida “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanining tuzilmasi va tasnifini shaffoflashtiradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu xolat ta’lim jarayonida talabada mustaqil bilim olish ehtiyojini shakllanib borishiga zamin yaratadi. Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo‘llab ko‘rildi. Ta’limni muammoli tashkil etish, ta’limda o‘quvchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch so‘zlariga asoslanish, ta’limni optimallashtirish va boshqalar tajribadan o‘tdi. Lekin, bu pedagogik vositalar ayrim o‘qituvchilarda samarali natija bersa ham, uni ommaviy yo‘sinda ta’lim tizimiga kiritib bo‘lmadi. “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanining asosiy

²⁴ Кларин В.М. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: Знание 1989г.

²⁵ Фарберман Б.Л. Илғор педагогик технологиялар. – Т.: 1999 й.

mohiyati talabalar ongini innovatsion g‘oyalar bilan boyitish, fanni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishishdir. Ta’limda berilayotgan bilimlarni talabalarning ko‘pchilik qismi puxta o‘zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimda “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanining o‘qitishda quyidagilar strukturaviy elementlari sifatida kompleks funksiyani bajaradi. **Texnik vositalari** – o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o‘quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi (Diaproektor, Grafoproektor, Doska-bloknot, Doska-stend, Flipchart, Videofilmlar). **YOrdamchi ta’lim vositalari** – chizmalar, na’munalar va diagrammalar. **O‘quv – uslubiy materiallar** – talabalarning mustaqil ishlashlarini faollashtirishga yordam beradilar. **Tarqatma materiallar** – ta’lim oluvchilar uchun o‘rganilayotgan mavzuga oid asosiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, hajmi uncha katta bo‘lmagan yozma o‘quv materiali hisoblanadi. Mazkur materiallar mashg‘ulotni qiziqarli qilish imkonini berib, ko‘p hollarda ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ravishda o‘qib chiqib, muhokama qilish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” tarqatma materiallarini tayyorlash va qo‘llashda ta’lim oluvchilarga haddan tashqari ko‘p tarqatma materiallar bermaslik kerak, matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo‘lishi kerak, varaq dizayni e’tiborni o‘ziga tortishi kerak.

Pedagogik texnologiya asosida dars o‘tishda eng asosiy talab talabaning hayotiy tajribasi avval o‘zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko‘zda tutadi. Pedagogik texnologiya o‘rganilayotgan soha bo‘yicha talabalarda bilim etarlicha bo‘lmagan holda ham talabada salbiy kechinmaga o‘rin qoldirmaslikni, bu talabaning aybi emasligini tan olishni talab etadi. Faollik ko‘rsatilsa, bilimlarni o‘zlashtirib olishga talabalarda ishonch hosil qilish tavsiya etiladi.

Oliy ta’lim tizimida milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini modernizatsiyalash va innovatsiyasi

Mamlakatimizda fan va texnologiyalar modernizatsiyasi borasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar samaradorligini oshirish, respublika ijtimoiy hayotining har bir sohasi va jabhasini rivojlantirish hamda yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minlashga keng jalg etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis a’zolariga murojaatnomasida ham o‘z aksini topgandir. YOshlarning iqtidori, ilmiy salohiyati va shijoatidan unumli foydalanish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish, ularni innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy texnika va texnologiya, axborot-kommunikatsion madaniyatni puxta o‘zlashtirgan, murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan bilimli, etuk yosh mutaxassislarni tarbiyalashga ko‘maklashish, yoshlar o‘rtasida o‘zaro ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini, do‘stlik aloqalarini rivojlantirish, o‘zaro fikr-mulohaza va tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib berish masalalariga katta urg‘u berilgandir²⁶.

YUrtboshimizning mazkur talabi va tavsiyalari bugungi kunda talaba shaxsining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun albatta ta’lim shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarurligini anglatadi. Xo‘sish, innovatsiya tushunchasining mohiyati qanday? Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “**Innovatsiya** (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va

²⁶Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис аъзоларига Мурожаатномаси. –Т.: 2017 йил 22 декабр.

faoliyat doiralarida qo‘llanishi”²⁷. **Innovatsion ta’lim** esa, (ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro). Ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, tartib-qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir. Ta’lim innovatsiyalari “innovatsion ta’lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsion ta’lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo‘llanilgan.

Innovatsiyalar turli ko‘rinishga ega bo‘lib, ularni “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari” fanini o‘qitish doirasida tushuntirishga harakat qilamiz. Faoliyat yangi g‘oyalar asosida, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar; odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublari yordamida amalga oshiriladi. Va bu uning asosiy ko‘rinishi sanaladi.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashda sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Ular, samarador innovatsion bilish faoliyatining asoslarini topish; uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo‘qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko‘ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish; talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish; o‘qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo‘qotish; ta’lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash; texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o‘zlashtirish va boshqalar.

Oliy ta’lim tizimida Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini modernizatsiyalash (ingl. **modern** – yangilangan, zamonaviy, tezkor o‘sish) ta’lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Ta’limni modernizatsiyalashdan maqsad ta’limning taraqqiyotini ta’minlash va tizimda XXI asrda yashayotgan jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy va

²⁷Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Конигил / 4-том. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари: М.Аминов ва б. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 169-бет

ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim. YA’ni:

- ❖ ta’lim tizimining barcha bosqichlarida zamonaviy ta’lim sifatini ta’minlash;
- ❖ ta’limning xuquqiy-me’yoriy bazasini takomillashtirish va tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarni yangi resurslarini aniqlash hamda jalb etish;
- ❖ pedagoglarning kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va rag’batlantirish;
- ❖ ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘nggi yutuqlarini keng joriy etish;
- ❖ fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi konsorsiumni rivojlantirish;
- ❖ uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning kreativ ko‘nikmalarini, intelektual sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish va boshqalardir.

Buning uchun ta’limni tashkil etish jarayonida talabaning qobiliyatları, extiyojlari va o‘ziga xos jihatlarini xisobga olib interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’lim tizimi kelib chiqadi.

Tayanch tushunchalar: texnologiya, pedagogik texnologiya, oliv ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi, texnik vositalar, yordamchi ta’lim vositalari, o‘quv – uslubiy materiallar, tarqatma materiallar, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, innovatsia, innovatsion ta’lim, innovatsion ta’lim texnologiyaları, innovatsion jarayon.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. «Texnologiya» tushunchasining mazmun-mohiyati, bu tushuncha fanga qachon kirib keldi?
2. Oliy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyasi degan nimani tushunasiz?
3. Bugungi kunda mamlakatimizda fan va texnologiyalar modernizatsiyalash va ilg‘or innovatsiyalarni joriy etish borasida qanday islohotlar amalga oshrilmoqda?

4-mavzu: Milliy g‘oya fanining pedagogik texnologiya asosida o‘qitish nazariyasi

Reja:

1. Milliy g‘oya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish
2. Milliy g‘oyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning ahamiyati
3. Milliy g‘oyani o‘qitishda nazariya va amaliyot birligi, uning avfzalligi

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish mustaqillikning ilk kunlaridanoq

eng muxim vazifalardan biri sifatida doimiy diqqat-e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g‘oyaning zarurligi va uning ahamiyati ham ichki, ham tashqi siyosatimiz istiqbollari, samaradorligi bilan bog‘liq. SHu nuqtai nazardan milliy g‘oya jamiyatimizni taraqqiy topgan demokratik mamlakatlardagi kabi erkin va farovon hayot barpo etish bilan ham bog‘liq. Demak, milliy g‘oya biz uchun eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad, tengsiz oliv ne’mat - mustaqillikni bundan buyon ham asrab avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo‘lib qolaverar ekan, uning zarurligi hech bir davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Milliy g‘oya o‘z-o‘zidan inson ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e’tiqodiga aylanib qolmaydi. Bunga har bir inson o‘z hayoti davomida erishib boradi.

Bugungi kunda milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning turli usullari va yangi innovatsion texnologiyalari mavjud bo‘lib, ularni dars jarayonida hamda darsdan tashqari vaqlarda qo‘llagan holda yoshlar ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. 2001 yil 18 yanvarda Birinchi Prezidentimizning «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish

to‘g‘risida»gi Farmoyishi qabul qilindi²⁸. SHuningdek, 2006 yil 25 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»²⁹ qarori qabul qilindi. Demak qaror va farmoyishlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy g‘oyani o‘qitish zaruriyatdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, «SHuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-onas, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi»³⁰.

Ta’limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to‘la egallashlariga erishish, shaxsning ta’lim diqqat markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minalash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini oshirib borish lozim.

²⁸Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январда қабул қилинган «Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани бўйича таълим дастурларини яратиш ва республика таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Фармойиши. «Маърифат» газетаси. 2001 йил 20 январь

²⁹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 25 avgustda қабул қилинган «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги қарори. «Халқ сўзи» газетаси, 2006 йил 26 avgust

³⁰И.А.Каримов «Юксак маънавият-енгилмас куч» – Т.:»Маънавият», 2008.. 61-6.

Milliy g‘oyani o‘qitishda pedagogik texnologiyalar nazariyasi va uning ahamiyatি

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bir necha turga bo‘lish mumkin:

1. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
2. Didaktik- o‘yinlarga asoslangan texnologiyalar.
3. Hamkorlik texnologiyalari.

Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o‘zları qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida interfaol ta’limni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilmoqda: Ularning ba’zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Zamonaviy interfaol metodlar sifatida «Munosabat», “Case-study”, «Blits-so‘rov», «Modellashtirish», «Ijodiy ish», «Reja», «Suhbat» metodlarini ko‘rsatishimiz mumkindir. Amaliy yo‘naltirilgan, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlovchi uslublar o‘z xususiyatlariga ko‘ra innovatsion hisoblanadi. Ularga: tashkiliy-faoliyatli o‘yinlar (TFO‘), ishchan va rolli o‘yinlar, personallarning muloqoti, ijodiy ishlar, psixotexnika, rolli trening va boshqalar kiradi. “Case-study” – aniq iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarning tavsifidan foydalangan holda o‘qituvchilarda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish texnikasidir. Strategiyalar sifatida «Galereya», «Aqliy hujum», «Zinama-zina», «Bumerang», «Zig-zag», «Muzyorar», «Rotatsiya», «T-jadval», «YUmaloqlangan qor» va h.k. Grafik organayzerlar deb esa «Venn diagrammasi», «Insert», “Baliq skeleti», «BBB», «Konseptual jadval», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» kabi innovatsion ta’lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi. Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta’limning eng takomillashgan shakli sanaladi.yoshlari

mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan bunday vaziyatlarni to‘g‘ri baholab, ulardan chiqib keta oladigan, sifatlarga ega bo‘lishlari zarur. YOshlarda ana shunday sifatlarni o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik vaziyatli masalalarni echishga qaratilgan – keyslardan foydalanilgan mashg‘ulotlarda shakllantirish va rivojlantirish mumkin.

O‘qitishning interfaol uslublaridan bo‘lgan “Case-study” uslubidan talabalar nazariy holatlarni o‘zlashtirish va o‘quv materiallarini amaliyotga tadbiq etish maqsadida foydalanmoqdalar; u talabalarni kasbga yo‘naltirishga ta’sir etadi, ularning aqlan ulg‘ayishiga ko‘maklashadi, o‘qishga nisbatan qiziqish va ijobjiy motivatsiyani shakllantiradi. Bir vaqtning o‘zida “Case-study” uslubi o‘qituvchining fikrlash obrazi sifatida ham, boshqacha o‘ylash va harakat qilish, o‘zining ijodiy salohiyatini yangilovchi, uning alohida paradigmasi bo‘lib chiqadi.

Milliy g‘oya fanining mavzulari bo‘yicha pedagogik texnologiyalar loyihalari va metodlaridan foydalangan holda dars o‘tiladi. SHuni ta’kidlash joizki, fanining barcha mavzularini ta’lim texnologiyalari asosida o‘tkazsa bo‘ladi, bu muammo emas.

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega, ya’ni har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- ❖ pedagogik faoliyat samaradorligi oshirish;
- ❖ o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;

- ❖ talabalar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- ❖ talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- ❖ talabalarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- ❖ pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Milliy g‘oya fanini o‘qitishda video – ko‘rgazmalarning qulayliklari: - o‘quv dasturi asosida o‘rganilishi kerak bo‘lgan materiallarni talabalarga ixcham, qulay ko‘rinishda taqdim etish; - texnik vositalarning talaba bilan interfaol usullarda muloqatda bo‘la olishi; -talabalarning o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘rganishi va olgan bilimlarini test sinovlari asosida sinab ko‘rishi mumkinligini ham ta’kidlashimiz mumkindir. Dars tashkil etishning an’anaviy va noan’anaviy shakllari.

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan an’anaviy dars - («markazda o‘qituvchi bo‘lgan ta’lim modeli», deb ham atashadi) muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. An’anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga etkazish va tushuntirishdan iborat. Odatda, an’anaviy dars berishga passiv dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin, darsda o‘quvchilarning faol yoki nofaolligi darsni qanday o‘tishga va uni rejalashtirishga bog‘liq. An’anaviy darsning samaradorligini oshirish uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini mutassil

rag‘batlantirib turish, o‘quv materialining mazmunini ochishda baxs-munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, turlicha baholash usullari va vositalarini o‘z o‘rnida qo‘llash talab etiladi.

Milliy g‘oyani o‘qitishda nazariya va amaliyot birligi, uning avfzalligi

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan bugungi kunda ta’lim tizimida bilimlarni egallahning yangi konsepsiyasi — zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarning turli xil ko‘rinishlarini qo‘llash juda yaxshi samara bermoqda. Bunda ta’limning yangi metodlardan foydalanishda tahsil oluvchilarining intellektual, erkin fiklashni rivojlantirish, o‘z fikrini asoslab berishga intilishi, o‘zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar echimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta’sir etadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metoddan foydalanishning o‘rni, uning samaradorligini bilishi muhimdir. Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, etarli bilimlar bilan qurollangan, ta’lim oluvchilarga nisbatan muammolarning echimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta’lim oluvchilarga etkazish malakasiga ega bo‘lishi lozim. SHuningdek, innovatsion texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirishga va o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaqil baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qila oluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. SHuning uchun ham ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Va bu bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘qituvchining kasbiy mahorati, hayotiy tajribasi, zamonaviy o‘qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning foydalana olishi ta’limning sifatini ko‘taradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, Milliy g‘oya fanini o‘qitishda har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e’tibor qaratish, g‘oyaviy tarbiya vositasida **talabaning salohiyatini** maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir talabaning iqtidorini rivojlantirishga urg‘u berish zarur. Buning uchun talabani passiv ijrochilikdan emas, balki faol tashabbuskorlikdan ko‘proq manfaatdor ekanligiga ishontirish kerak. O‘quv jarayonida bu vazifani hal qilish uchun ta’lim jarayonini «yodlash»dan xalos qilish va uni muammolarni hal qilishga yo‘naltirish zarur. Talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantirish ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. “Foyaviy tarbiyani tashkil qilishda nazariy fikrlarga amaliy shakllar berish, bilimlarni harakatlarga aylantirish muhim sanaladi. Buning uchun pragmatik fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi”³¹. Mana shuning uchun ham milliy g‘oya ruhidagi tarbiya biz uchun benihoya muhimdir. Bunda milliy o‘z-o‘zini tahlil va tanqid ham muayyan o‘rin egallashi lozim. CHunki, millat o‘zini o‘zi ma’nан tozalab, poklab borishi kerak.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’lim-tarbiya, an’anaviy va noan’anaviy ta’lim, Muammoli ta’lim texnologiyalari. Didaktik texnologiyalar, Hamkorlik texnologiyalari, «Munosabat» metodi, “Case-study” metodi, «Blits-so‘rov» metodi, «Modellashtirish» metodi, «Ijodiy ish» metodi,

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazmun-mohiyati, turlari deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari samaradorligini oshirishda qanday omillarga tayanish lozim?
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida nazariya va amaliyot birligini ta’minlashning ahamiyati nimalardan iborat?

³¹ Эргашев И. Миллий истиқлол гояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслер. -Т.: Академия, 2005. 303-304-б.

5-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning asosiy omillari

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish tushunchasi, ma’no-mazmuni
2. Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish shart - sharoitlari va omillari
3. Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish yo‘llari va texnologiyalari

**Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish tushunchasi,
ma’no-mazmuni**

XXI asrda insoniyat o‘z

taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo‘ydi. Milliy g‘oyani singdirish usullari, texnologiyalari o‘zgardi. Dunyoda katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o‘zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rusum bo‘ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko‘rilmagan darajada o‘stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘llanilmayapti, balki ma’naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga xam shu nuqtai nazardan yondoshish milliy g‘oyani targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi. Milliy g‘oyani kishilar qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me’yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko‘rinadiki, masalan, targ‘ibotda me’yorning buzilishi, milliy mafkura to‘g‘risida me’yordan ortiq gapiraverish, me’yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasi milliy g‘oya va milliy mafkura mazmun-moxiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Multimediya - axborotni (matn, rasm, animatsiya, audio, video) tasvirlashning ko‘p kanallik usuli. YA’ni milliy g‘oya targ‘ibotida berilayotgan ma’lumotlarni texnik vositalar asosida tinglovchiga taqdim etishdir.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasini takomillashtirish deganda, avvalo milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘llaniladigan texnologiyalarni samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini takomillashtirish bugungi kunning zaruriy ehtiyojiga aylangan masalalardan biridir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. CHunki, g‘oyaviy, mafkuraviy kurashlar jarayonida dunyoning turli mintaqalaridan amalga oshirilayotgan mafkuraviy xurujlar, axloqsizlik g‘oyalari, ijtimoiy illatlarni targ‘ib etishga qaratilgan buzg‘unchi g‘oyalar milliy g‘oyaga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Bunday vaziyatda yurtimiz fuqarolari, mamlakatimiz yoshlari o‘zimiz tanlagan yo‘ldan og‘ishmay, yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oya atrofida yanada jipslashishi taqazo etiladi. Mana shunday vazifani amalga oshirishda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini zamon bilan hamnafas holda takomillashtirish, uning samaradorligi ustida izlanishlar olib borish, targ‘ibot ishlariiga innovatsion yondoshish talab etiladi. Milliy g‘oya va mafkura targ‘iboti muammolari bo‘yicha izlanish olib borgan respublikamizning bir qator olimlari bu sohada ishlarni muvofiqlashtirish, stixiyali harakatlar, o‘zibo‘larchilik va kampaniyabozlikka yo‘l qo‘ymaslik lozimligini uqtiradi, Xususan, siyosatshunos olim SH.Paxrutdinov mafkura targ‘ibotida quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozimligini uqtiradi³²:

- ❖ vazifalarni nazarda tutgan holda bevosita tashkiliy chora va tadbirlarni ko‘rish;
- ❖ ma’naviyat va ma’rifat ishlarini olib boruvchi kadrlarni tanlash va qayta tayyorlash, ularning faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;
- ❖ zarur bo‘lgan moddiy-texnika vositalar bazasini yaratish;
- ❖ ommaviy axborot vositalarini aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda jalgan qilish;
- ❖ ma’naviy va ma’rifiy ishlarning samarali tajribalarini keng yoyish.

YA’ni, mafkura targ‘ibotida muayyan muddat shiddat bilan avj oladigan, keyinchalik so‘nib qoladigan tashviqot ishlariiga emas, balki doimiy ravishda

³² Пахрутдинов Ш. Тахдид - халокатли куч. Т.: «Академия», 2001. Б.45.

uzluksiz davom etadigan va tizimiylashtirish asosga qurilgan ma'rifat ishlarga tayanish samarali hisoblanadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish shart - sharoitlari va omillari

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o‘zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzARB vazifalardan biridir.

Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Ular:

Ta’lim va tarbiya. Milliy mafkurani yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta’lim-tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi.

Bunda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- ❖ ta’lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy mafkurani singdirishning o‘ziga xos pedagogik-psixologik dasturini yaratish; Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchi-talabalar ongida milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;
- ❖ o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g‘oyalarini teran aks ettirish;
- ❖ mакtab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko‘tarish;
- ❖ pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Fan va ilmiy muassasalar milliy mafkurani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu borada quyidagi masalalarga asosiy e’tibor qaratiladi:

- ❖ aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma’lumoti, yoshi, jinsi, kasbi va boshqalar) hisobga olgan holda, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning samarali yo‘llarini keng ko‘lamda ilmiy tadqiq etish;
- ❖ milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy,

huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlarning mafkurani shakllantirish va boyitishdagi o‘rni va ta’siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish;

- ❖ mafkuralar kurashining jahonshumul jarayonini o‘rganish, uning monitoringini, bu kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash;
- ❖ mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga ega. Bunda kutubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istirohat bog‘lari, muzeylar va boshqa muassasalar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyoqarashini yuksaltiradigan, kishilarga ruhiy-ma’naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim.

Bu dargoxlarda turli anjumanlar, davra suhbatlari, bahs-munozaralar, uchrashuvlar yusushtirish, milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyatini har bir ijtimoiy qatlamga tushunarli tarzda izohlab beradigan qo‘llanma va tavsiyalar tayyorlash ayniqsa muhim.

Madaniy-ma’rifiy muassasalar yoshlarni haqiqiy san’at, chinakam badiiy go‘zallik ruhida tarbiyalash maskanlari bo‘lmog‘i lozim.

Madaniyat va san’at sohalari faoliyatining butunlay tijorat asosida tashkil etilishiga, g‘oyaviy-badiiy jihatdan sayoz, milliy qadriyatlarimizga yot asarlarning etakchi o‘rinni egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim ahamiyatga ega.

Adabiyot va san’at. Bu sohada ijod ahlining g‘oyaviy-badiiy salohiyatini komil inson tarbiyasiga yo‘naltirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi darkor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, oljanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san’at asarlari yaratishga har tomonlama rag‘batlantirish. YOshlarga ibrat bo‘ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish.

Milliy g‘oyani tarannum etishga, istiqlol mafkurasiga zid g‘oyalarning zararli moxiyatini ochib berishga, ayniqsa, e’tiborni kuchaytirish zarur. Hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, babs-munozara, tanqid va tahlillar orqali mafkuraviy muxitning sog‘lom bo‘lishiga erishish.

Din. Eng nozik va murakkab bo‘lgan bu sohada, avvalo, din ma’naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri ekanini, barcha zamonlarda milliy g‘oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg‘un rivojlanishini nazarda tutish lozim. Din o‘z mohiyatiga ko‘ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg‘ular orqali milliy istiqlol mafkurasining g‘oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas dinimizga sog‘lom va mu’tadil munosabatni shakllantirish — bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi insonning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kamolotga erishishida ham ulkan omildir. Sport irodani toblaydi, odamni aniq maqsad sari intilish, qiyinchshgaklarni bardosh va chidam bilan engishga o‘rgatadi. Inson qalbida g‘alabaga ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Vatan, xalq shuxratini dunyoga tarannum etishda, yoshlarni **harbiy-vatanparvarlik** ruhida tarbiyalashda sportning o‘rni beqiyosdir.

Sog‘lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo‘lgan xalq albatta o‘zining buyuk kelajagini barpo etadi. SHuning uchun jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini ta’minlash, uni rivojlantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim shartidir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebahो meros sifatida o‘tib kelayotgan **urf-odat, marosim va bayramlar** ham milliy mafkuraning asosiy g‘oyalarini singdirishda muhim omil bo‘ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro‘z, O‘qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo‘lida oqilona foydalanish zarur.

Bugungi kunda urf-odat va an’analaramizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to‘liqroq foydalanish lozim.

Milliy an’analarni o‘rganish, targ‘ib etish bilan bir qatorda to‘y-ma’rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratish darkor.

Oila. Oila – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. CHunki, oila – jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog‘lom muhit – sog‘lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligani, o‘zaro hurmat va ahillikni ta’minalash – milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi.

Mahalla. O‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an’analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihatni, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g‘oyalari singdirib boriladi.

Mahalla – avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu erda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlariniadolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. SHu ma’noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mehnat jamoalari inson umrining asosiy qismi o‘tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma’naviy muhitdir. Ular kishida jamoa ruhi, mehnatsevarlik, omilkorlik, adolat tushunchasi, mehr-oqibat tuyg‘ularini tarbiyalaydigan o‘ziga xos maskan bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat jamoalari turli millat va dinga mansub odamlarni do‘stlik va hamjihatlik, o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga o‘rgatadi. Bu esa o‘z navbatida sog‘lom ma’naviy muhitni vujulga keltirishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyati bilan fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilmalilligiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etish g‘oyasining amalga oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistondagi har bir partiya o‘z dasturiy qarash va maqsadlarini ro‘yogda chiqarish uchun barcha huquqiy asos va qonuniy kafolatlarga ega.

Har bir partiyaning o‘z dasturiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etish jaraenida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir. Chunki, xalq manfaatlari, istiqlol g‘oyalari, qaysi siyosiy va mafkuraviy kuchga mansubligidan qati nazar, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddasdir.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faoliyat ko‘rsatayotgan **nodavlat notijorat tashkilotlar** milliy g‘oya targ‘ibotida ishtirok etadi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Oila ilmiy-amaliy markazi, Faylasuflar jamiyati, Ijtimoiy fikr jamoatchilik markazi kabi tashkilotlar milliy g‘oya maqsadalarini targ‘ibot etishda muhim o‘ringa ega.

SHuningdek, milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini joriy etishga moddiy, tashkiliy va ma’rifiy jihatdan ko‘mak beradigan "Sog‘lom avlod", "O‘zbekiston yoshlar ittifoqi", "Oltin meros", "Amir Temur", "Iste’dod", "Mahalla" jamg‘armalari va boshqa jamoat tashkilotlari ham katta imkoniyatlarga ega.

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish, milliy istiqlol mafkurasini xalqimiz, avvalo, yosh avlod ongiga singdirshida alohida o‘rin tutadi. Ular ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayoni, bu boradagi muammolarni, jamiyat hayotining turli qirralarini tezkorlik bilan aks ettiradigan eng samarali vositadir. "To‘rtinchchi hokimiyat" hisoblangan ommaviy axborot vositalari turli xil fikrlar, rang-barang qarash va yondashuvlarga keng yo‘l ochib berishi, hayotimizda yuz berayotgan yangilanish va o‘zgarishlarga odamlarning ongli munosabatini uyg‘otishi, xolislik va haqqoniyat tamoyillariga tayanib faoliyat yuritishi lozim³³.

SHunga e’tiborni qaratish lozimki, bular milliy g‘oya targ‘ibotini amalga oshirishda o‘ziga xos alohida subektlardir. SHuning uchun, ular o‘z faoliyatida bevosita amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalarni amalga oshirish bilan birga uni milliy g‘oya maqsadlari bilan mushtarak ekanligini, hamda har bir yo‘nalishda targ‘ibot texnologiyalaridan bu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishda muhim

³³ Қаранг: Миллий истиқбол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. Ўзбекистон, 2000. 62-69 бетлар.

ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish shu sohalarning rivojlanishiga hamda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari bilan mos kelishiga ko‘maklashadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish yo‘llari va texnologiyalari

Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim ahamiyatga egadir:

- ❖ belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minlash;
- ❖ milliy g‘oya targ‘ibotining sifatini muntazam oshirib borish;
- ❖ davr talablaridan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo‘llarini izlash;
- ❖ eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ❖ mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- ❖ mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatçilik ko‘rinishlariga barham berish;
- ❖ mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ‘ibot tizimiga ega bo‘lishga intilayotganini alohida ta’kidlash lozim. Masalan, o‘z faoliyatining targ‘ibotiga AQSH hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bo‘lmasa kerak. Fransiya ham o‘z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamayotgandir? Bu ma’lumotlar targ‘ibotni ma’naviy-ma’rifiy ishlarda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hayotidagi o‘zgarishlar insonlar ongida ham katta o‘zgarishlar qilishni talab etadi. O‘tish davrida davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida qayg‘urishi tabiiy. Demak, O‘zbekistonda ham komil inson g‘oyasida e’tirof etilgan erkin shaxsga mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasini amalga oshirish muhimdir. **SHuning uchun ham mafkuraviy targ‘ibot texnologiyalaridan foydalanishda:**

- ❖ targ‘ibotning xolisligi;
- ❖ sog‘lom, ezgu maqsadlarni ko‘zlash;
- ❖ bir tomonlama mafkuraviy maqsadlardan xoli bo‘lish;
- ❖ xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlariga hurmat bilan qarash;
- ❖ demokratik tamoyillar, inson erkinligi huquq va manfaatlarini ustuvor deb bilish;
- ❖ xalqlar o‘rtasida yovuz g‘oyalarni, ixtilof va ayirmachilikka undaydigan hatti-harakatlarga chorlamaslik;
- ❖ g‘oyaviy, mavkuraviy plyuralizmga asoslanish “plyuralizmdan” ezgulik maqsadida foydalanish;
- ❖ fikr erkinligini hurmat qilish asosida fikriy mushtaraklik, hamjihatlik g‘oyerlarini targ‘ibot etish muhim ahamiyatga ega.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini takomillashtirishda Jahonda keng tarqalgan «to‘rt qadamli» universal modeldan foydalanish ham samarali natija beradi:

1-qadam: muammoning qo‘yilishi. Mafkura targ‘ibotida singdirilishi zarur bo‘lgan g‘oyerlar belgilab olinadi. Bundan tashqari, «Nima uchun aynan bu g‘oyalarni singdirishga ehtiyoj tug‘ildi?», «Bu g‘oyani singdirish ishlariga qaysi tuzilmalar jalb qilinishi kerak?», «Bu g‘oyalarni singdirish jarayonida qaysi ijtimoiy guruqlar qamrab olinadi?» kabi savollarga javob topish lozim. To‘plangan ma’lumotlar asosida singdirilishi zarur g‘oyalarga jamiyatdagi ehtiyoj, jamoatchilikning fikri, ommaviy axborot vositalarida bu masalalarning qay darajada yoritilganligi va umuman, shu kungacha qilingan ishlar aniqlab olinadi.

2-qadam: rejallashtirish va dasturlashtirish. Bu bosqich uzoq muddatga mo‘ljallangan kommunikativ (muloqot) vazifalar strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Mafkura targ‘ibotida avvalo, kishilarning milliy g‘oyaga munosabatlari, uni qay darajada tushunishlari, ularning qadriyatlari o‘rganib chiqiladi. Bundan tashqari, kishilarni milliy istiqlol mafkurasining muayyan g‘oyasi haqida doimiy xabardor qilib turuvchi axborot manbai yaratiladi. Singdirib borilayotgan g‘oyalarga kishilarning munosabati o‘rganilib, bu

axborotlar chuqur tahlil qilinadi. Davlat idoralari va fuqarolar o‘rtasidagi muloqotlar muntazam ravishda muvofiqlashtirib boriladi. Umuman bu bosqichda, dasturning maqsadi (harakatlar nima maqsadga xizmat qiladi), ta’sir ko‘rsatish auditoriyasi (kimlarga asosiy e’tibor beriladi), kutilayotgan natijalar (har bir auditoriya bilan ishashdan ko‘zlangan aniq maqsad nima) belgilab olinadi. Milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ibotida auditorini segmentlash, ya’ni uni bir necha guruhlarga ajratib o‘rganish, ularga ta’sir ko‘rsatishning shu guruh uchun samarali bo‘lgan usullarini ishlab chiqish zarur. Bu guruhlarga qadriyatlari va manfaatlari bir-biridan farq qiluvchi qatlamlarni, masalan, talabalarni, askarlarni, tadbirkorlarni, nafaqaxo‘rlarni, ziyolilarni, erkaklarni, ayollarni, yoshlarni yoki keksalarni kiritish mumkin. Tabiiyki, milliy g‘oyani singdirishda ziyolilarga etkaziladigan axborotlar bilan tadbirkorlarning kayfiyatlariga ta’sir ko‘rsatib bo‘lmaydi. SHuning uchun vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirishda talabalarga ham, harbiy xizmatchilarga ham, ziyolilarga ham, dehqonlarga ham bir hil munosabatda bo‘lish, bir xil usullardan foydalanish kutilgan samarani bermaydi. Chunki, turli ijtimoiy guruh vakillarining dunyoqarashi, manfaatlari va qadriyatlari bir-biridan farq qiladi. Mafkura targ‘ibotida aynan mana shu qadriyatlarga, manfaatlarga mos g‘oyalarni ilgari surish ko‘proq samara berishi mumkin. Umuman olganda, ushbu bosqichda kishilarning ongida, ularning harakatlarida o‘zgarishlar yasash uchun nimalar qilish kerakligi aniqlab olish zarur.

3-qadam: muloqotga kirishish. Milliy istiqlol mafkurasi targ‘ibotini samarali tashkil etish uchun asosiy kommunikativ vazifalar rejalashtirilgan va aniq maqsadlar sari yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, kommunikator (axborot beruvchi) va auditorianing qarashlari bir-biriga yaqinlashtirilishi lozim. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarda quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur: 1) auditoriya fikrini eng ko‘p ifoda etayotgan ommaviy axborot vositalari turiga e’tibor qaratish; 2) auditoriya ishonchini eng ko‘p qozongan ommaviy axborot vositasi turidan keng foydalanish; 3) biror muammo xususidagi kommunikator va auditorianing qarashlaridagi farqlarni kamroq ko‘rsatish zarur (jumladan, mavjud muammolarni xolis yoritish va auditorianing ishonchini

qozonish); 4) voqeа-hodisalarni yoritishda auditoriyaning manfaatlaridan kelib chiqib yondoshish; 5) kommunikatorning pozitsiyasini ko‘pchilikning pozitsiyasi sifatida talqin etish; 6) jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga mos holda alohida yondoshish. Axborotni etkazishning e’tiborli jihat shundaki, u yangiliklar ko‘rinishida bo‘lsa-da, faqat bir tomonlama maqtov shaklida emas, balki ko‘pchilikni qiyayotgan muammolarning echimi sifatida, barchaga tushunarli tilda bayon etilishi lozim. SHunday qilib, uchinchi bosqich o‘z ichiga quyidagi elementlarni qamrab oladi: harakat strategiyasi, kommunikativ strategiya, dasturni amalga oshirish rejasи.

4-qadam: yakuniy xulosalar yasash. YAKUNIY XULOSALAR YASASH IKKI YO‘NALISHDA: baholash mezonini ishlab chiqish va aks aloqalarni o‘rganish shaklida amalga oshiriladi. Baholash mezonini ishlab chiqishda kishilarga singdirilgan g‘oya ularga qay darajada ta’sir etganligini aniqlashning ob’ektiv mezonlari belgilansa, aks aloqalarni o‘rganishda berilgan axborotlar soni, unga kishilar tomonidan qilingan reaksiyalar, singdirilgan g‘oya natijasida kishilar o‘z harakatlarini qay daraja o‘zgartirganliklari tahlil qilinadi. Jamoatchilik fikridagi bu kabi o‘zgarishlarni muntazam ravishda o‘rganib borish mafkurani singdirish borasidagi kelgusi ishlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya, adabiyot va san’at, ilm-fan, oila, mahalla, sport, siyosiy, institutlar, «to‘rt qadamli» universal model, muammoning qo‘yilishi, rejlashtirish va dasturlashtirish, muloqotga kirishish, yakuniy xulosalar yasash.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savollar.

1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi qanday ma’noni anglatadi?
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasini takomillashtirishga ehtiyoj va zurat nimadan iborat?
3. Milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘llaniladigan yangi texnologiyalarga nimalar kiradi?
4. Milliy g‘oya targ‘ibotida qo‘llaniladigan “to‘rt qadam”li universal modelning afzallikkлari nimada?

6-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning texnologik asoslari

Reja

1. Milliy g‘oya targ‘ibotini texnologik asoslari tushunchasining ma’no-mazmuni
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologik asoslari tuzilmasi va tasnifi
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi asoslariga qo‘yiladigan talablar

Milliy g‘oya targ‘ibotini texnologik asoslari tushunchasining ma’no-mazmuni

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning

samaradorligi avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhimi jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan bog‘liqdir.³⁴ Tafakkurning o‘zgarishi va yuksalishi o‘z navbatida Milliy g‘oyaning xalqimiz ongi va qalbidan qanchalik chuqur joy olayotganligi bilan bog‘liqdir.

Milliy g‘oya targ‘iboti asosan o‘quvchi,talaba va tinglovchilarga o‘quv jarayonida; keng xalq ommasi, jamoatchilikka esa jamoat tashkilotlari, ijtimoiy siyosiy institutlar, etakchi olim va mutaxassislar tomonidan turli xil usul va vositalar orqali olib boriladi. Milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishda asosiy e’tibor ushbu masalaga texnologik yondoshuvni nazardan qochirmasligimiz kerak.

Milliy g‘oya targ‘ibotining texnologik asosi deganda, milliy g‘oyani targ‘ib va tashviq qilishda qo‘llaniladigan barcha usullar, uslublar, texnik vositalar asosida tizimli ravishda, samarali natijadorlikka olib keluvchi yondoshuv tushuniladi. Xo‘s, biz milliy g‘oya targ‘ibotida qanday usullar, qanday uslublar va qanday vositalardan foydalansak, yoshlarimizning, fuqarolarimizning qalbida fidoiylik, vatanparvarlik, daxldorlik, mas’uliyatlilik, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, adolatparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni qaror toptirishimiz mumkin? Ta’lim tizimiga kiritlgan Milliy g‘oya

³⁴ Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, 76-77-бетлар.

targ‘iboti texnologiyalari kursining asosiy vazifalari ham aynan manashunga qaritlgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

YUqorida qayd etilganidek, o‘quv jarayonida va jaoat tashkilotlari, jamoatchilik tomonidan olib boriladigan milliy g‘oya targ‘ibotida qanday texnologik asosda yondoshsak, ushbu targ‘ibot ishini takomillashtirishga muvofiq bo‘lamiz. Bugungi texnika va texnologiyalar asrida avvalo har bir targ‘ibotchi nafaqat notiqlik san’atini egallashi, balki, kompyuter, internet, proektor, elektoron doska kabi bir qator texnik vositalardan foydalanishni ham bilishi zarurdir. CHunki bugun tinglovchi yoki o‘quvchilarni faqatgina nutqimiz bilan ilgri surayotgan g‘oyamizga ishontirishimiz, milliy g‘oyamizga ergashtirishimiz, ularni kelajagimizni farovon etishga safarbar etishimiz nihoyatda mushkuldir. SHu nuqtai nazardan qaraganda, har bir ilgari surayotgan g‘oyamizni rangli tasvirlardagi multimedya, animatsiyali taqdimotlar, hujjatli filmlar, yurtimiz erishgan muvaffaqiyatlar, bugungi zamonimiz qahramonlari erishgan xalqaro miqyosdagি yutuqlarni o‘zida ifoda etuvchi, turli xil ko‘rgazmali vositalar asosida olib brilishi milliy g‘oya samaradorligini oshishiga, uni takomillashtirishning texnologik asoslarini yanada kuchayishiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rstadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis to‘qqizinchi sessiyasi ma’ruzasida bayon etilgan asosiy vazifa va qoidalarni keng yoritish bo‘yicha tashkiliy-ma’rifiy tadbirlar Dasturida yuqoridagi savollarga javob tariqasida «Dasturni amalga oshirish bo‘yicha quyiladagan asosiy talablar» bandi kiritilgan. Ushbu bandda dasturni amalga oshiruvchi mutasaddilarga quyidagi talablar qo‘ylgan:

- ❖ o‘tkazilayotgan tadbirlarni kampaniyaga aylantirmaslik;
- ❖ o‘qib berish usulidan voz kechish;
- ❖ tadbirlarni “majburiyat”ga aylantirmaslik;
- ❖ odamlar bilan ochiq-oydin va yuzma-yuz muloqatdan qochmaslik

E’tiborliси shundaki, yuqorida qayd qilingan talablar nafaqat davlat dasturining ijrosida, balki milliy g‘oya targ‘ibotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi, milliy g‘oya targ‘iboti masalasiga ham

bugun tanqidiy ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, bir qator kamchiliklarga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jumladan bugungi kunda targ‘ibot-tashviqot ishlarida kampaniyabozlikka berilish, mafkurani targ‘ib qilish o‘rniga uning ta’riflarini «yodlatish», turli tadbirlarga kishilarni majburiy to‘plash, muammolar haqida ochiq gapirishdan qochish, odamlar bilan yuzma-yuz muloqatga voizlarning tayyorlanib kelmasligi, son ketidan quvib, sifatni unutib qo‘yish, targ‘ibotda ayrim tushunchalarning o‘rinli-o‘rinsiz ishlatilishi natijasida ularning qadrsizlanishi kabi muammolar mavjud.

Ochig‘i aytadigan bo‘lsak, targ‘ibotda milliy g‘oya, mafkura haqida bilim berish bilan cheklanish holati mavjud. Ta’kidlash joizki, «g‘oya keng targ‘ib qilinyapti» degani, hali u «xalqqa singyapti, kishilar qalbidan o‘rin olyapti», degani emas. CHunki, mafkura targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi ayrim voizlarninig ma’ruzalari kishilarda shavq va rag‘bat uyg‘otmay, asosan, milliy istiqlol g‘oyasining mohiyati, uning asosiy tushuncha va tamoyillari haqida axborot beradi. Ularning bergen bilimlari kishilar ongida axborot tarzida saqlanadi, lekin qalbini egallab, ularni harakatga undarmikan? Agar aytilgan gaplar kishi ongida axborot sifatida o‘rin olsa-yu, lekin qalbidan, yuragidan o‘rin olmasa, natijaga erishdik, deya olamizmi? Axir, yuksak sifat va mahorat bilan tayyorlangan reklama ham kishida ikki xil fikr uyg‘otishi mumkin: «reklama tayyorlashni qoyillatishibdi» yoki «men albatta shu narsani sotib olaman». Voizlarning gaplari ham insonlarda ana shunday ikki xil ta’sirlanish uyg‘otishi mumkin.

Demak, voizlar ilmiy asoslangan an’anaviy ma’ruza emas, hissiyotlarni uyg‘otuvchi, haroratli, dalillarga boy noan’anaviy nutq, eng zamonaviy texnik vositalardan foydalangan holda kishilarga ko‘proq ta’sir qilishni e’tiborga olishlari zarur.

O‘zbekiston yoshlar mamlakati, yoshlar jamiyatning barcha sohalarida salmoqli o‘rin egallaydilar. SHunday ekan, milliy g‘oya targ‘ibotida yoshlarni jalg‘etish, ularning ongi va qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, insonparvarlik, yurtga sadoqat, xalq farovonligi yo‘lida mehnatsevarlik kabi fazilatlarni kamol toptirish muhim rol o‘ynaydi. **Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, butun dunyoda keyingi**

yillarda talabalarning umumiy soni 13 mln. dan 82 mln gacha oshdi. Butun dunyoda keyingi 30 yil davomida oliy ta’limga bo‘lgan talab hozirga kelib, 6 martga oshdi. 2025 yilga kelib, dunyo bo‘yicha 160 mln. talaba bo‘lishi kutilmoqda. Hozirgi vaqtida esa Evropa mintaqasida umumiy oliy ta’lim hamkorligini tashkil etish bo‘yicha davlatlararo komissiyalar harakat olib bormoqda. Ta’lim tizimi eng avvalo davlat manfaati, milliy xavfsizlik va mustaqillikni mustahkamlovchi kadrlar bilan ta’minlovchi sohadir. Demak, ko‘rinib turibdiki, yoshlarimizning ong-u shuuri milliy g‘oya bilan уш-rilishida, ularni o‘zlarini targ‘ibot ishlariga safarbar etishda milliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning texnologik asoslaridan unumli foydalanish YUrt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash joizki, targ‘ibot ishida o‘ziga qaratish, kishilarga ta’sir ko‘rsatish, ularni ilhomlantirish voizdan juda katta mahorat talab etadi. SHuning uchun, targ‘ibotda voizlar ma’ruzalari ta’sirchanligini oshirish haqida o‘ylab ko‘rish, bunday tadbirdilar ssenariylarini va zamonaviy vositalar orqali puxta taylorlash lozim.

Milliy g‘oya targ‘ibotida maktabning ham o‘rni beqiyos. CHunki olti-etti yoshar bola toki mustaqil shaxs sifatida shakllanib, voyaga etkuniga qadar bo‘lgan hayotini, asosan, maktabda o‘tkazadi. Demak, maktab insondagi qadriyatlar, qarashlar intilish, dunyoqarash va maqsadlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Islom Karimov bu borada kollejlar, maktab va litseylarning ahamiyatini alohida ta’kidlab, «Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda 550 ming o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatmoqda, ya’ni ziyo tarqatmoqda. Besh milliondan ortiq farzandlarimiz maktablarda, turli bilim yurtlarida ta’lim olmoqda. Ularning tarbiyasi haqida o‘ylashimiz, yoshlarimizning baxtli kelajagi uchun qayg‘urishimiz, yosh naslimizni g‘oya bilan qurollantirishimiz kerakmi-yo‘qmi?» degan savolni qo‘ygan edi. Masalaning e’tiborli jihat shundaki, maktab bilim berish bilan birga, g‘oyaviy tarbiya o‘chog‘i ham bo‘lishi lozim. Insondagi vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik xislatlari, komil insonga xos bo‘lgan boshqa xususiyatlarning qaror topishi uning shaxs sifatida shakllanish jaryoni bilan bir vaqtida kechsa, bu sifatlar uning uchun doimiy qadriyatga aylanishi mumkin. SHu bois, maktab yoshidagi

bolalarni etuk inson qilib tarbiyalashda muallimlarning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanadi. Bunda har bir o‘qituvchi bilim yoki tarbiya beruvchi emas, balki o‘qituvchi milliy g‘oyalarning targ‘ibotchisi sifatida muloqat olib borishi maqsadga muvofiq. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z vazifasini faqat o‘quvchiga dars berishdangina iborat deb bilmay, millat ravnaqiga hissa qo‘sadigan fuqorolarni tarbiyalayotganini ham doimo e’tiborga tutmog‘i lozim.

Axloqsizlik g‘oyalarini aksariyat holda tajribasiz yoshlar bilmasdan «evropacha madaniyat» va «erkinlik» sifatida qabul qilib, o‘zлari kutmagan holda aldanib qolishlari mumkin.

O‘zbekistonda axborot xuruji orqali chetdan kirib kelayotgan yot g‘oyalarga qarshi kurashishda bir qator ijtimoiy-siyosiy omillar yuzaga keltirildi va rivojlantirilmoqda. Tarixiy xotira shakllantirilib, Amir Temur davrida shakllantirilgan «kuch-adolatda», «el-yurt ozodligi», «insof va diyonat birligi», «ma’naviyat-kelajak omili» kabi hayotbaxsh g‘oyalar, bugungi kunda yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash, g‘oyaviy immunitetni shakllantirishda ustuvor omil bo‘lib xizmat qilmoqda. YOshlarda mustaqil va tahliliy fikrlashni rivojlantirish ishlari tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ta’lim tizimida mafkurani targ‘ib etishda o‘qituvchi talabalarning didiga, qadriyat va qarashlariga mos tarzda yondashish talab etiladi. Bunda oddiy so‘z texnikasidan tortib, doska, bo‘r, kompyuter, proektor, ko‘rgazmali vositalarning har biridan o‘zo‘rnida foydalanish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. SHuni alohida ta’kidlash joizki, Milliy g‘oya targ‘ibotiga xizmat qiladigan adabiyotlar yosh avlodning tafakkuri va bilim darajasiga mos holda sodda, ta’sirchan, ommabop tarzda yozilishiga ham e’tibor berish zarur.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urf-odatlarimizning

saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lif rivoji, eng muhim jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan bog'liqdir.³⁵

Milliy g'oyani aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbiga singdirish ta'lif tarbiyaning trli uslub, vosita va shakllari orqali amalga oshiriladi. Ular orqali insonlarga to'g'ri yashash, vanparvar bo'lishni va buzg'unchi g'oyalarga murososizlikni, erkin fikrlashni o'rgatish zarur. Bunday murakkab ishni tashkil etishda har bir ijtimoiy toifa yoki shaxsning individual pedagogik psixologik xususiyatlarini hisobga olish, tarbiyalanuvchiga shaxs sifatida qarashni taqazo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta'lif jarayonida, turli tadbirlar, rituallar orqali yoshlarda milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi shakllantiriladi. Ta'lif muassasalarida **bolalar va o'quvchilarining yoshiga mos ravishda milliy g'oyani singdirishning differensial pedagogik psixologik dasturlarini va yangi pedagogik texnologiyalarini yaratish** quyidagi vazifalarni bajargandagina samarali bo'ladi:

- ❖ Mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirish;
- ❖ YOn atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish
- ❖ O'ziga ishonchni mustahkamlash
- ❖ Tarixiy tafakkurni boyitish
- ❖ Intelektual salohiyatni shakllantirish
- ❖ G'arb OAVlaridagi axloqsizlik targ'iboti, o'zining demokratiya modelini olg'a siljitchining asl maqsad muddaolarini tushuntirish
- ❖ Mafkuraviy immunitetni mustahfikriga va kamlash
- ❖ Ongli yashashga – o'z aqli va fikriga, ezgu insoniy g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish;
- ❖ Milliy g'oyaga qiziqishlarini oshirish;
- ❖ Milliy g'oya yoshlarimizning maqsadi, hatti harakatlarining ma'naviy asosiga aylangandagina samarali bo'ladi.

³⁵ Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, 76-77-бетлар.

Bu eng avvalo fikr tarbiyasidir. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri muallimlarning diqqatlariga suyangan muqaddasbir vazifadir”. Bu vazifaning muvaffaqiyatli ado etilishi yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

O‘qituvchi muallimlar yoshlarni turli yomon ta’sirlardan asrashda axloqiy qadriyatlardan foydalanishi va bunda axloqiy ta’sir ko‘rsatish texnologiyasidan oqilona foydalanishlari lozim bo‘ladi. Buning yo‘llari - o‘quvchi bilan munosabatda gumanistik tamoyillarni joriy etish, erkin fikr almashinish muhitining yaratilishidir. “O‘quvchi yoshlarga” tamoyili asosida yoshlarni pssiv tarbiya ob’ektidan o‘z o‘zini tarbiyalashning aktiv sub’ektiga aylantirishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o‘quvchi yoshlar ongiga milliy g‘oya va milliy istiqlol mafkurasini singdirishni uzluksiz tarzda olib borish yuqori samara beradi.

YOshlarni iymon e’tiqodli, aql zakovatli, irodasi mustahkam,bilimli va dono, o‘z yurtitarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘iday saqlashga o‘rgatish oiladan, ota onalar o‘gitidanboshlanib,balog‘at yoshigachabo‘lgan davr va undan keyingi davrlarda ham izchil amalga oshirilishi lozim.

Inson hayotining dastlabki davrlarida oddiy maslahatlar, savol-javoblar, shaxsiy ibrat vositasida amalga oshirilgan ishkeyinchalik murakkab o‘qitish va tarbiya usullari yordamida amalga oshiriladi.

O‘qituvchi va tarbiyachilar tarbiyalanuvchi va ta’lim oluvchilar bilan bog‘chada bog‘cha boladek, maktabda yoshdek, institutda yoshlardek gaplashishi kerak. CHunki ta’lim muassasasining havlisi bu pedagogik munosabatlar maydonidir. Bu erda har bir so‘z, har bir nigoh, hatti harakat tarbiya maqsadlariga bo‘ysundirilishi shart. Pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish. Pedagog kadrlar malaka oshirish tizimida maxsus, yangi pedagnogik texnologiyalarga asoslangan, tinglovchilarda mafkuraviy kurash, informatsion xurujlar sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning eng yangi nazariy bilim, texnologik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish zarur.

Milliy g‘oya targ‘iboti va kishilarni mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgan buniyodkor ishlarga safarbar qilishda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish zarur:

- ❖ Aholining ijtimoiy xususiyatlarini (ma’lumoti, yoshi,jinsi, kasbi vabosh.) hisobga olgan holda, milliy g‘oya ruhida rivojlanishning samarali yo‘llarini qo‘llash;
- ❖ Aholining psixologik xususiyati.
- ❖ Milliy g‘oyaning milliy, umuminsoniy, falsafiy,diniy, huquqiy, siyosiy, sotsiologik, ijtimoiy iqtisodiy, ma’naviy ma’rifiy, pedagogik psixologik asoslarini, urf odatlar, an’analar va intelektual qadriyatlarning milliy g‘oyani shakllantirish,boyitish va xalqimizning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, mutaqillikni mustahkamlashga qaratilgan ishlarni muntazam olib borish;
- ❖ Paydo bo‘layotgan mafkuraviy tahdidlar, informatsion xurujlarga qarshi kurashda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining samarali usullarini qo‘llash;

Milliy g‘oya xalqimiz tomonidan qanchalik to‘g‘ri, aniq tushunib olinsa, har kim o‘z vazifasini aniq tiniq bilib olsa, ijro ham, natija ham shunday aniq, tiniq samarali bo‘ladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologik asoslari tuzilmasi va tasnifi

YUqorida biz Millliy g‘oya targ‘ibotini takomillashtirishning texnologik asoslarini atroflicha yoritishga harakat qildik. Masalani yana bir muhim jihat shundan iboratki, umuman milliy g‘oya targ‘iboti texnologik asoslari qanday tuzulmaga va tasnifga ega. Albatta, targ‘iboti ishida keragidan ortik texnik vositalar, turli xil usuldagagi yondoshuvlar bo‘lsa-yu, biroq ularning tuzulmasi, izchilligi bo‘lmasa, bunday yondoshuv kutilgan natijani bermasligi tabiiy. O‘quv jarayonida odatda asosiy texnik vosita sifatida doska, bo‘r, nutq, proektor, kompyuter kabilardan to‘g‘ri foydalanish tavsiya etiladi. CHunki ma’ruza jarayonida to‘satdan miyaga kelgan sana, rakam kabilar taqdimotda qayd etilmagan bo‘lishi tabiiy. SHubilan birga, o‘rni kelganda, doskaga o‘qituvchi mahorati bilan chiziladigan chizmalar, sur’atlarning ham milliy g‘oya targ‘ibotida

o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Ta’lim tizimida va jamoatchilik targ‘ibotida multimediyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi.

Multimediya - axborotni (matn, rasm, animatsiya, audio, video) tasvirlashning ko‘p kanallik usuli. YA’ni milliy g‘oya targ‘ibotida berilayotgan ma’lumotlarni texnik vositalar asosida tinglovchiga taqdim etishdir. Multimediya lavhalari - Kompakt disklar yoki ma’lumotlarni boshqa kompyuter tashuvchilarida, shuningdek, foydalanuvchilarga ixtiyoriy vaqtda kirish imkoniyatini beradigan, ko‘rgazmali, animatsiyalangan va ovozli lavhalarning yig‘indisi.

Multimediyali darsliklar – Multimediya muhit yordamida tasviriy materiallarni yuqori tartibli dinamikasi bilan SD disklardagi darsliklar.

Multimediya texnologiyasi - interfaol dasturiy ta’mintonning turli vaziyatlarni multedasturlashlarini qamrab olgan elektron hujjatlarni tayyorlash usuli.

Multimediya orqali olib boriladigan milliy g‘oya targ‘ibotining asosiy sharti texnik vositalardan foydalana olish. Ayniqsa, kompyuter bilan ishlashni bilish muhim hisoblanadi. CHunki power Point dasturi bilan ishlashni, slaydlar yaratishni, ularni animatsiyalash har bir targ‘ibotchidan kompyuter savodxonlikni talab qiladi.

Ma’lumotlarni joylashtirayotganda haddan ziyod ko‘zni charchatadigan ranglar va animatsiyalardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Mativatsiyani inobatga olgan holda slaydlarda mavzuga oid video, musiqalar, rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi. Milliy g‘oya targ‘ibotining texnologik asoslari sifatida elektron darslikdan ham foydalanish g‘oyaviy targ‘ibot samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rstadi.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o‘quv materialari o‘quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklar quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi zarur:

- ❖ **O‘rgatuvchi qism** gipermatnga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.
- ❖ **Mashq qildiruvchi** xatolarni ko‘rsatib beruvchi va to‘g‘ri xulosaga olib keluvchi qism.
- ❖ **Nazorat qiluvchi** testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.

Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadi:

- ❖ ta’limni, o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta’minlashi;
- ❖ mustaqil ta’lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;
- ❖ ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning hamohangligi;
- ❖ axborot-ta’lim resurslarini rivojlantirish xususiyatining hamohangligi;
- ❖ matn va boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) bilan taqdim etishi.

Elektron darsliklarning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

Foydalanish maqsadlariga ko‘ra: jamoa bo‘lib va individual foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo‘lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim resurslarini talab qilmaydigan bo‘lishi kerak, chunki ular server kompyuterga joylashtiriladi, ulardan kompyuter tarmoqlari (INTERNET yoki INTRANET) orqali foydalanish mumkin.

Individual foydalaniladigan elektron darsliklar o‘quv materiallarini o‘qituvchining ishtirokisiz o‘rganishga mo‘ljallangan.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg‘ulotlarida ham foydalanish mumkin.

Aytish joizki, Milliy g'oya va mafkura ilmiy amaliy markazi tomonidan so'znggi o'n yilda tayyorlangan bir qator elektron kitob va multimedia asarlari milliy g'oya targ'ibotida har bir targ'ibotchiga nihoyatda qo'l keladi.

**Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi
asoslariga qo'yiladigan talablar**

Milliy g'oya tag'ibotini takomillashtirishning texnologik asosi har bir targ'ibotchidan quyidagi qoidalarni bilishni va amalda qo'llay olishni talab qiladi:

1-shart: Targ'ibotchining axborot kommunikativ kompitentligiga qo'yiladigan talablar.

2-shart: targ'ibot tadbirini o'tkazishdan oldin unga zarurat, ehtiyojning hamda uni o'tkazishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalinsh zaruratining asoslanganligi;

3-shart: targ'ibot tadbiriga tayyorgarlik ko'rish;

4-shart: targ'ibot tadbirining nomi

5-shart: Maqsad

6-shart: targ'ibot tadbiri ssenariysi

7-shart: targ'ibot tadbirining borishi

8-shart: auditoriya

9-shart: taqdim etilayotgan axborotlar va ko'rgazmali vositalarga qo'yiladigan talablar

10-shart: erishilgan natija.

1-shart: Targ'ibotchining axborot kommunikativ kompitentligiga qo'yiladigan talablar. “Axborot kommunikativ kompitentlik” tushunchasini turli nuqtai nazardan, kasbiy kompitentlikning tarkibiy qismi sifatida ham, shaxsning axborot madaniyatini tarkibiy qismi sifatida ham baholash mumkin. Ahamiyatli belgilar sirasiga axborot texnologiyalari asoslarini bilish, kompyuterdan zaruriy texnik vosita sifatida foydalanish, ta'lim makoni sub'ektlarinnig faol ijtimoiy pozitsiyasi va motivatsiyasining ifodalanganligi, axborotni izlash, tahlil qilish va foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalrning jami kiritiladi.

Axborot kommunikativ kompitentlikning uch darajali modeliga mos holda targ‘ibotchi:

- ❖ bazaviy darajada- targ‘ibotchining vazifalaridan kelib chiqib AKT vositalarida ta’lim tarbiya maqsadlariga erishish uchun zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar;
- ❖ texnologik daraja – AKT o‘zlashtirish va targ‘ibotchilik faoliyatiga ixtisoslashtirilgan, u yoki bu tadbirlarni o‘tkazish metodikasi va mazmuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan, texnologiya hamda resurslarni joriy qilishga taylorlik;
- ❖ pedagog (psixologik pedagogik, metodik, ijodiy) daraja- ma’naviy ma’rifiy faoliyat maqsadlariga mos elektron vositalarini ishlab chiqish, AKT vositalaridan shaxsning ma’naviy kamolotini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni hal qilishda foydalanishni farqlash mumkin.

2 -shart: Targ‘ibot tadbirini o‘tkazishdan oldin unga zarurat, ehtiyojning hamda uni o‘tkazishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalish zaruratining asoslanganligi;

Tadbirning nima uchun aynan shu mavzuda, shu vaqtda, shu qatnashchilar tarkibi bilan o‘tkazilayotgani tashkilotchilar tomonidan asoslanishi kerak.

Tadbirlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni, tadbir o‘tkazishning nafaqat tashkiliy shakllari va metodlari, balki yangi metodlarni ham shakllanishiga olib keladi.

3-shart: Targ‘ibot tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish;

Tadbirga tayyorgarlik ko‘rishda notiq o‘ziga taqdim etilgan qo‘llanmadan, ilmiy adabiyotlardan, internet tarmog‘idan foydalanishi, mutaxassislar bilan suhbatlashishi, ma’lumotlar to‘plashi kerak. Respublikamizning markaziy OAV, teleradiokanalari ma’lumotlaridan unumli foydalanishi zarur.

Tashkilotchilar qatnashchilarni kakmida 1 hafta oldin xabardor etadilar. Kerakli audio, vizual, ko‘rgazmali vositalarni tayyorlab, faol ishtirokchilarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rib qo‘ysalar, yaxshi ish bo‘ladi. Tadbirlarni

o‘tkazish uchun texnologiyalarni tanlashda eng samarali yo‘llardan biri – bu multimediali yondoshuvdir.

4-shart: targ‘ibot tadbirining nomi

Har bir tadbirga mavzu tanlashda, albatta, qatnashchilarning yoshi, kasbi, ma’lumoti va manfaatlari e’tiborga olinadi. Tadbirni nomlashdao‘ta ilmiylashtirishdan, uzundan uzoq jumlalardanqochish kerak. Rasmiyatchilik kishilarni tadbirdan bezdiradi. Mavzu tanlashda ko‘proq kundalik hayotimizda ishlatiladigan so‘zlardan foydalanilsa, yaxshi samara beradi. Qatnashchilarning yoshi, kasbi tadbir davomida bevosita misollar keltirishda inobatga olinishi kerak.

Tadbir nomi kishilarni qiziqtiradigan, ruhlantiradigan bo‘lishi kerak. Mavzuni eshitgan, o‘qigan kishi tadbirda nimalar to‘g‘risida mulohazalar bildirilishi kerakligini anglashi va unda bevosita daxldorlik hissi uyg‘onishi kerak.

5-shart: Maqsad

Tadbirda targ‘ibotchi oldiga qatnashchilardan yangi bilim va aniq tasavvurlarni paydo qilish vazifasi qo‘yiladi. Tadbir davomida ma’ruzachi tomonidan izohlangan bilimning o‘zlashtirilishi har bir ishtirokchida ichki ishonchni paydo qilishi va uni ma’lum maqsadlar sari yo‘naltirilishi darajasiga etkazish asosiy maqsad hisoblanadi. SHuning uchun tadbirda olg‘a surilgan asosiy g‘oyalarni tezislар shaklida yozib qatnashchilarga oldindan tarqatilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6-shart: Targ‘ibot tadbiri ssenariysi

Tadbirga yozilgan ssenariy ma’ruzachining taribasi, bilim saviyasi kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi kerak. Bunda belgilangan mavzu bo‘yicha ma’ruzachining shaxsiy tayyorgarligi asosiy mezon hisoblanadi. SHuning uchun har bir ma’ruzachi tadbir uchun ssenariy tuzayotganda o‘zi chuqur bilgan, anglagan yo siyosiy, yo iqtisodiy, yo huquqiy, yo ijtimoiy sohaga ko‘proq tayanishi zarur. SHunda ma’ruzaning ishonchli chiqishi ta’minlanadi.

7-shart: Targ‘ibot tadbirining borishi

Odamlarni qatorlarga, guruhlarga bo‘lib, ularga savol yoki qiziqarli topshiriqlar berish. Tadbir oxirida faollik va bilimdonligini ko‘rsatgan 3 kishini

mukofotlash, mukofotlanganlarga so‘zberish. Ularning o‘z so‘zlarida targ‘ibotchi singdirmoqchi bo‘lgan tezislarni qayta eslashiga sharoit yaratishi kerak.

8-shart: Auditoriya

Auditoriya bilan notiq o‘rtasida samimiy munosabat o‘tnatilishi kerak. Tabirga kelgan har bir qatnashchi o‘zining ham tinglanishini xohlaydi. SHuning uchun tadbir qatnashchilariga o‘z fikrlarini emin erkin bildirilishiga imkon berilishi kerak. Notiq qatnashchi tomonidan bildirilgan fikrni tadbir mavzui va maqsadiga yo‘naltira olishi kerak.

9-shart: Taqdim etilayotgan axborotlar va ko‘rgazmali vositalarga qo‘yiladigan talablar

Tadbir samaradorligini oshirishda eng asosiy jihatlardan biri ko‘rgazmali vositalardan unumli foydalanish. Tadbir boshlanishidan oldin ko‘tarilayotgan masala bilan bog‘liq shiorlar, tasviriylar san’at namunalari, hikmatli so‘zlar, diagramma, harita va rasmlar, slaydlarni unumli ishga solish kerak.

10-shart: erishilgan natija.

Ma’ruzachi nutqining so‘nggida, albatta, ishtirokchilar bilan mavzu yuzasidan savol javob uchun vaqt ajratishi shart. YOritelgan mavzu tinglovchiga tushunarli bo‘lsa, ularda savollar tug‘ilishi mumkin. Agar ishtirokchilardan savolberilmasa, ma’ruzachi mavzuyuzasidan o‘zi qo‘srimcha savollar berib tadbir samaradorligini ta’minlashi mumkin.

Tayanch tushunchalar: Milliy g‘oya targ‘ibotining texnologik asosi, Multimediya, Multimediyali darslik, Multimediya texnologiyasi, elektron darslik, axborot kommunikativ komplitentlik, bazaviy darajada, texnologik daraja, pedagog (psixologik pedagogik, metodik, ijodiy) daraja.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savollar.

1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiya asoslari tushunchasi qnday ma’noni anglatadi?.
2. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologik asoslari tuzilmasiga nimalar kiradi?
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi asoslariga qanday talablar qo‘yiladi?

7- mavzu: Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini samaradorligini oshirishning dolzarb vazifalari

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi
2. Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligi mezonlari va tamoyillari
3. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini samaradorligiga erishish yo‘llari va omillari

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining samaradorligi tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi

Har qanday ijtimoiy faoliyat va uni amalga oshirishda qo‘llaniladigan usul-vositalarning, shu jumladan milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining ijtimoiy-amaliy qimmati va ahamiyati ularning samaradorligi bilan belgilanadi. O‘zbek tilida “**samara**” so‘zi - natija, hosila, foyda degan ma’nolarni bildiradi. “**Samaradorlik**” esa - samarali, foydali bo‘lishlik; foydalilik demakdir. Binobarin, “**samaradorlik**” tushunchasi ish-harakat yoki faoliyatning foydali, samarali bo‘lgan holatini ifodalaydi. SHunga ko‘ra, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini samaradorligi deganda, mazkur texnologiyalar qo‘llanilib amalga oshirilgan targ‘ibot va tashviqot ishlarida erishiladigan yutuqlar, ijobiy natijalar ko‘lami va darajasi tushuniladi. Bu esa milliy g‘oyani aholi ongi va qalbiga singdirish, tushuntirish, mohiyatini ochib berishdagi real natijalarda namoyon bo‘ladi.

“Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi, - deb ta’kidlaydi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov, - avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhim jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan bog‘liqdir”.³⁶ Ushbu fikrda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan g‘oyaviy

³⁶ Каранг: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008, Б-76-77.

targ‘ibot va tashviqot ishlarining, jumladan ularda qo‘llanilayotgan usul-vosita va texnologiyalar samaradorligining ham mezoni aks etgan.

Ayni paytda milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari samaradorligida ularning zamonaviylici, to‘g‘ri va mahoratli qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda samaradorlik, targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiquvchi va ularni qo‘llovchi sub’ektlarning bilim saviyasi, malaka va mahoratiga ham bog‘liq, albatta. Umuman esa, targ‘ibot texnologiyalarining samaradorligi jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy shart-sharoitlar, aholi turmushidagi yangilanish va o‘zgarishlar hamda ularning hayotida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy ishlarning natijalari bilan bog‘liq bo‘lib, qo‘yidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ❖ jamiyat hayotida sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhit;
- ❖ milliy g‘urur va vatanparvarlikning yaqqol namoyon bo‘lishi;
- ❖ aholinig ko‘tarinki kayfiyati, ruhan tetik va faolligi;
- ❖ jamiyat hayotidagi voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usining kuchayishi;
- ❖ ijtimoiy-siyosiy ongning yuqoriligi;
- ❖ ijtimoiy hayot va turmushdagi tolerantlik;
- ❖ jamiyatda turli ijtimoiy illatlarning kamayishi yoki umuman barham topishi;
- ❖ kishilarning keljakka bo‘lgan ishonchi va sh.k.

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, umuman jamiyatdagi turli bosqich, soha, daraja va ko‘lamda amalga oshiriladigan g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarning, shu jumladan milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari samaradorligini belgilovchi mezonlardan biri, bu – jamiyatimizda yashayotgan kishilarning milliy g‘oyaga bo‘lgan mustahkam ishonch-e’tiqodi, ya’ni mafkuraviy e’tiqodidir.

Darhaqiqat, har qanday shakl-ko‘rinish va yo‘nalishda qo‘llanilayotgan g‘oyaviy targ‘ibot va tashviqot texnologiyalarining predmeti, maqsadi va vazifalarida kishilarda muayyan g‘oya, qarash va ta’limotlarga doir bilim hamda ishonch-e’tiqodni shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. SHunga ko‘ra fuqarolarimizda

milliy g'oya to'g'risidagi haqqoniy bilim bilan unga nisbatan mustahkam ishonch-e'tiqodga asoslangan mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish jamiyatimizda amalga oshirilayotgan g'oyaviy targ'ibot va tashviqot samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Bu o'rinda mafkuraviy e'tiqod jamiyatdagi kishilar, turli ijtimoiy guruh, birlik va toifalar faoliyatini tartibga solib, aniq maqsadlarga yo'naltiruvchi g'oyalarga qattiq ishonchdan iborat ruhiy-ma'naviy kuchdir. U ma'lum bir ijtimoiy g'oyalarning kishilar uchun ruhiy-ma'naviy hayot tamoyillariga aylangan holatidir.

Mafkuraviy e'tiqodning shakllanishi o'ziga xos ijtimoiy asos va omillarga bog'liq bo'lib, bunda g'oyalarga, undagi maqsad va orzu-ideallarga ishonch alohida o'rin tutadi. YA'ni, umuman, g'oyalarning haqqoniyligiga va ularning ruyobga chiqishiga bo'lgan ishonch har qanday mafkuraning hamda u bilan bog'liq barcha xususiyatlarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. SHunga ko'ra, mafkuraviy e'tiqodni ijtimoiy hayotdagi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida shakllanadigan, kishilarning ongi va qalbida ma'lum g'oyalar haqidagi bilim-tasavvurlarga asoslangan hamda ana shu g'oyalarni ruyobga chiqarishga bo'lgan mustahkam ishonchdan iborat ruhiy-ma'naviy hodisa sifatida ta'riflash mumkin.

Mafkuraviy e'tiqod o'ziga xos tarzda, turli bosqich, daraja va ko'lamlarda, ijtimoiy ong va ruhiyat bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, rivojlanadi. Ijtimoiy ong va ruhiyat mafkuraviy e'tiqodning individual va ijtimoiy darajalarda, faol-konstruktiv yoki passiv-konservativ xarakterda rivojlanishini belgilaydi. SHunga ko'ra kishilardagi g'oyaviy bilim-tasavvurlar bilan ruhiy-emotsional xislatlarning uyg'unligi mafkuraviy e'tiqodning mazmunida muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda mafkuraviy e'tiqodda g'oyaviy bilim emotsional-ruhiy xususiyatlar bilan birlashib, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj va manfaat talablariga mos keladigan ishonchga aylanadi. Ishonch, shu ehtiyoj-manfaat va amaliy tajribadan kelib chiquvchi maqsad, orzu-intilishlarga nechog'li mos kelishiga qarab e'tiqodga aylanadi, yoki aksincha. Ayni mana shu hol mafkuraviy e'tiqodni va unga asoslangan mafkuraviy immunitetning shakllanib, rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishida muhim o'rin tutadi. Binobarin, jamiyatdagi umumiylar maqsad, orzu-

ideallarga va ularni ruyobga chiqarish yo'llariga xalq ishonchini shakllantirish – milliy mafkurani rivojlantirish va undagi g'oyalarni amalga oshirishning muhim shartidir.

YUqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bugungi kunda xalqimizning asosiy maqsadi – yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish bo'lib, kishilarimizda ana shu ulug'vor ezgu g'oyani ro'yobga chiqarishga bo'lgan mafkuraviy ishonch-e'tiqodni shakllantirish g'oyaviy targ'ibot samaradorligini ta'minlashdagi eng muhim vazifalardandir. «Milliy g'oya xalqning ishonch-e'tiqodiga aylansa, u o'zining kutilgan samarasini beradi»³⁷.

Haqiqiy ishonch-e'tiqod, o'z mohiyatiga ko'ra, buyuk va qudratli ruhiy-ma'naviy kuch bo'lib, har qanday mafkuraning amal qilishida va undagi g'oyalarning ro'yobga chiqishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Zero, e'tiqodli odam ulug'vor, qudratli va jasur bo'ladi. Buyuk bobomiz Amir Temur ko'targan ezgu g'oyalarning amalga oshishida ajdodlarimizning shu g'oyalarga bo'lgan mustahkam ishonch-e'tiqodlari muhim o'rin tutgan. Ana shu ishonch-e'tiqodlari bilan buyuk ajdodlarimiz Vatanni ozod qilib, qudratli davlat, adolatli jamiyat barpo etishga harakat qilishgan. Bularga erishish uchun hayoti va jonlarini tikib kurashishgan.

SHunday ekan, bugungi kunda mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ko'tarilgan hamda davlatimiz rahbari SH.Mirziyoev tomonidan yanada samaradorligi oshirilayotgan milliy g'oyani to'la ro'yobga chiqarish uchun xalqimizda shu g'oyalarga nisbatan mafkuraviy ishonch-e'tiqodni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu vazifani samarali hal etilishida jamiyatimiz hayotining turli sohalarida xizmat qilayotgan kadrlar alohida o'rin tutadi. YA'ni, umuman, g'oyaviy-mafkuraviy ishlarga, xususan milliy g'oyani xalq ishonch-e'tiqodiga aylantirishga jamiyatdagi faqat bir soha yoki toifaning, masalan, ta'lim-tarbiya tizimi va unda o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoki shu sohadagi mutaxassis, o'qituvchi va targ'ibotchilarining vazifasi deb

³⁷ Қаранг: Миллий истиқбол ғояси. Ўзбекистон Республикаси олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслер. –Т.:Академия, 2005, Б - 131.

qaralmasligi, balki bunga hamma fanlar va ta’lim-tarbiya yo‘nalishlari, shuningdek, ijtimoiy hayotning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan barcha ziyyolilar, ayniqsa el ichida muayyan ijtimoiy mavqega ega kishilar: rahbar kadrlar; olim, yozuvchi, shoir, san’atkor va sh.k.lar bevosita mas’ul ekanligini alohida e’tirof etish lozim. CHunki, har qanday jamiyatdagi kishilar ijtimoiy mavqeい baland odamlarning gapi va hatti-harakatlariga alohida e’tibor qaratishadi, ko‘proq ularning aytganini ma’qullashib, orqasidan ergashadi. Ulardan o‘rnak olishadi. Qolaversa, bu hol bizning xalqimiz xarakteridagi, milliy mentalitetidagi asosiy belgilardan biridir.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, g‘oyaviy targ‘ibot va tashviqot samaradorligini ta’minlashda el ichida obro‘-e’tibori baland kadrlarning faoliyati ko‘proq ahamiyat kasb etadi. Bunday kadrlarning mavqe-martabasi, etakchilik salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, kishilarga shu qadar ko‘p va kuchli g‘oyaviy ta’sir o‘tkazadi.

Odamlar obro‘li kishilarning fikr-qarashlari, g‘oya va mafkuralariga qarab, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, umumxalq manfaatlari va maqsadlarini tushunadi, ularning amaliy faoliyatlarini kuzatib, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari va davlat siyosati haqida xulosalar qiladi. Lo‘nda qilib aytganda, el hurmat qiladigan odamlarning aytayotgan gaplari va qilayotgan ishlari kishilarda milliy g‘oya va mafkuraga nisbatan ishonch-e’tiqodning shakllanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. «Odamlar har qanday rahbarni birinchi galda uning faoliyati, ishining amaliy natijasiga qarab baholaydi. Quruq savlat va balandparvoz gaplar bilan emas, faqat shu hisobidan rahbar obro‘ topishi, hurmat qozonishi mumkin»³⁸. SHu bois milliy mafkurani keng jamoatchilik ongiga singib, xalqchillashishi va sog‘lom ishonch-e’tiqodga aylanishi uchun kadrlarning faoliyatiga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Ularning milliy g‘oyaga nisbatan munosabatlarida turli xil manfaatlar emas, ishonch-e’tiqod ustun turishi lozim. G‘oyalarning haqqoniyligi

³⁸ Каримов И.А. Иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси олий мажлисининг биринчи сессияси иккинчи йигилишида сўзланган нутқ. // Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000. Б. - 358.

va ularni ro'yobga chiqarish usul-vositalarining to'g'riliqiga ishonch-e'tiqod shu tariqa shakllanishi mumkin.

Ayni paytda, milliy g'oya xalq ishonch-e'tiqodiga aylanib, ularda mafkuraviy immunitet rivojlanishi uchun jamiyatdagi kishilarning mafkuraga amal qilishini rag'batlantiruvchi stimul - rasmiy siyosiy, huquqiy asos va shart-sharoitlar bilan bog'liq real ijtimoiy muhit, mexanizm – ruhiy-ma'naviy motiv ham bo'lishi lozim. CHunonchi, jamiyatda ma'naviyat va ma'rifatning ijtimoiy-siyosiy maqomi hamda madaniyatli kishilar mavqeining baland bo'lishi, o'z kuchi va bilimiga tayanib yashaydigan sog'lom mafkuraviy e'tiqodli kadrlarning qadrlanishi, umuman milliy taraqqiyot konsepsiyasidagi tamoyillarning hayotda to'la amal qilishi kabi omillar ana shunday motiv-mexanizm bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligini oshirish bu sohada ko'zga tashlanayotgan muammolarni bartaraf etishni shartlab qo'yadi. Zero har bir sohada bo'lgani kabi g'oyaviy targ'ibotda ham ayrim muammo va kamchiliklar yo'q emas. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu masalaga alohida to'xtalib, «Bugungi hayot shiddati, voqelar rivoji shu qadar jo'shqinki, biz ma'naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim va o'rinli ishlarni amalga oshirayotgan bo'lsak-da, ba'zi o'rnlarda afsuski, kech qolyapmiz», deb ta'kidlagani bejiz emas.

SHu nuqtai nazardan, milliy g'oya targ'ibotining samaradorligiga qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda? Bu muammolarning echimi qanday? G'oyaviy targ'ibotda nimalar nazardan chetda qolmoqda? Targ'ibot-tashviqot ishlariga qanday tarzda yondashgan ma'qul? Bugungi kunda milliy g'oyani xalqimiz ongi va qalbiga singdirish samaradorligini oshirish uchun yana nimalarga e'tibor berish zarur?

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis to'qqizinchi sessiyasi ma'ruzasida bayon etgan asosiy vazifa va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar Dasturida yuqoridagi savollarga javob tariqasida «Dasturni amalga oshirish bo'yicha

quyiladagan asosiy talablar» bandi kiritilgan. Ushbu bandda dasturni amalga oshiruvchi mutasaddilarga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- ❖ o‘tkazilayotgan tadbirlarni kampaniyaga aylantirmaslik;
- ❖ o‘qib berish usulidan voz kechish;
- ❖ tabdirlarni “majburiyat”ga aylantirmaslik;
- ❖ odamlar bilan ochiq-oydin va yuzma-yuz muloqatdan qochmaslik

E’tiborlisi shundaki, yuqorida qayd qilingan talablar nafaqat davlat dasturining ijrosida, balki milliy g‘oya targ‘ibotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan bugungi kunda targ‘ibot-tashviqot ishlarida kampaniyabozlikka berilish, mafkurani targ‘ib qilish o‘rniga uning ta’riflarini «yodlatish», turli tadbirlarga kishilarni majburiy to‘plash, muammolar haqida ochiq gapirishdan qochish, odamlar bilan yuzma-yuz muloqatga voizlarning tayyorlanib kelmasligi, son ketidan quvib, sifatni unutib qo‘yish, targ‘ibotda ayrim tushunchalarning o‘rinli-o‘rinsiz ishlatilishi natijasida ularning qadrsizlanishi kabi muammolar mavjud.

Agar sog‘lom axborot muhiti ustuvor bo‘lmasa, qisqa vaqtida har qanday davlatning ichki axborot makonidagi siyosiy-ijtimoiy muhit izdan chiqib, «xatar uchoqlari» paydo bo‘ladi. Natijada jamiyatda g‘alva boshlanadi, rasmiy axborot tarqatish tizimi ishdan chiqadi, rasmiy boshqaruva va uning mafkurasi tanazzulga uchraydi. O‘z echimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularning echimini hal qilish bo‘yicha davlat amalga oshirgan ishlar haqidagi axborotlar o‘z vaqtida xalqqa etib bormaydi. Eng achinlarlisi, «axborot bo‘sningini» shakllantirish bilan bir qatorda «jim o‘tirish» pozitsiyasi qaror topadi.

Hozirgi vaqtida, nafaqat Respublikamizda, balki butun dunyoda ta’lim sohasi g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot samaradorligini ta’minalashning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, oliy ta’limda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat olib boruvchi kadrlar tayyorlanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, keyingi yillarda dunyodagi talabalarning umumiy soni 13 mln. dan 82 mln gacha oshgan. Keyingi 30 yil davomida butun dunyoda oliy ta’limga bo‘lgan talab 6 baravar ko‘paygan va 2025 yilga borib, dunyo bo‘yicha

160 mln. talaba bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa, bir tomondan, jamiyatda g‘oyaviy-mafkuraviy ishlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash ko‘laming kengayayotganini, boshqa tomondan, ijtimoiy hayotda g‘oyaviy ta’lim-tarbiya ahamiyatining ortishi bilan bog‘liq talablar kuchayishini ko‘rsatadi.

SHu nuqtai nazardan, mustaqillik yillari O‘zbekistonda ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, unda g‘oyaviy ta’lim-tarbiya izchil yo‘lga qo‘yilgani, bu borada qator oliv o‘quv yurtlarida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va uning bazasida magistratura mutaxassisligi tashkil etilib, ularda zamon talabalariga javob beradigan har jihatdan etuk kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilayotgani muhim ahamiyatga ega.

G‘oyaviy-mafkuraviy ishlarni samarali tashkil etishda maktablarning o‘rni beqiyos. CHunki olti-etti yoshar bola toki mustaqil shaxs sifatida shakllanib, voyaga etkuniga qadar bo‘lgan hayotini, asosan, maktabda o‘tkazadi. Demak, maktab insondagi qadriyatlar, qarashlar intilish, dunyoqarash va maqsadlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktab bilim berish bilan birga, g‘oyaviy tarbiya o‘chog‘i ham bo‘lishi lozim. Insondagi vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik xislatlari, komil insonga xos bo‘lgan boshqa xususiyatlarning qaror topishi uning shaxs sifatida shakllanish jaryoni bilan bir vaqtida kechsa, bu sifatlar uning uchun doimiy qadriyatga aylanishi mumkin. SHu bois, maktab yoshidagi bolalarni etuk inson qilib tarbiyalashda muallimlarning zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanadi. Bunda har bir o‘qituvchi bilim yoki tarbiya beruvchi emas, balki o‘qituvchi milliy g‘oyalarning targ‘ibotchisi sifatida muloqat olib borishi maqsadga muvofiq. Demak, har bir o‘qituvchi o‘z vazifasini faqat o‘quvchiga dars berishdangina iborat deb bilmay, millat ravnaqiga hissa qo‘shadigan fuqorolarni tarbiyalayotganini ham doimo e’tiborga tutmog‘i lozim.

Axloqsizlik g‘oyalarini aksariyat holda tajribasiz yoshlар bilmasdan «evropacha madaniyat» va «erkinlik» sifatida qabul qilib, o‘zlari kutmagan holda aldanib qolishlari mumkin.

O‘zbekistonda chetdan kirib kelayotgan yot g‘oyalarga qarshi kurashish bo‘yicha bir qator ishlar amalgalash oshirildi. Tarixiy xotira tiklanib, Amir Temur davrida shakllantirilgan «kuch-adolatda», «el-yurt ozodligi», «insof va diyonat birligi», «ma’naviyat – kelajak omili» kabi hayotbaxsh g‘oyalar, bugungi kunda yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. YOshlarda mustaqil va tahliliy fikrlashni rivojlantirish ishlari tizimli va bosqichma-bosqich amalgalash oshirilmoxda. Ayni paytda bu jarayon tadrijiy rivojlanishga undaydigan hayotbaxsh g‘oyaga va harakatlanish dasturiga ega bo‘lishi taqazo etiladi. Mazkur harakat dasturi qo‘yidagi jarayonlarni qamrab olishi kerak:

- ❖ tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni «pinhona rivojlanish» davrida aniqlash.
- ❖ millatning, xalqning jamiyatda qabul qilingan ma’naviy-axloqiy normalari, madaniy rivojlanish tamoyillarini yanada rivojlantirish.
- ❖ internet va xorijiy ommaviy-axborot vositalari orqali kirib kelayotgan turli axborotlarga nisbatan oqilona munosabatni qaror toptirish.
- ❖ yoshlarda milliy g‘oyaga ishonchni - mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- ❖ Ta’lim tizimida mafkurani targ‘ib etishda o‘qituvchi yoshlarning didiga, qadriyat va qarashlariga mos tarzda yondashish talab etiladi. Milliy g‘oya targ‘ibotiga xizmat qiladigan adabiyotlar yosh avlodning tafakkuri va bilim darajasiga mos holda sodda, ta’sirchan, ommabop tarzda yozilishiga alohida e’tibor berish zarur. Zero, “Xalqimizning ezgu hayot talablariga javob beradigan, uning tub manfaatlari, orzu-intilishlarini har tomonlama aks ettiradigan milliy g‘oya, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir yurtdoshimizning o‘z g‘oyasiga aylansa, ularning qalbi va yuragidan chuqur joy olsa, - men ishonaman – ana shunda biz ko‘zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta etamiz”³⁹

³⁹ Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.:“Ўзбекистон”, 2015, Б-297-298.

Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligi mezonlari va tamovillari

“O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat hisoblanadi”⁴⁰ deb alohida qayd etilganligi mamlakatimizda inson huquqlariga bo‘lgan e’tibor nechog‘li ahamiyatli ekanligini ko‘rshimiz mumkin. Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish muhim mezonlari:

- ❖ milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarni hurmat qilish va unga sodiqlik;
- ❖ umuminsoniy demokratik qadriyatlarga sodiqlik;
- ❖ ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish;
- ❖ xalq faronligi darajasi;
- ❖ Vatan ravnaqi, yurt tinchligi;
- ❖ xalqni tinchlik va omonlikda yashashi bilan belgilanadi.

Milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish muhim tamoyillari:

- ❖ inson erkinligi, huquq va manfaatlarning ustuvorligi;
- ❖ inson hayotining dahlsizligi;
- ❖ inson sha’ni va qadr-qimmati, uni eng oliv qadriyat ekanligi;
- ❖ qonun ustuvorligi;
- ❖ adolat;
- ❖ milliy va umummanfaatlar uyg‘unligi;
- ❖ mafkuraviy plyuralizm;
- ❖ fikrlar xilma-xilligi;
- ❖ bag‘rikenglik bilan belgilanadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotining ta’sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri – mafkura targ‘iboti zimdan amalga oshirilishi zarurligidir. Inson unga ta’sir o‘tkazilayotganini sezmasligi lozim. Umuman, targ‘ibot davomida «mafcura» so‘zining ko‘p ishlatalishi shart emas. Mafkura fuqaro ongiga zimdan, bilvosita – badiiy va sahna asarlari, filmlar, san’at durdonalari, hayot tarzidagi

O‘zbekiston Respublikasi bosh qomusi bo‘lgan Konstitutsiyamizning

⁴⁰ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Ўзбекистон. – Т.: 2014, 13-модда.

ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar orqali singdirilishi kerak. Zero har qanday etuk san’at asari milliy mafkura targ‘ibotchisi bo‘la oladi. Ma’lumki adabiyot va san’at ulkan mafkuraviy qudratga ega bo‘lib, u g‘oyalarni badiiy jihatdan boyitib tomoshabin yoki o‘quvchini o‘z ta’siriga olish qudratiga ega. Aynan badiiy asarlar bugungi kunda mafkuralarni eltuvchi g‘oyalarni qit’alararo zimdan tashuvchi vositaga aylangani hech kimga sir emas.

Butun dunyoda bo‘layotgan hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tahlilidan kslib chiqib, ularning mafkuraviy-g‘oyaviy negizlarini yanada rivojlantirish zarur.

Dunyodagi yovuz niyatli geosiyosiy harakat va kuchlar yoshlarga keng miqyosda g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish harakatlarini olib bormokda. XX asrga kelib, urushlar olib borishda g‘oyaviy ta’sir muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muayyan davlatni o‘z aholisi oldida va xalqaro maydonda obro‘sizlantirish uchun qarshi axborot faoliyatları olib borish, axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish oshkora tusga kira boshladı.

Axborot texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi – jahon axborot makonida misli ko‘rilmagan mazmuniy o‘zgarishlarga olib keldi. Birinchi jahon urushida qo‘llangan informatsion-psixologik ta’sir texnologiyalari, o‘z navbatida axborotning texnologik rivojlanishiga asos soldi. Axborot-resurs, boylik va mahsulot sifatida qisqa vaqt ichida misli ko‘rilmagan tezkorlik bilan rivojlandi. Axborot-psixologik ta’sirni o‘rganuvchi ilmiy markazlar vujudga keldi. Dastlab 1914 yilda Angliyada, 1915 yilda Fransiyada, 1917 yilda AQSHda, 1918 yilda Germaniyada maxsus axborot markazlari tashkil etildi.

AQSHda esa «Jamoat axborot qo‘mitasi» tuzilib, uning rivojlanishiga katta mablag‘lar ajratildi, psixolog olimlar jalb qilindi. Bu qo‘mitani Prezident V.Vilsonning yaqin o‘rtog‘i J.Kril boshqardi. Qiska vaqt ichida ushbu qo‘mita tomonidan AQSH manfaati singdirilgan 75 mln. donadan ortiq targ‘ibot nashrlari tarqatildi. Urush davrida «Jamoat axborot qo‘mitasi» tomonidan betaraf davlatlarning va jahon hamjamiyatining diqqat-fikrini AQSH foydasiga yo‘naltirish, chalg‘itish maqsadida tinimsiz ravishda soxta ma’lumotlar tarqatildi.

1913-1921 yillar davomida Vudro Vilson AQSH prezidenti vazifasini bajarar ekan, axborot-psixologik xurujga, uning texnologiyalariga, ayniqsa axborot-psixologik ta'sir vositalari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgan edi:

- ❖ Jamoat fikrini shakllantiruvchi va vazifa yuklovchi tizimlar
- ❖ Qaror qabul qilish tizimlari;
- ❖ Axborot-texnik tizimlar;
- ❖ Axborot-analitik tizimlar;
- ❖ Axborot-resurslar;
- ❖ Ommaviy-axborot vositalari va targ'ibotga asoslangan jamoat onggi va fikrini shakllantiruvchi tizimlar.

YOshlarda immunitet hosil qilinmasa, dezinformatsiyalar, ochiqdan-ochiq bo'hton, soxta faktlarning ta'siriga qarshi kurashib bo'lmaydi. YOshlarda bilimlilik asosida mustaqil va tahliliy fikrlash jarayonini rivojlantirish lozim. Mustaqil fikrlash jarayoni etarlicha shakllantirilsa, har qanday g'oyaviy ta'sirlar o'z kuchini yo'qotadi. Axborot tahlili haqiqiy holat bilan qiyoslansa, o'z-o'zidan axborotning asl mazmuni namoyon bo'lib, uning tarkibidagi to'qimalar, soxta faktlarni iste'moldai olib tashlash mumkin.

Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari samaradorligiga erishish yo'llari va omillari

Bugungi dunyo xalqlari hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning

tahlilidan kelib chiqib, inson va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi g'oyaviy targ'ibot va tashviqot samaradorligini ta'minlash yo'llarini muntazam rivojlantirib borish taqazo etilmoqda. Bunda:

- ❖ targ'ibot texnologiyalarida milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini, uning foydali jihatlarini xolisona ko'rsatib berish;
- ❖ ikki va ko'p tomonlama aloqa munosabatlari tizimini shakllantirish;
- ❖ targ'ibot texnologiyalari vositalarini yanada takomilashtirish;
- ❖ milliy g'oya targ'ibotida so'z va amal birligiga erishish;
- ❖ jamoatchilikning qiziqishi, maqsad va intilishlarini hisobga olish;

- ❖ targ‘ibotlarning ishonchlilagini ta’minlash;
- ❖ muammolarni echish yo‘llarining asosli bo‘lishi.

Zero, dunyoda yovuz niyatli siyosiy harakat va kuchlar yoshlarga qarshi keng ko‘lamdagi tizimli g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish harakatlarini olib borishmokda. XX asrga kelib, urushlar olib borishda g‘oyaviy targ‘ibot muhim ahamiyatga ega bo‘lib, muayyan davlatni o‘z aholisi oldida va xalqaro maydonda obro‘sizlantirish uchun mafkuraviy faoliyat olib borish, axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish oshkora tusga kira boshladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishda quyidagi yo‘nalishlarda keng ko‘lamdagi ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- ❖ o‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma’rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma’naviy mulkiga aylantirish, milliy o‘zlikni anglatish maqsadini ustuvor yo‘nalish sifatida amalga oshirish, milliy g‘oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;
- ❖ Vatan ozodligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etib borish, siyosiy jarayonlarga, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tahlili asosida jamiyatning har bir a’zosi qalbida milliy g‘ururni kuchaytirish, hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaslik tuyg‘usini kamol toptirish;
- ❖ aholining barcha qatlamlarida, xususan, yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash, ularda dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatda bo‘lish hissini uyg‘otish;
- ❖ jamiyatda o‘zaro insoniy munosabatlar, izzat-ehtirom, mehr-muruvvat, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirish jarayonlarini milliy g‘oya va ma’naviyat tamoyillari bilan uyg‘un tarzda tizimli va uzlucksiz targ‘ib etib borishni yo‘lga qo‘yish;

- ❖ turli ommaviy axborot vositalari va Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan, urf-odatlarimiz, milliy mentalitetimizga zid, odobsizlik va axloqsizlikni targ‘ib etuvchi vayronkor g‘oyalarning yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir o‘tkazishining oldini olish;
- ❖ axloqiy, tarbiyaviy ishlarni yanada takomillashtirish, yoshlarda yuksak ma’naviy va madaniy sifatlarni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash, g‘urur va iftixor, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, boy tarixiy-madaniy merosga asoslangan holda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, xalqimizning azaliy an’ana va urf-odatlariga asoslangan holda jamiyatda o‘z o‘rnini topish, kasb-hunar egallashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish;
- ❖ Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning etakchilik xususiyatlarini namoyon qila olishlari hamda boshqaruv mahorati malakasini hosil qilishlariga keng qamrovli imkoniyatlar ohib berilishini ta’minlash;
- ❖ yoshlarning ilm-fan sohasidagi faolligini oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, jismonan baquvvat bo‘lishlari uchun ko‘maklashish, ilmiy-ijodiy intilishlarini ro‘yobga chiqarish;
- ❖ yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmunini keng targ‘ib etish orqali ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
- ❖ “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi tahdidlarning yoshlar hayotiga salbiy ta’sir o‘tkazishiga yo‘l qo‘ymaslik va ularda qat’iyatilikni kamol toptirish;
- ❖ yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ‘ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirish.

Ma’naviy, ma’rifiy, mafkuraviy targ‘ibot olib borishning mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilanadi:

- ❖ yuksak rivojlangan, demokratik davlatlar qatorida bo‘lishdek oliy maqsadni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish, amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, keng ko‘lamli islohotlar qabul qilingan qonun hujatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini aholining keng

qatlamlari orasida jadal targ‘ib qilish, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va informatsion xurujlar, ularning ortida turgan kuchlarning g‘arazli maqsadlarini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka da’vat etish, olimlar, siyosatchi va ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ‘ibot tizimini yo‘lga qo‘yish;

❖ mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlarining jahon hamjamiyati va dunyo tashkilotlari tomonidan bir ovozdan e’tirof etilganligini keng targ‘ib etish;

❖ aholining turli qatlamlari, xususan, yoshlar orasida tarixiy xotiraga, milliy o‘zlikka ega bo‘lish zaruratini anglatish borasidagi keng ko‘lamli targ‘ibot ishlarini olib borish, milliy ma’naviyatimiz obidalarini asrash, e’zozlash va madaniy merosimizni yoshlar tomonidan maqsadli hamda ongli o‘zlashtirilishiga erishishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

❖ mamlakatimizda inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishning samarali mexanizmlarini qo‘llash, inson kapitalini rivojlantirish jarayonlarini keng targ‘ib etish;

❖ ulug‘ mutafakkirlarimizning dunyo tamadduniga qo‘shtgan buyuk hissalarini xalqimiz ongi va qalbiga etkazish hamda shu asosda milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalash;

❖ mamlakatimiz yoshlarini san’atning turli sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini har tomonlama rag‘batlantirib borish, kino, teatr san’atining xalqimiz barcha qatlamlari orasidagi ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta’minalash borasidagi tizimli faoliyatni yo‘lga qo‘yish;

❖ xalqimizning milliy qadriyatlar, tarixiy obidalariga bo‘lgan ehtiromli munosabatni yanada oshirish, ayniqsa yoshlarning muqaddas qadamjolar, ziyyoratgohlar va muzeylarga tashriflarini tashkil etish;

❖ yoshlarning intellektual salohiyati, badiiy-estetik didi va saviyasini uzluksiz yuksaltirib borish maqsadida mutolaa madaniyatini rivojlantirish, bu borada o‘ziga xos musobaqa va tanlovlarni tashkil etish, “Ziyonet” tarmog‘ida har bir ta’lim sub’ektining o‘z elektron-axborot resurslarini yaratish ishlarini ma’naviy rag‘batlantirish;

- ❖ ma’naviyatning ma’no-mohiyati, milliy ma’naviyatimizning qadimiylarini, noyob va betakror namunalari, bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan targ‘ibot ishlarini muntazam ravishda olib borish;
- ❖ oila, mahalla, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy ta’lim muassasalari va ta’limdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog‘liq tuyg‘u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta’sirchan usul-uslublar orqali singdirish, ajdodlarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish, targ‘ibot ishlarini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etish;
- ❖ muqaddas islom dinining ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlaridan kengroq foydalananish, imomlarning ma’ruzalarini mamlakatimizda erishilayotgan yutuqlar bilan boyitish bo‘yicha hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish;
- ❖ aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana hamda qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan davra suhbatlari va uchrashuvlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘tkazish;
- ❖ milliy g‘oya va mafkura masalasi bilan bog‘liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, ularning aholining barcha qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, an’anaviy hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini tanqidiy ochib berish;
- ❖ xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati, milliy qadriyatlari va hayotiy udumlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo‘yicha aniq ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;
- ❖ fuqarolar qalbida erkin tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash, bu borada

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy axborot texnologiyalari va yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli takliflar hamda tavsiyalar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish;

❖ yilning har choragida amalga oshirilgan amaliy faoliyat natijalarini, tahliliy materialarning xulosalarini ommaviy axborot vositalari, jumladan, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining nashrlari bo‘lmish “Tafakkur”, “Ma’naviy hayot” va “Jahon adabiyoti” jurnallari, “Ma’naviyat” nashriyoti orqali muntazam chop etib borish, shu bilan birga, har oyda amalga oshirilgan pozitiv o‘zgarishlar haqidagi axborotlardan veb-saytlar orqali muntazam ravishda keng jamoatchilikni xabardor etib borish;

❖ ayrim kinostudiylar tomonidan tijorat yo‘lida yaratilayotgan saviyasi past va milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga zid bo‘lgan filmlar yaratilishining oldini olish maqsadida ta’sirchan vositalarni ishga solish, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish;

❖ ayrim voyaga etmagan yoshlarning ta’lim jarayonlarini tashlab, norasmiy ravishda ishlash uchun chet ellarga ketishining oldini olish va ular o‘rtasida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ota-onalar, vasiylar va keng jamoatchilik ishtirokida tushuntirish ishlarini olib borish;

❖ ma’naviy-ma’rifiy tadbirilar samaradorligi, ta’sirchanligini yanada oshirish maqsadida moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini ishlab chiqish va joriy qilish.

G‘oyaviy ta’sirlarga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlarining mazmunini, shakl va uslublarini, muhitning yoshlarga ta’sirini o‘rganishda:

- ❖ g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi dasturlarni yaratish va amalga oshirishda umumiy tamoyillarga e’tibor qaratishni;
- ❖ g‘oyaviy tarbiya jarayonida tizimli yondoshuvni;
- ❖ barcha jarayonlarni uzviy bog‘lovchi monitoring tizimini yaratishni;

❖ yangi texnologiyalarni jadal qo'llash va tezkorlikda aprobatsiyadan o'tkazishni talab qilmokda.

Ta'kidlash joizki, g'oyaviy targ'ibot-tashviqot samaradorligini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ularni amalga oshiruvchi mutaxassislarning faoliyati muhim ahamiyatga ega. Bunday tadbirlarda jamoani o'ziga qaratish, kishilarga ta'sir ko'rsatish, ularni ilhomlantirish targ'ibotchidan juda katta mahorat talab etadi. SHuning uchun, targ'ibotda voizlar o'z ma'ruzalari ta'sirchanligini oshirish choralarini ko'rishi, ularning hayotiy va haqqoniy bo'lishiga erishishi, o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni puxta taylorlashi va zamonaviy texnologiya va vositalarni qo'llashi lozim.

SHuningdek, jamiyatda yoshlarni zararli mafkuralarning salbiy ta'siridan himoyalashda san'atdan foydalanish, milliy g'oyani targ'ib qilishda badiiy obrzlarni qo'llash amaliyoti muhim. CHunki, badiiy obrazlar orqali milliy g'oyani targ'ib qilish, yet mafkuralarga qarshi kurashish samarali va ta'sirchan usul hisoblanadi. Milliy g'oyaning targ'ibotiga sarflangan mablag' qisqa vaqtida moddiy boylik keltirmasligi mumkin, lekin hozirda bu sohani sarf-xarajatiga alohida e'tibor berishi muhim bo'lmoqda. SHuning uchun ham uning samaradorligini muntazam oshirish yo'llari to'g'risida o'ylashimiz kerak.

Tayanch tushuncha: samaradorlik, g'oyaviy targ'ibot texnologiyalari samaradorligi, samaradorlik mezonlari, texnologiyalar samaradorligini oshirishning konseptual asoslari, mafkura targ'iboti, mafkuraviy targ'ibot muammolari, milliy g'oyaga ishonch, mafkuraviy e'tiqod, aqidaparastlik, mafkura targ'iboti omillari.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar:

1. Milliy g'oya targ'ibotida samaradorlikka erishishning yangicha texnologiyalardan foydalanishni afzalliklarini tahlil eting.
2. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligiga erishishda ta'lim-tarbiya, oila mahalla, mакtabning o'rmini qiyosiy tahlil qiling.
3. Milliy g'oya targ'iboti samaradorligini belgilovchi mezonlar va omillarni tahlil eting.

8-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida zamonaviy texnologik uslublar

Reja:

1. “Zamonaviy texnologik uslublar” tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish shart-sharoitlari va omillari
3. Zamonaviy texnologik uslublardan foydalanishining turli xil ko‘rinishlari va natijalari

“Zamonaviy texnologik uslublar” tushunchasi, uning ta’rifi va tavsifi

Hozirgi kunda “zamonaviy texnologiyalar” tushunchasi jamiyat hayotining turli sohalarida, ayniqsa, ta’lim-tarbiya sohasida keng qo‘llanilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yuqori mehnat unumдорligiga erishish, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun qo‘llanilayotgan fan va texnika yutuqlari “zamonaviy texnologiyalar” tushunchasida o‘z ifodasini topmoqda.

Milliy g‘oya targ‘ibotida, uni yoshlar ongi va qalbiga singdirish jarayonida ham eskirgan uslub va zerikarli va’zxonlikdan voz kechib, zamonaviy texnologiyalardan, ya’ni yangicha mahorat usullaridan foydalanish yuqori samara berishi shubhasiz.

Uning ikki jihatini hisobga olish kerak bo‘ladi: birinchidan, fan va texnikaning turli sohalarida qo‘lga kiritilgan yutuqlari; ikkinchidan, milliy g‘oya targ‘ibotida ana shu ilmiy-texnik taraqqiyot mevalaridan mahorat bilan foydalanishning g‘oyaviy-mafkuraviy uslublaridagi yangiliklar, o‘zgarishlar.

Demak, “**Zamonaviy texnologik uslublar**” tushunchasini milliy g‘oya targ‘ibotiga nisbatan quyidagicha ta’riflash mumkin: **“milliy g‘oyani targ‘ib va tashviq etishda foydalaniladigan ilm-fan yutuqlari, eng so‘nggi natijalariga tayangan texnik vositalar hamda ulardan foydalanish mahoratidagi yangicha g‘oya, qarashlar, uslublar hamda innovatsion texnologiyalar majmui”**.

Ularni quyidagi yo‘nalishlarda ifodalash mumkin:

- ❖ Ta’lim va tarbiya sohasiga doir zamonaviy texnologik uslublar;

- ❖ Fan va ilmiy muassasalarda qo'llaniladigan zamonaviy texnologik uslublar;
- ❖ Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida qo'llaniladigan zamonaviy texnologik o'zgarishlar;
- ❖ Adabiyot va san'at sohasidagi yangiliklar, ulardan foydalanishdagi texnologik uslublar;
- ❖ Din sohasida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanilayotganligi;
- ❖ Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi yangi texnologiyalar;
- ❖ Urf-odat, marosim va bayramlarni yangicha asosda tashkil etilganligi;
- ❖ Oila, mahalla, mehnat jamoalaridagi yangi yutuqlar, o'zgarishlar;
- ❖ OAV va jamoat birlashmalari faoliyatidagi yangi texnik va texnologik o'zgarishlarni hisobga olish va h.k.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni birinchi muhim sharti – ulardan tizimli foydalanish, o'quv jarayonini rejalashtirish amaliyotida qo'llashdir. Milliy g'oya targ'ibotida zamonaviy pedagogik interfaol usullardan foydalanish yuksak samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Milliy g'oya targ'ibotini amalga oshirish yo'lida jamiyatimizdagи barcha kuchlar – davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiylar faol ish olib bormoqda. Ilg'or jamoatchiligidimiz, ziyolilarimiz bu ezgu ishga o'z hissasini qo'shmoqda. Bugun odamlarimizning ongi va tafakkuri o'zgardi. Internet tizimi, mobil aloqa ular uchun kundalik talabga aylandi. Ayni paytda, biz o'z g'oyamizni yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirmasak, boshqalar bizga yot va zararli g'oyasini singdirishga harakat qiladi. SHuning uchun, yuqorida qayd etilgan sohalarning har bir subekti bunga alohida e'tibor berishi kerak. Bu sohalarni zamon bilan hamnafas holda faoliyat yuritishini, mamlakat istiqboli to'g'risida qayg'urishni, tinmay izlanishni, ilmiy ixtirolarni amalga oshirish va ularni hayotga tatbiq etishni taqazo etadi.

Mafkuraviy kurash tobora kuchayib borayotgan hozirgi globallashuv davrida milliy g'oya targ'ibotida quyidagilarni e'tiborga olish juda muhimdir:

- ❖ targ‘ibot maqsadlarini aniq bilish;
- ❖ targ‘ibot yangiliklarini o‘rganib borish va hisobga olish;
- ❖ g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan alohida e’tibor berish lozim bo‘lgan ijtimoiy qatlam va guruhlarni aniqlash;
- ❖ targ‘ibot olib boriladigan auditoriyaning xususiyatlarini bilish;
- ❖ targ‘ibotning strategik yo‘nalishlarini, mavzularining mazmun-mohiyatini, ularning o‘zgaruvchanligini hisobga olish taqazo etiladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti zamonaviy texnologiyalari bir tizimga solingan, kompleks yondashuvga asoslangan, mutazam va davriy bo‘lishi kerak. Bu borada mutasaddi tashkilotlar tomonidan muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, zamon talablariga javob berish uchun faqat targ‘ibot bilan cheklanib qolish etarli emas.

Ma’naviyat sohasidagi bugungi tahdidlarni chuqur o‘rganish, ularni aniqlash, ularga nisbatan o‘z vaqtida muqobil choralar ko‘rish, aholida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Ayniqsa, yoshlarni g‘oyaviy tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalardan mahorat bilan foydalanish g‘oyaviy-mafkuraviy tarbiyaning ko‘lamini va ta’sirchanligini oshiradi. Ong va tafakkurni faollashtiradi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan foydalanish uning jozibadorligini oshiradi. SHuning uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq maqsadga qaratilgan holda olib borish uchun uning metodologiyasini yaratish, jahon maydonlarida ro‘y berayotgan jarayonlarni o‘rganib boradigan ilmiy dasturlar ishlab chiqish zarur.

Axborotlashtirish sohasida ham ayrim yutuqlar bilan birga qator muammolar ham mavjud. CHunonchi, virtual kutubxonalar, informatsion-resurs markazlari paydo bo‘ldi. Nodavlat nashrlar, xususiy tele-radio studiyalari, nashriyot va bosmaxonalar, jurnalistlar uyushmalari vujudga keldi. Ularda ishlaydigan, ularni boshqaradigan odamlarning ongi va tafakkuri keskin o‘zgardi. Holbuki, 90-yillarga qadar bu yangiliklarni tasavvur ham qilib bo‘lmash edi.

Axborot sohasidagi bu kuchlarning barchasi o‘z nizomi asosida, amaldagi qonunlar doirasida faoliyat olib boradi. Davlat tomonidan ularning faoliyatini

cheplash yoki nazorat qilish holatlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Bordiyu kimdir ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat o‘rnatishni istagan taqdirda ham buning imkoniyati yo‘q. CHunki, tobora ko‘payib borayotgan ommaviy axborot vositalari ustidan nazoratni amalga oshirishning o‘zi imkonsizdir.

Ammo, bir haqiqatni tan olish joiz. SHakli va faoliyat yo‘nalishidan qat’i nazar, barcha ommaviy axborot vositalari yagona maqsadga – O‘zbekistonimizning gullab-yashnashiga, xalqning ma’naviy yuksalishiga o‘z hissasini qo‘sishi lozim va qo‘shmaqda ham. Bu yo‘lda barchani birlashtiruvchi va yuksaklikka safarbar etuvchi beqiyos kuch, shak-shubhasiz, bizning milliy g‘oyamizdir.

**Milliy g‘oya targ‘ibotida
zamonaviy texnologik uslublardan
foydalanish shart-sharoitlari va
omillari**

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish aholining turli qatlamlari o‘rtasida milliy g‘oyaning mazmun va mohiyatini tushuntirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni maqsadli, bosqichma-bosqich, uzluksiz va tizimli tarzda olib borish zaruratini tug‘diradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatini ta’minalashda zamonaviy texnologik uslublardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ishlarni amalga oshirishda har bir ish rejasi, uni amalga oshiruvchi mas’ul shaxslar, tadbirlarni o‘tkazish muddati, ularni tashkil etish, tadbir samaradorligini ta’minalash, yakuniy tahlil etish, sotsiologik so‘rovlар, ijtimoiy fikrni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘zlangan maqsadga erishish, ya’ni aholi va yoshlar ong va dunyoqarashiga milliy g‘oya, ma’naviyat asoslarini singdirishda zamonaviy siyosiy texnologiyalar, ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar (PR – pablik rileshin) texnologiyalarini qo’llash muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv jarayonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy va ekologik yo‘nalishlarda tobora kuchayib borishini anglash, uning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta’sir doirasining tobora kengayib borishidan kelib chiqqan holda har bir fuqaro, ijtimoiy qatlam huquqiy manfaatlari, qiziqishi va jamiyatda tutgan maqomini etiborga olish,

turli omil, ehtiyoj, qoida va talablar doirasida kelib chiqib ish olib borishni, usullardan to‘g‘ri va unumli foydalanishni talab etadi.

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologik uslublarida har bir shaxs, siyomonig karashida muhim rol o‘ynovchi omillar mavjud bo‘lib, ularda:

1. Madaniy xususiyatlarni hisobga olishi lozim.
2. SHaxsning ta’lim darajasini hisobga olish lozim. Bugungi kunda ko‘plab odamlarning e’tiborini tortish, masalan, oliv ma’lumotlilar yoki turli jamoatchilik vakillari bilan muloqotlar tobora rang-barang bo‘lib bormoqda. Bu texnologiyalardan foydalanishda o‘ziga xos yondashuvni taqazo etadi.
3. Oilaviy muhiti. Ma’lumki, bolalarning fikri, sezishi, dunyoqarashi, siyosatga munosabati va boshqalarni ko‘pincha ota-onadan oladi. Insonning ijtimoiylashuvida oilaning o‘rni juda katta.
4. SHaxsning jamiyatdagi o‘mini hisobga olish. Odamlarning ijtimoiy maqomi o‘zgarishi bilan ularning hatti-xarakati ham o‘zgarib turadi.
5. Milliy, etnik yoki irqiy mansubligi bilan bog‘liq xususiyatlarni bilish lozim.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishdagi ehtiyoj pog‘onalari quyida keltirilgan:

- ❖ Jismoniy ehtiyojlar;
- ❖ Ikkinchchi darajali ekzistensial ehtiyojlar: o‘zining yashashi uchun xavfsizlik talablarini yaratish, hayot faoliyatdagi himoya, sharoit, sokinlik va barqarorlik sharoitlari.
- ❖ Uchinchi darajadagi sotsial extiyojlar: bog‘liklik, muhabbat va sadoqat, ma’lum guruhg‘a mansublik.
- ❖ To‘rtinchi darajadagi ehtiyojlar: tan olinish, ishonch va etakchilik, layoqat va ta’sirchanlik, idrok va yutuqlar.
- ❖ YUqori daraja: - o‘zini ifodalash yoki oddiy inson nimaga qodir bo‘lsa, o‘shanga erishish. O‘zini namoyon etish, ijod orqali o‘zini tan oldirish va maqsadiga etishdir.

Ushbu besh daraja har qanday shaxs yoki sotsial guruhning milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarishda e’tiborga olishi samara berishi mumkin bo‘lgan muhim ehtiyojlari sanaladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi qoidalarni:

1. Turli omillardan foydalanishda oshkora misol, rasm, ko‘rgazmalarni namoyish etishga, kutilmagan harakatlar qilishga, ba’zi odamlarni ko‘yish va urishishga shoshilmaslik, birinchi navbatda shart - sharoitni o‘rganish va tahlil etish;
2. Odamlarni o‘zingizni qabulingizga chaqirmang, ularning ichiga o‘zingiz boring. Ko‘pchilik odamlar turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda kamroq qatnashadi. Odamlarning cheklangan qiziqishini tushunib etgandan so‘ng, jamoatchilik hissiyotlarini e’tiborga olish, nimaga qodirligi asosida real strategiyani ishlab chiqish mumkin.
3. Odamlarning xulq-atvorini o‘zgartirish uchun umuman tadbirlarni birdaniga o‘zgartirishni o‘ylamang. Turli axborot va talablarni etkazishda asosli va bosqichma-bosqich xarakat qilish.
4. Axloqiy misollarni keltirishni asosiy dalil emas, qo‘srimcha vosita sifatida qo‘llash. Axloqiy qadriyatlarni o‘zgartirish juda qiyin. Raqibni axloksizligi haqida gapirishdan ko‘ra, ko‘proq o‘z qaroringizni ustunligini namoyish eting, ko‘pchilikning qo‘llashiga alohida e’tibor bering.
5. Bosh mezondan foydalaning. Har qanday ish, tadbirlarda aholining barcha qatlamlarini quvvatlashiga erishing. SHart-sharoitni o‘zgartirish uchun, unga barcha faol odamlarni jalb eting.
6. Ishontirmoqchi bo‘lgan odamlarni xafa qilmang. Muammolarni o‘rganish orqali olingan amaliy dalillar natijasiga qaraganda, odamlarga ularni ishontirgan, yoqadigan odam ko‘proq ta’sir qilar ekan, chunki uni o‘zimizning odam deb hisoblashadi.

Milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy-ma’rifiy ishlariga oid ayrim talablar, milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy va ma’rifiy ishlarini tashkil etish ham ma’lum

qonun-qoidalarga bo‘ysunadi, o‘zining ma’lum tuzilishiga egadir. Ma’naviyat dunyoqarashlar tizimi bo‘lib, uning aniq tuzilmasi bo‘lishi va ma’lum talablarga javob berishi kerak. Ushbu talablar milliy g‘oya targ‘iboti, ma’naviy va ma’rifiy ishlarning izchilligi, uning yanada rivojlanishi va hayotiyligi imkoniyatlarini belgilaydi:

- ❖ Universal (har tomonlama) bo‘lishi kerak. YA’ni, bir necha qonun - qoidalar, yo‘nalishlardan tashkil topgan bo‘lishi, ularning yordamida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda kechayotgan holatlarni yorita olishi kerak.
- ❖ Tushunarli bo‘lishi va aynan yo‘naltirilgan aholi qatlamlari manfaatlariga javob berishi kerak. Bu aholining turli sotsial guruh, qatlamlariga nisbatan belgilangan vazifalarni echishi kerak. SHuning uchun g‘oyaviy, ma’naviy, ma’rifiy masalalar birinchi navbatda dolzarb bo‘lishi kerak.
- ❖ G‘oyaviy, ma’naviy va ma’rifiy ishlar texnologiyalari konservativ va "qotib qolgan", eskicha bo‘lmasligi, ya’ni o‘zgarib turuvchi voqealarga munosabat bildira olishi kerak.
- ❖ Ma’naviyat, ma’rifat va mafkura qoidalari mos kelishi kerak. Milliy g‘oyani jamiyatdagi turli qatlamlar ongiga singdirish, o‘zligini anglash va jamiyatni boshqarish uchun muhim. Ma’naviyat va ma’rifatni ham, mafkurani ham, faqat bir soha bilan bog‘lamaslik kerak. Ular g‘oya, ma’naviyat va ma’rifat sohalarining hamohangligi va qamrovida bo‘lishi kerak.

Biz axborotlar asrida yashamoqdamiz. Ilmiy-texnika inqilobi, axborotlar texnologiyalari – ishlab chiqarish, tibbiyot, siyosat va boshqalarga juda katta ta’sir etmokda. Ilg‘or texnologiyalarga ega bo‘lgan davlatlar boshqa mamlakatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishga urinishi tabiy, aynan shuning uchun ham dunyoda ilmiy zahira va imkoniyatlar uchun kurash to‘htayotgani yo‘q.

Ma’naviy va mafkuraviy ishlar sohasida esa, ularni doimo milliy g‘oya, falsafa, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarning zamonaviy ma’lumotlari asosida rivojlantirib borish muhim vazifa xisoblanadi. SHuning uchun g‘oyaviy, ma’naviy va ma’rifiy ishlarni, takomillashtirish, o‘tmish saboqlarini xisobga olgan

holda yangi shart-sharoitlarga moslashtirish lozim. SHundagina g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy ishlar ta’sirchan va samarali bo‘ladi.

Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha aholi o‘rtasida o‘tkaziladigan tadbirlarda unda qatnashayotgan ishtirokchilar, ularning ma’lumot darajasi, kasbi, jamiyatdagi o‘rni, maqomidan kelib chiqqan holda tashkillashtirishni, izohlashni va atroflicha tushunchalar berish orqali amalga oshirishni talab etadi⁴¹.

**Zamonaviy texnologik
uslublardan foydalanishining
turli xil ko‘rinishlari va natijalari**

Bugungi kunda ayrim xorijiy ommaviy axborot vositalari bizga o‘z mafkurasini singdirishga urinayotganini sezish qiyin emas. Bu haqda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: «Sir emas, ba’zan beozorgina bo‘lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ham ma’lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi». Mazkur holat ham milliy g‘oya targ‘ibotining ta’sirchanligini oshirishni hamda har qanday mafkuraviy tahdidlarga nisbatan ogoh bo‘lishni taqazo etadi. Bu esa targ‘ibot-tashviqot ishlariga yangicha texnologiyalar, yondashuvlar, uslub va vositalarni jalb etishni talab qiladi.

YOshlar ongiga yot g‘oya va buzg‘unchi mafkuralarni singdirishga qaratilgan axborot-psixologik ta’sirdan ko‘zlangan maqsadlar quyida qeltirilgan:

- ❖ yoshlar onggida siyosiy va mafkuraviy beparvolikni hosil qilish;
- ❖ yoshlarning ma’naviy-axloqiy ongini izdan chiqarish;
- ❖ «olomon» yoki «to‘da» ongini shakllantirish;
- ❖ davlatga nisbatan norozilik kayfiyatini tug‘dirish;
- ❖ mavjud tuzumga nisbatan ishonchsizlik keltirib chiqarish;
- ❖ tartibsizlikni vujudga keltirish;
- ❖ yoshlarni «zombi»ga aylantirish va h.k.

Axborot xurujiga qarshi kurashda samaraga erishish uchun nishoniga aylangan ob’ektni aniq bilish lozim.

⁴¹ Қаранг: Миллий ғоя илмий-тадқиқотларининг назарий-методологик асоси. 1-китоб, Андижон., 2008. Б-62-66.

Birinchidan, axborot-psixologik xuruj ko‘proq mo‘ljalga olgan ob’ekt jamiyatning qaysi qatlamida, qaysi ijtimoiy guruhdan iborat; ularning muammosi nima, qiziqishlari qanday, hozirda va kelajakda nimani hohlashadi kabi savollarga javob aniq bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, mamlakat miqyosida yangilik niqobida kutilayotgan axborot-psixologik tahdid va xavf-xatarlarning yo‘nalishlarini, qaysi tomonga yo‘naltirilganini aniqlash kerak.

Uchinchidan, jamiyat hayotida, ayniqsa, yoshlar hayotida o‘z echimini kutayotgan dolzarb muammolarni aniqlash va ularni hal etish, mamlakatimiz erishayotgan yutuqlarni elektron saydlar orqali dunyo xalqlariga ko‘rsatish va mavjud elektron saydlarni yanada kupaytirish va takomillashtirish, axborot xizmatlari faoliyatini yanada oshirish lozim.

Binobarin, axborot-psixologik xurujlar kuchayishi, ko‘lami kengayishining oldini olish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi:

- ❖ Echimini kutayotgan dolzarb muammolar, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi tahliliy axborotlarni intensiv ravishda xalqaro axborot makoniga chiqarishni kuchaytirish;
- ❖ Mavjud muammolarning echimi haqida, ularning bartaraf etilishi yuzasidan davlatning olib borayotgan ishlari to‘g‘risida xalqaro jamoatchilik qanchalik ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lsa, axborot-psixologik xurujning ta’siri shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni xuruj bartaraf etiladi.
- ❖ YOshlar ongida mustaqil tafakkur, ongli mushohada va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish;
- ❖ Davlat amalga oshirayotgan har bir islohot, har bir jarayon haqida, siyosiy va ijtimoiy yangiliklarning har taraflama tahlilini ommaviy-axborot vositalari orqali yaqin va uzoq xorijga tarqatish;
- ❖ Bugungi texnik imkoniyatlar natijasida buning qiyinligi yo‘q, aksincha murakkabligi esa axborot tahlili va uning tezkorlikda tarqatilishidadir.
- ❖ Nafaqat yoshlarda, katta yoshdagi aholida ham axborot immunitetini hamda hushyorlik va ogohlik refleksatsiyasini shakllantirish kerak.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun turli xil nuqtai nazarlardan iborat bo‘lgan dasturlarni yaratish, turli chiqishlarda muqobil fikrlarga erishish lozim. SHundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag‘batlantirishga qodir bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlardan ommaviy axborot vositalarining islohoti «g‘oyalar bozori»da hali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, buniyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovon qilishga yo‘naltirilgan yangi g‘oyalar, taklif va tavsiyalar bu «bozor»da bemalol raqobat qila oladi.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirishga yo‘naltirish va rivojlantirish, uning tarkibiy qismlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish imkonini beradi. Natijada, avvaldan loyihalashtirish, ta’sir ko‘rsatuvchi «salbiy» va «ijobiy» omillarni aniqlash hamda harakat dasturini har tomonlama ishlab chiqish imkoniyati kafolatlanadi. YOshlarning immunitetlarini shakllantirish uchun muayyan takomillashgan texnologiyani qidirib topib, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to‘liq anglab olish va amaliyotga qo‘llashgacha bo‘lgan davriylik murakkab jarayondir.

Axborot-psixologik immunitetni shakllantirish alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to‘liq o‘rganishni taqazo etadi. Bunga asosiy sabab:

- ❖ immunitetni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrash tahdidining mavjudligi;
- ❖ yoshlar to‘qnashadigan, ba’zan ko‘p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – bu orzuning, shaxsiy fikrning o‘ylaganidek ro‘yobga chiqmasligini anglash;

YOshlar aksariyat hollarda o‘z dunyoqarashi, shaxsiy tasavvurlari doirasida va saviyasida fikrlaydi, bu fikrlashni vaziyatning ijobiy yoki salbiy holatlari bilan bog‘lab tahlil qilish tajribasiga ega bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy g‘oya targ‘iboti siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mafkuraviy faoliyat ana shunday yaxlit tizim shakliga keltirilgandagina mukammallik kasb etadi. Umuman olganda, targ‘ibot-tashviqot texnologiyalarining ta’sirchanligini oshirishda quyidagi usullarni qo‘llash kutilgan samarani berishi mumkin:

Birinchidan, targ‘ibotda murakkab, chalkash, mavhum fikrlardan foydalanish samarasizdir. Mazmun qanchalik sodda, aniq tushuntirilsa, ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ikkinchidan, inson ko‘proq hissiy ta’sirga moyil bo‘ladi, shuning uchun uning aql-idroki bilan bir qatorda, his-tuyg‘ularga ham murojaat qilish samara beradi.

Uchinchidan, targ‘ibot matnlari chuqur o‘ylangan, mantiqiy izchil, ijodiy ishlab chiqilgan bo‘lishi darkor;

To‘rtinchidan, targ‘ibotdagi qudratli usul ishontirishdir;

Beshinchidan, targ‘ibot ishlarining samarasini oshirish uchun noan’anaviy usullarni qo‘llash va ilg‘or tajribalarni keng yoyish talab etiladi.

Tayanch tushunchalar: zamonaviy texnologik usullar, yangi texnologik uslub sohalari, siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, noan’anaviy usullar, yangi texnologiyalardan foydalanish usullari.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar.

1. Zamonaviy texnologik uslublarni “Klaster” usulidan foydalanib tahrir qiling.
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida an’anaviy va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni guruhlarga bo‘linib afzal va cheklangan tomonlarini ko‘rsating.
3. YOt va zararli g‘oyalar ta’siriga tushgan ayrim yoshlarni milliy g‘oya targ‘ibot texnologiyalaridan foydalangan holda ularning milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodini oshirish yo‘llarini asoslang.

9-mavzu: Milliy g‘oya fanini o‘qitishda didaktik jarayon loyihasining interfaol usullari

Reja:

1. Milliy g‘oyani o‘qitishda didaktik jarayon va interfaol usullari tushunchasi, ma’no-mazmuni
2. Interfaol usulda birgalikda o‘qitish va guruhlar bilan ishlash texnologiyasi
3. Interfaol usullarning pedagogik texnologiyalar tamoyillariga mosligi va uning ahamiyati

**Milliy g‘oyani o‘qitishda didaktik
jarayon va interfaol usullari
tushunchasi, ma’no-mazmuni**

Ta’lim muassasalarida milliy g‘oya fanining asosiy maqsadi o‘quvchi-talabalarni mustaqil

dunyoqarashga ega bo‘lgan, vatanparvar, insonparvar, O‘zbekiston va jahon xalqlarining madaniy-ma’naviy merosiga, ilg‘or an’analariga, milliy va umumbashariy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, hamda buyuk merosimizning boyituvchilari bo‘lmish munosib vorislarni tarbiyalashdan iborat. SHaxsnı rivojlantirish, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish uchun, avvalo o‘quvchi-talabalarni zamonaviy bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirishni nazarda tutiladi. Zamonaviy bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollanish jarayonida o‘quvchi-talabalarda o‘quv materiallarining murakkabligi o‘zini past abstraksiya pog‘onalaridan yuqori abstratsiya pog‘onasiga o‘tishini taqazo etadi. O‘qituvchi didaktik masalalarni aniq belgilab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun avvalo didaktika, didaktik jarayon va didaktik tahlil tushunchalarini bilishimiz kerak bo‘ladi.

Didaktika ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. **Didaktika** (ta’lim nazariyasi: yunoncha «didaktikos» “o‘rgatuvchi”, «didasko» esa – “o‘rganuvchi” ma’nosini bildiradi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakli, metodi, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini

takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolar)ni o'rganuvchi fan.

Demak, didaktika pedagogikaning "nimaga o'qitish", "nimani o'qitish" va "qanday o'qitish" kabi savollarga javob izlaydi. Umumiylididaktika o'z navbatida, ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan mustahkam bog'lanadi. SHu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiylididaktikalarini ochib beradi va ayni vaqtida har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiylididaktika bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika – pedagogika bo'limi bo'lib, ma'lumot va ta'lim-tarbiya berish nazariyasini bayon qiladi; bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtirish va e'tiqodlarni shakllantirish qonuniyatlarini ochib beradi, ma'lumot hajmi va mazmuniy strukturasini belgilaydi, ta'lim metodlarini va tashkiliy shakllarini, o'quv jarayonining o'quvchi-talabalarga ko'rsatadigan tarbiyalovchi ta'sirini takomillashtiradi.

Didaktik tahlil – ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonun-qoidalarning darsda qanchalik to'g'ri hamda mukammal bajarilganligini tahlil qilish demakdir.

Didaktik jarayon (yoki talabaning o'quv – bilish faoliyati)ni loyihalash hisoblanadi.

Aynan shu didaktik jarayon pedagogik texnologiyaning asosini tashkil qiladi, yohud u belgilangan vaqt ichida ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishish uchun o'z mazmunini talabalarga uzatish yo'llarini aniqlab beradi. Didaktik jarayon o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi komponentlardan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi: motivatsiya (M), talabaning o'quv – bilish faoliyati (O'F) va uni pedagog tomondan boshqarish (B). Uning shartli formulasi: **Dj=M+UF+B**.

Motivatsiya – bu shaxs hatti-harakatini yuzaga keltiruvchi ichki harakatlantiruvchi kuch, hissiyot bo'lib, pedagog uni boshqarishga harakat qiladi va o'quv jarayonini tashkil etish uchun hisobga oladi.

Didaktik jarayonning motivatsion bosqichi talabalarni bilish faoliyatiga kirishib ketishini tezlashtirishga imkon beradi. Bu faoliyatni kerakli faollik darajasida ushlab turish uchun uni tashkil etish metodlarini tanlay olishi kerak.

Pedagogik jarayon bilan shug‘ullanuvchi har bir kishiga ma’lumki, bilimlarni o‘quvchilar (talabalar) tomonidan o‘zlashtirishi xususiy o‘quv faoliyati (psixologlar tilida – bilish faoliyati) natijasi tufayli ro‘y beradi. Psixologlar bu faoliyat turini keng qamrovda o‘rganib chiqdilar va uning bilim, harakatlarni egallahsga olib keladigan turli ko‘rinishdagi tizimini aniqladilar. Bu yondoshishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, har qanday o‘quv faoliyati ($O'F$) ning umumiyligi sxemasi bo‘yicha quriladi va o‘zida yo‘naltiruvchi (Yh) (mo‘ljalli), bajaruvchi, (Bh) nazorat qiluvchi (N) va tuzatuvchi (tuz) harakatlarini mujassamlashtiradi. Uning ramziy formulasasi: $O'F=Ix+Bx+N+Tuz$.

Didaktik jarayonning so‘nggi tarkibiy qismi – o‘quv-bilish faoliyatini boshqarish. SHuni qayd etish joizki, har qanday o‘quv faoliyatini boshqarish imkoniyati mavjud. Bu tizim ikkita ob’ektdan – boshqaruvchi va boshqariluvchidan iborat bo‘ladi. Agar didaktik jarayonda o‘qituvchi boshqarish ob’ekti bo‘lsa, o‘quvchilar – boshqarish ob’ektidir. Didaktik jarayon u yoki bu texnik vositalardan ta’lim mazmuniga mos holda uzluksiz qo‘llashni taqazo etgan. Bu yo‘nalish PTning mavjudlik shartlaridan biridir.

Milliy g‘oya fanini o‘qitishda didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish bu – o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadga mos holda tanlangan o‘qitish usullari yordamida tashkil etish demakdir. O‘qitish metodlari o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra ma’lum pedagogik texnologiyaga asoslangan hamda muayyan tasnifga ega bo‘ladi. Uning samaradorligi haqida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga solib, uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va talabaning o‘zaro faoliyatini ta’minlash asosida mакtab (kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari) oldiga qo‘yilayotgan maqsadga nechog‘li erishilayotganini ko‘zda tutish kerak.

Interfaol usulda birgalikda o‘qitish va guruhlar bilan ishslash texnologiyasi

Interfaol metodlar - o‘quvchi va o‘qituvchi hamda o‘kuvchilararo o‘zaro birgalikdagi harakatdir. «Interfaol» so‘zi ingliz tilidan kelib chiqqin bo‘lib, «interactive» so‘zidan olingin. «Inter» bu -

o‘zaro. «aalive» - faol harakatdir. Interfaol metodlarda o‘qitish o‘quvchilardan yuqori faollikda olingan ma’lumotlarni to‘la anglashda ijodiy yondashuvni talab ztadi.

Interfaol o‘qitishning asosiy mezonlari - norasmiy munozaralarni o‘tkazish, o‘kuv materiallarini erkin ifodalash, maruzalar sonini kamaytirish, o‘kuvchilarni tashabbuskorlikka chorlash, jamoaviy izlanuvchanlikni talab qiladigan guruhiy vazifalar, yozma ishlarni bajarishdir.

Birgalikda o‘qitish - bu turli kichik guruhlarda o‘quvchilar birgalikda akademik topshiriqlar yctida ishlashadi va o‘zlariga hamda o‘z guruxlaradagi o‘rtoqlariga birgalikda yordam 6epishadu. Umuman, birgalikda o‘qitish metodlari quyidagi besh xususiyatga zga:

1. O‘quvchilar birgalikda umumiyligi topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustidi ishlashadi, bu guruhda ishlash orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.
2. 2-5 a’zodan iborat o‘kuvchilar kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O‘quvchilar umumiyligi vazifalarning echimini topish yoki o‘rganish uchun kooperativ va ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvordan foydalanishadi.
4. O‘quvchilar ijobjiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiyligi vazifalarning echimini topish yoki o‘rganishda o‘quvchilarning bir-birlariga ko‘maklashuvi talab qilinishi xasobga olinib reja tuzilgan bo‘ladi.
5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, talim olishga shaxsan mas’uliyatli va javobgirdirlar.

Birgalikda o‘qitish

Birgalikda o‘qitish nima uchun keak? Birgalikda o‘qitish o‘kuvchining o‘rganish jarayonini oshiradi:

- ❖ O‘quvchilar o‘rtasida bo‘digan kognetiv axborotlar ko‘lамини oshiradi;
- ❖ O‘quvchilar materialni o‘rganishdan tekshirishga o‘tadi;
- ❖ O‘quvchilarning o‘z shaxsiy ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- ❖ Sinfdan tashqari erishiladigan muvaffaqiyat uchun turli ijtimoiy va guruhiy ko‘nikmalar riojlantiriladi;

❖ Turli xil ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro harakatni oldinga suradi.

Birgalikda o‘qish:

- ❖ YUkori darajadagi ijobiy o‘zaro bog‘lik.
- ❖ Asosiy dikkat guruh harakatiga qaratiladi.
- ❖ Guruh muammo echimining turli variantlarini ishlab chiqadi.
- ❖ Asosiy diqqat jamoa a’zolarining malakalari shakllanishiga qaratiladi.
- ❖ Qiziqishlariga qarab xar kim etakchi bo‘lishi mumknn.
- ❖ O‘z ishlari sifatini va samarali hamkorligini guruh muhokama qiladi.

An’anaviy o‘qitish:

- ❖ Past darajadagi o‘zaro bog‘liqlik.
- ❖ Jamoada ishslash malakalari shakllantirilmaydi.
- ❖ Etakchi tayinlanadi, lekin o‘zgartirilmaydi.
- ❖ Har bir o‘kuvchn bilimi o‘qituvchi tomonidan baholanadn.

Birgalikda o‘qitishning samarasn:

YAkka tartibda o‘qitish bilan birgalikda o‘qntish metodlari solishtirilsa, birgalikda o‘qitish yuqori natijalarga erishish mumkinligi (samaradorlik), bilimlarning chuqurligi va mustahkamligi bilan ajralib turadi, yana ko‘pgina ustuvorlikka ham ega:

❖ O‘z nuktai nazarini asoslashni bilish va axborotlarga nisbatan tanqidiy qo‘llash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bnr-birlari bilan raqobat qilinganda yakka tartibda o‘qitilganlarga nisbatan birgalikda o‘qitilayotganlarda bilimlar yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Birgalikda o‘qigan o‘quvchilarning hattoki yozma nutqlari ham mazmuni chuqurligi bilan boshqalarnikidan ajralib turadn.

❖ Ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Birgalikda o‘qigan guruh azolari o‘ziga xos g‘oyalarni ilgari surishadn, turli maqsadlarga erishishning yangi yo‘llarini taklif etishadi.

❖ O‘qish va dars jarayonida vujudga kelgan o‘kuv muammolarni echish yo‘llarini topishadi. Bir vaziyatda echimni topish jarayonida olingan bilimlar boshqa vaziyatlarda ishlanishiga yo‘naltiriladi. Bugun guruh nimani amalga

oshiradigan bo'lsa, o'sha guruhning har bir a'zosi buni o'z kuchi bnlan amalga oshirishi mumkin.

❖ Dars mashg'ulotiga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Xamkorlik bilim olishga, o'zlashtirishga katta qiziqish, sharoit yaratadi. Mashg'ulotni o'tish metodikasi qanchalik takomillashgan bo'lsa, o'rganilayotgan savolga qiziqish shunchalik katta bo'ladi.

❖ Vazifani bajarish uchun ko'p vaqt, urinishlar talab etiladi. YAkka tartibda vazifani bajarishga nisbatan birgalikda o'qitilayotganlar vazifani bajarish uchun ko'p vaqt yo'qotadilar.

Interfaol usullarning pedagogik texnologiyalar tamoyillariga mosligi va uning ahamiyati

Pedagogik texnologiya ko'p jihatdan o'tmishdagi mashxur pedagoglarning orzulariga mos keladi.

Didaktikaning asoschisi YAn Amos Komenskiy XVII asrdayoq ta'limning «vaqt, fanlar va uslublarni moxirona taqsimlashdan» boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibini topishga harakat qilgandi.

Komenskiy fikricha, idealda o'qitishning yagona mukammal uslubi topilsa, «hamma narsa toshlari to'g'ri muvozanatlangan soatdek aniq, faqat ana shunday mahorat bilan yaratilgan asbobda erishish mumkin bo'lgan bexatolik bilan ilgarilaydi».

“Pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondoshuvlar mavjud:

Pedagogik texnologiya - o'qitish jarayonining shakl, metod, usul, o'qitish yo'llari, tarbiya vositalarining maxsus yig'indisi va joylashuvini belgilab beruvchi psixologik tartiblar majmui, tashkiliy - uslubiy vositalari. (B.Lixachev).

Pedagogik texnologiya – kutilayotgan natijaga erishish jarayonining tavsifi (I.P.Volkov).

Umuman, pedagogik texnologiya – ta'lim oluvchi shaxsiga yo'naltirilgan, demokratik hamda takrorlanuvchan o'qitish natijalarini kafolatlaydigan ta'lim jarayonini loyihalash, amalga oshirish va baholashning tizimli metodidir.

“O‘qitish texnologiyasi” tushunchasi ilk bor 1970 yilda YUNESKO konferensiyasida yangradi. SHu tashkilot tomonidan nashr qilingan “YAshash uchun o‘qish” nomli ma’ruzada yuqoridagi atama ta’limiy jarayonni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuch sifatida aniqlandi. “Qanday o‘qish kerak?” nomli ma’ruzada esa birinchi marta unga ta’rif berildi. Unda o‘qitish texnologiyasi informatsion inqilob natijasida paydo bo‘lgan va didaktikada foydalanadigan inson o‘rtasida aloqa (muloqot) usul va vositalari yig‘indisi sifatida tavsiflanadi.

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birqalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbiq etish va aniqlashning izchil metodidir (YUNESKO).

O‘zbekistonda pedagoglar N.Sayidahmedov, U.Tolipov, U.Nishonaliev, A.Ochilov, N.Azizzxo‘jaevalar o‘qitish texnologiyasi muammolari bilan shug‘ullanib, bu sohaga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar. V.P.Bespalko, M.V.Klarin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, T.SHopavalenko, A.Monaxov, D.Blok, B.Blum, T.Gilbert, R.Maydtir kabi chet ellik tadqiqotchilar xizmatlarini ham e’tirof etish zarur. Albatta, olim va mutaxassislarning qarashlari bir-biriga mos kelmasligi tabiiydir. Ba’zilari o‘qitish texnologiyasini pedagogika fani sifatida qaraydi.

Zamonaviy pedagogikada o‘qitish texnologiyasining asosiy tavsifi sifatida uning tizimliligi, ilmiyligi, qayta tiklanuvchanligi, qo‘siluvchanligi, samaradorligi, sifat va motivlashganligi, algoritmlashganligi, axborotliligi, nusxa olish imkoniyati, yangi sharoitga ko‘chirish mumkinligi kabi jihatlariga e’tibor qaratiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishdagi asosiy omillar:

- ❖ Jamoaning potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish;
- ❖ SHaxsning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- ❖ SHaxsning ma’naviy energiyasidan foydalanish;
- ❖ Talabalarning o‘zaro “hamkorlik” munosabatidan foydalanish;

- ❖ Talaba ongiga multimediya materiallari, elektron darsliklar, masofadan turib o‘qitish kabi pedagogik texnologiyalar orqali ta’sir etish;
- ❖ Muammoli masalalarni munozara usulidan foydalanib echimini topish yo‘lini izlashga o‘rgatish;
- ❖ Talaba ongiga ilmiy-amaliy o‘yinlar orqali ta’sir qilish.

Dars o‘tish jarayonida quyidagi trening(texnologiya)lardan foydalanish mumkin:

Bu erda asosiy g‘oya, asosiy tushuncha so‘zsiz tizimli, ya’ni xar qanday narsa yoki voqelikka majmua sifatida yondashuv bo‘lmoqda. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi barcha tashkil etuvchi tarkibiy qismlar bir butunlikni tashkil kiluvchi pedagogik texnologiya degan majmuuning qismlari bo‘lib hisoblanadi. **Pedagogik texnologiyaning an’anaviy uslub (metodika)lardan farqi ham uni to‘la-to‘kis majmuaviy yondashuv nazariyasining qonuniyatlaridan kelib chiqqanligidadir.**

Pedagogik texnologiyaning an’anaviy ta’lim-tarbiya uslublaridan afzalligi, u ta’lim-tarbiya jarayonini bir butunlikda ko‘rib, ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o‘qituvchi va o‘quvchi, ta’lim maqsadi, uning mazmuni, ta’lim berish usullari, ta’lim jarayonini nazorat qilish va ta’lim natijalarini baxolashdek bo‘laklarni o‘zaro uzviy bog‘lab, majmua shakliga keltirib turib, loyixasini avvaldan tuzib qo‘yilganligidir.

Uning an’anaviy pedagogik tizimlardan ikkinchi farqi o‘qituvchilar tomonidan, ularga berilgan bilimni yodlab olib, aytib berishga emas, balki ta’lim va tarbiya jarayonining yakunida qandaydir bir amaliy ishni bajarishga o‘rgatilganligidir.

Pedagogik texnologiyaning yana bir o‘zgacha xususiyati yaxshi loyihalashtirilgan pedagogik texnologiya bo‘yicha xar qanday o‘qituvchi ham a’lo bo‘lmasada, yaxshi dars o‘tishi mumkin. CHunki pedagogik texnologiyani pedagog olimlar tuzib, ularning maxorati texnologik jarayon loyihasida o‘z ifodasini topadi. Avvalgidek, «darsdan ko‘zlangan maqsadga ob’ektiv sabablarga

binoan o‘tib bo‘lmadi» yoki «kutilmagan omillarga binoan dars buzildi» va shunga o‘xhash gaplarga pedagogik texnologiyada o‘rin yo‘q.

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning roli kattadir. Usiz ko‘zlangan maqsadga etib bo‘lmaydi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining:

Birinchisi - muayyan dars mavzusidan kutilgan asosiy maqsadni aniqlab olish;

Ikkinchisi - umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni qismlarga ya’ni modullarga ajratib, xar bir qismning maqsadini va qismlar ichida xal qilinishi lozim bo‘lgan masalalar tizimini aniqlab olish;

Uchinchisi - modul ichida echiladigan masalalarning har biri uchun test savollarini tuzib chiqish;

To‘rtinchi - maqsadlar aniq bo‘lib, test savollari tuzilgandan keyin maqsadga etish usullar tanlanib, ularning aniq ishlataladigan payti va o‘rni belgilab olinadi.

Beshinchi - ta’lim jarayoniga texnologik yondashuv paytida, majmuaviy yondashuv tamoyiliga binoan bosqichlari orasidagi zaruriy bosqichlarga alohida e’tibor qaratiladi

Tayanch tushunchalar: Didaktika, didaktik tahlil, didaktik jarayon, komponent, motivatsiya, o‘quv bilish, boshqarish, interfaol metod, birgalikda o‘qish, “O‘qitish texnologiyasi”.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Didaktika, didaktik jarayon, didaktik jarayonning komponentlari deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g‘oyani o‘qitishda didaktik jarayonning roli qanday?
3. Birgalikda o‘qitish va guruhlar bilan ishlash texnologiyasini qanday tushunasiz?
4. Milliy g‘oya fanini o‘qitishda interfaol usullarning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

10-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalar”

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘iboti va “Jamoatchilik bilan aloqalar”ning o‘zaro munosabati
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalar”ning demokratik asoslari va zamanoviy ko‘rinishlari
3. “Jamoatchilik bilan aloqalar”da jahon tajribasi va targ‘ibotda milliy ma’naviy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati

**Milliy g‘oya targ‘iboti va
“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning
o‘zaro munosabati**

Milliy g‘oya targ‘ibotida turli xil jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarga amalga oshadi va jamiyat hayotining turli xil sohalari, voqeа va xodisalari bilan o‘zviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning milliy g‘oyaning ijtimoiy hamkorlik va ijtimoiy hamjihatlik g‘oyalariga tayanish muhim ahamiyatga ega. “Jamoatchilik bilan aloqalar”ning maqsadi umummilliylar maqsadga yo‘naltirish, safarbar etish hamda o‘zaro hamkorlik va totuvlikni ta’minlashdan iborat.

Dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar har bir insonning iqtidori va salohiyatini jamiyat taraqqiyoti sari yo‘naltirishga undalmoqda, bunda milliy g‘oyani targ‘ib etishda “Jamoatchilik bilan aloqalar”, uning shakllari muhim o‘ringa ega. Jamoalar turli xil bo‘lib, har biri o‘ziga xos jihatlariga ega. Milliy g‘oya targ‘ibotida uni hisobga olgan holda yondashish, kutilgan samarani berishi mumkin. Demak, milliy g‘oyaning targ‘iboti va jamoa o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjud. Bunda quyidagi xususiyatlarni hisobga olish milliy g‘oyaning targ‘ibotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi:

- ❖ Jamoaning faoliyat sohasi;
- ❖ Jamoaning sotsial-demografik holati;
- ❖ Milliy tarkibi;
- ❖ Jamoadagi ma’naviy muhit;

- ❖ Jamoani ijtimoiy hayotda erishgan yutuqlari yoki muammolari;
- ❖ Jamoa qadrlaydigan muhim g'oyalar va maqsadlar.

YUqoridagi ko‘rinishlar bo‘yicha muayyan bilim va ma’lumotga ega bo‘lish milliy g‘oya targ‘ibotini tashkil etishga yordam beradi. Milliy g‘oya targ‘ibotidan ko‘zlangan maqsadni aniq, ishonchli va ta’sirchan, hayotiy chiqishiga, samarador bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aks holda, kutilgan natijaga erishib bo‘lmasligi mumkin. SHuning uchun ham, O‘zbekiston davlati siyosatining tub mohiyatini odamlarga tushuntirish, ularning bu siyosatni qo‘llab-quvvatlashlariga erishishda foydalilaniladigan texnologiyalardan biri “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasidir.

«Public relations» (PR) «Jamoat bilan aloqalar» targ‘ibotning demokratik usullaridan biri sanaladi. «Jamoat bilan aloqalar» texnologiyalari davlat bilan xalq o‘rtasida muloqot o‘rnatib, fuqarolarda davlat siyosatiga moyillik uyg‘otishga xizmat qiladi. SHu orqali davlatga hamfikr insonlarni ko‘paytirib, ularni ishonchli hamkorga aylantiradi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” insonlar fikrlariga, kayfiyatiga, xissiyotiga va oxir oqibat xatti-harakatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi «ishonch va istaklar strategiyasidir».

Etakchi davlatlarda bu texnologiyalardan foydalinish mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish industriyasi darajasiga ko‘tarilgan. O‘zbekistonda ham mafkuraviy jarayonlarni tartibga solishda jamoa bilan aloqalar texnologiyalaridan foydalinish milliy g‘oya targ‘ibotining ta’sirchanligini, so‘zsiz, oshiradi.

U boshqaruvning alohida usuli bo‘lib, boshqaruv tuzilmalarining jamiyat manfaatlariga xizmat qilishiga e’tiborni qaratish, amalga oshirilayotgan islohotlarga jamoatchilikni safarbar qilish, jamiyatda vujudga keladigan noxush holatlardan ogoh qilish orqali ularning oldini olishga xizmat qiladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” qonuniy, ochiq, samimiyl, ahloqiy me’yorlarga mos keladigan muloqotlar asosida amalga oshiriladi.

Qator mamlakatlarning davlat boshqaruvida “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining qo‘llanilishi boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik usulidan

farqli holda, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik usuliga o‘tishga xizmat qiladi. Buning natijasida, davlat va jamoatchilik o‘rtasida mavjud ko‘zga ko‘rinmas to‘siq olib tashlanib, demokratik ruhdagi fuqarolar uchun ochiq, ularning talablariga javob beruvchi, o‘zgarishlarga tez moslashuvchan yangicha, samarali ishlaydigan boshqaruvchilar qatlami shakllanadi. SHu bilan birga, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo‘llash fuqarolar ongiga demokratik qadriyatlarni samarali singdirishga, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” deganda: “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari davlat organlari va boshqa turdagи tashkilotlarning insonlar, ijtimoiy guruhlar, korxonalar bilan o‘zaro tushunish va ishonch muhitini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyati tushuniladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar”ni ilmiy asosda o‘rganilishi ushbu texnologiyalarni qo‘llayotgan sub’ektga olib borilayotgan siyosatni qo‘llash uslublarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Quvvatlovchilarni aniqlash, jamoatchilik fikrini o‘rganish, sub’ekt uchun ahamiyatli bo‘lgan axborot oqimlarini boshqarish uslublarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” milliy g‘oyani targ‘ib etish va tarqatishning o‘ziga xos texnologiyasidir. I.Solovyov tomonidan berilgan ta’rif xam e’tiborga loyiq: “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari axborot texnologiyalarining bir turi bo‘lib, biror siyosiy maqsadni amalga oshirishda respondent¹ ni hurmat qilgan holda axborot-tahliliy faoliyat yuritishni nazarda tutadi, deb yozadi u. – Ushbu texnologiyalar kommunikator² va retsipient o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaratishga xizmat qiladi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining xaqiqatga asoslanishi mavjud muammolarni keng jamoatchilik o‘rtasida erkin muhokama kilish imkoniyatini beradi va fuqarolarda siyosiy qarorlar qabul qiluvchi markaz hakida ijobiy tasavvur uyg‘otadi. Bu texnologiyalar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

- ❖ axborotning xolisligi va oshkorali;

¹ Қаранг: Респондент - ахборотни қабул қилувчи.

² Қаранг: Коммуникатор - ахборот етказувчи.

❖ o‘zaro munosabatlarda ham kommunikatorning, ham retsipientning manfaatlarini xisobga olish;

❖ jamoatchilik fikriga tayanib faoliyat yuritish, jamoatchilik fikrini xurmat qilish;

Axborot etkazish faoliyatining bunday tashkil etilishida kommunikator retsipientga shunchaki axborot qabul qiluvchi deb emas, balki o‘z dunyoqarashiga ega shaxs sifatida murojaat qiladi. SHu sababli, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarining ishtirokchilari jamoatchilik fikridan doimo boxabar bo‘lib turadilar».

Olim ushbu muammoga to‘xtalar ekan «Jamoatchilik va aloqalar» texnologiyalari qanday maqsadga yo‘naltirilganligiga qarab uni bir necha turlarga ajratadi.

Masalan, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarning kommunikatorning davlat va jamoat tashkilotlari bilan aloqalarni yaxshilashda (public) shaxsning istalgan qiyofasini yaratishda (image making), ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni mustaxkamlashda (media relations), axborot etkazish va uning auditoriya tomonidan qabul qilishini boshqarishda (massage management) axborot markazlaridan kadrlar bilan ishlashda (employee communications), jamoatchilik bilan o‘tkaziladigan tekshirishlarda (publik involuement), homiylar bilan yaxshi aloqalarni ta’minlashda (investor relations), tanishtiruvchi tadbirlarni o‘tkazishda (spesial events), inqirozli vaziyatlarni boshqarishda (crisis manegement) va boshqalarda foydalanish mumkin»,⁴² deb e’tirof etadi. U mazkur texnologiyalarning alohida ko‘rinishlarini sanab o‘tadi va ularning har biri o‘ziga xos vazifalarni bajarishini ta’kidlaydi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini bunday qismlarga ajratilishi axborot berish jarayonini boshqarish har bir informszion loyihalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish standartlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishda ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari demokratik davlatlarda

⁴² Қаранг: Соловьев А.Н.Политология; политическая теория, политические технологии. - М.: Асек Пресс, 2000, С-518.

mamlakat tomonidan jamoatchilikka axborot etkazishining mazmuniga aylanganligi bois davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari muammosi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan qator olimlar davlat boshqaruvida mazkur texnologiyalarning qo‘llanilishini, avvalo:

- ❖ davlat faoliyati to‘g‘risida fuqarolarga axborat etkazish;
- ❖ siyosiy jarayonlarda fuqarolarning ishtirokini ta’minlash;
- ❖ fuqarolar tomonidan davlat siyosati va dasturlarini qo‘llab-quvvatlashga erishish;
- ❖ davlat tuzilmalarining ijobiy imijini yaratish⁴³ kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydilar.

Taniqli psixolog Erix Frommning ta’kidlashicha, kishilarni ko‘r-ko‘rona ishontirish, ularning dunyoqarashini boshqarish fikridan voz kechib ongli va faol hamkorlik muhitini yaratish zarur⁴⁴, bu aynan “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari mohiyatini tashkil etadi. SHu sababli milliy g‘oya targ‘ibotida “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalaridan foydalanish insonning fikr erkinligiga daxl qilmaydi, amalda bu boradagi ishlarimizni yaxlit tizim shakliga keltirishga xizmat qiladi.

**Milliy g‘oya targ‘ibotida
“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning
demokratik asoslari va zamanoviy
ko‘rinishlari**

O‘zbekistonda “Jamoatchilik bilan aloqalar” o‘zining demokratik asoslari ega. U mamlakatimiz qomusi Konstitutsiyamizda va

boshqa me’yoriy-huquqiy xujjalalar va qonunlar orqali kafolatlab quyilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat hokimiyyati organlari faoliyatni ochiqligi to‘g‘risida”gi, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi, “Saylov to‘g‘risida”gi, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalarini to‘g‘risida”gi, “Ommaviy

⁴³ Қаранг: Соловьев А.Н. Политология; политическая теория, политические технологии. - М.: Асек Пресс, 2000, С-518.

⁴⁴ Қаранг: Филипп А. Буари. Паблик рилейшиз или стратегия доверия.-М, 2001, С-25-26.

axborot vositalari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar⁴⁵da “Jamoatchilik bilan aloqalar”ning huquqiy asoslari kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mafkura targ‘iboti masalasiga to‘xtalib «Biz kishilar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz odamlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma’no va mazmun bilan to‘ldirish tarafдоримиз. Har qanday xalqni halq, millatni millat qiladigan, uning yo‘li va maqsadlarini aniq ravshan va charog‘on etadigan mafkura - milliy g‘oyani shakllantirishning asosiy sharti odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqealikka nisbatan ta’sirini inobatga olishdir»⁴⁶.

“Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalari targ‘ibot tashviqot masalalariga qaratilayotgan ana shunday qat’iy talabga to‘la mos keladi. CHunonchi, “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini qo‘llanilishida ommanning fikrining boshqarish usulidan voz kechiladi.

Olimlar “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyalarini targ‘ibotdan keskin farq qilishini ta’kidlaydi. Xususan, F.Teylording fikricha, «Targ‘ibot – axborot etkazishning shunday usuli, unda faqatgina kommunikatorning manfaatlari mos g‘oyalar, mafkuralar, axborot ommaga etkaziladi»⁴⁷.

Ulardan eng ko‘p qo‘llanilayotgani bu - “Jamoatchilik bilan aloqalar” texnologiyasidir. Uning qisqacha mohiyati – jamiyat manfaatlari yo‘lida davlat boshqaruvi organlari hamda jamoat tashkilotlari, fuqarolar o‘rtasida muloqot o‘rnatish san’atidir. Avvalo bu texnologiyani qo‘llashning va uni qabul qilishning mohiyati unga berilgan quyidagi sifatlari darajasi bilan bog‘liq:

- ❖ aniq maqsadning qo‘yilganligi;
- ❖ sharoitga ijodiy moslashuvchanlik;
- ❖ nazariy va uslubiy jihatdan puxtalik;
- ❖ ortiqcha murakkablashtirishdan xolilik;

⁴⁵ Карапг: Lex.uz.

⁴⁶ Карапг: Каримов И.А Ўзбекистон келажагимиз келажагини ўз қўлимиз билан курамиз. 7-жилд, Т.: «Ўзбекистон», 1999 й. 298-б.

⁴⁷ Карапг: Taylor P.M. mumtions of the mind. History of Propoganda from ancient to present day-Manchester-New York, 1995. Р-6

❖ qo'llashda qulaylik.

Mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqlarning asosiy birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan – milliy g'oyani tub mohiyatini tushuntirish, uni qo'llab-quvvatlashlariga erishish, bu jarayonda vujudga keladigan muammolarni hal qilishda jamoatchilikning fikriga tayanish, milliy g'oyani targ'ib etishda aholining manfaati va istaklarini o'rganish, fuqarolarni yot, zararli mafkura va g'oyalar ta'siridan himoyalash vazifalarini amalga oshirishda jamoat bilan aloqalar texnologiyasining o'rni kattadir.

Dunyo bugun rivojlanishning yangicha bosqichiga kirdi. Bu davrda taraqqiyot bilan bir o'rinda, 20-asrning mazmunini ochib bergan "qurollanish xavfi" ancha kamaygan bo'lsa-da, ammo mafkuraviy tazyiq darajasi ancha o'sib bormoqda. Hatto bugun biz ba'zi bir mamlakatlarni uning ta'siriga tushib borayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Aynan ana shunday xavflarning oldini olish va ularning ta'siriga chidab berish qobiliyatiga ega bo'lgan "qalqon" bu – xalqimizning an'ana va tarixini o'zida mujassam etuvchi, uni kelajakdag'i taraqqiyotini belgilab berish uchun xizmat qiladigan milliy g'oyadir. Ammo, milliy g'oyani mavjudligining o'zi etarli, holat emas. Balki uni bir butun holda mazmunini tushunish, qabul qilishlari, uni asrab-avaylashlari uni xalq va davlat manfaati miqyosida qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. 1922 yilda taniqli sotsiolog P.Sorokin buni isboti sifatida shunday deb yozgan edi: "har qanday jamiyatning taqdiri avvalo, uni a'zolari xususiyatiga bog'liq. Befarq va loqayd odamlardan tashkil topgan jamiyat hech qachon rivojiana olmaydi. Bir guruh shaytonlarga ajoyib konstitutsiyani berib qo'ying, baribir siz ulardan ajoyib jamiyat tuza olmaysiz" deb yozgan edi. Aynan jamoat bilan aloqalar texnologiyasi milliy g'oya targ'ibotida jamoat bilan munosabatlar tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuni hisobga olganda, bugun yoshlarning ongiga milliy g'oya maqsadlarini singdirish, ularni an'analarimiz, tariximiz, umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar ruhida tarbiyalash bugungi kunda milliy siyosatimizning asosiy yo'naliшlaridan biri hisoblanadi.

"Jamoatchilik bilan aloqalar"ning zamonaviy ko'rinishlari:

❖ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonlari;

❖ Vazirliklar bilan telefon aloqalari;
❖ Ijtimoiy tarmoqlar (internet, elektorn saydlar);
❖ Siyosiy partiyalarning saylov oldi targ‘iboti jamoatchilik bilan uchrashuvlar;

- ❖ Elektron axborot;
❖ Elektron xukumat;
❖ Matbuot xizmatlari;

“Jamoatchilik bilan aloqalar”ning darajasi:

- ❖ Mahalliy darajadagi muloqatlar;
❖ Respublika darajasidagi muloqatlar;
❖ Mintaqa darajasidagi muloqatlar;
❖ Global darajadagi muloqatlar.

Milliy g‘oya targ‘ibotining asosiy maqsadi – avvalo, jamiyat barcha a’zolari, shuningdek, yosh avlodni shu g‘oyaga ishonch va e’tiqod asosida tarbiyalash, ularni turli “mafkuraviy xavflar”dan himoya qilish, davlat va jamiyat manfaatlarini doimo o‘ziga ma’suliyat deb his qiladigan barkamol avlodni tarbiyalash bugun alohida mazmun kasb etmoqda.

“Jamoatchilik bilan aloqalar”da jahon tajribasi va targ‘ibotda milliy ma’naviy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyati

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning taqdiri insonning faolligiga bog‘liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini

xalqqa tushuntirishni talab qiladi. O‘zbekiston hayotidagi o‘zgarishlar insonlar ongida ham kengroq o‘zgarishlar qilishni talab etadi. Hozirgi kunda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas.

Bunday sharoitda begona mafkuraning qo‘poruvchi ta’siriga qarshi doimiy va uzlusiz aksil targ‘ibotni tashkil etish zarur. CHunki, bunday mafkuraviy kurash nafaqat mamlakatimiz ichkarisida balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi. SHuni alohida ta’kidlash joizki, demokratik jamiyat barpo etish davlatning

fuqorolik jamiyati bilan doimiy aloqaga kirishishini o‘z maqsad va vazifalarni insonga tushuntirib borishini, jamiyatdan kelayotgan talab va takliflar asosida siyosiy qarorlarni qabul qilishni taqazo etadi. Bu esa jamiyatdagi turli kuchlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirishi ular o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish va boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilishning maqbul usullarini joriy etish imkonini beradi.

YOshlarning u yoki bu darajada o‘z mafkuraviy himoya qobig‘iga ega bo‘lishi, unga g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi kurashish imkonini beradi. SHu o‘rinda ta’kidlash lozimki, yoshlarning siyosiy vaziyatni idrok etishida, mushohada va tahlil qilishida g‘oyaviy barqarorlik muhim ahamiyatga ega.

Ezgulikka, fikr sofligiga yo‘naltirilgan bunyodkor g‘oyalalar – yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashning mafkuraviy-g‘oyaviy negizlari bo‘lib xizmat qiladi.

YOshlar o‘zining ongli yashash huquqi uchun, o‘z taqdirini o‘zi belgilash erkinligi, hayotiy ezgu maqsadlarini amalga oshirishi uchun o‘zlari faol bo‘lishlari kerak.

Bunyodkor g‘oyalarning asosiy mohiyati yoshlarning qalbi va ongiga singdirilsa, shaxs tafakkuri turli eskicha aqida va tushunchalardan, turli g‘oyaviy ta’sirlardan xolos bo‘lib, davlat manfaatiga xizmat qiladi. Uning ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shadi.

SHuningdek, huquqiy demokratik davlat barpo etishda odatda davlat hokimiyyat organlari islohotchi vazifasini o‘taydi. Boshqacha qilib aytganda, aynan davlat hokimiyyati organlari islohotlarning yo‘nalishlari ko‘rinishi ularni amalga oshirish bosqichlarini belgilab beradilar. SHu bois davlatning muhim vazifalardan biri islohotlar jarayonida fuqorolar bilan davlat hokimiyyati organlari o‘rtasida erkin axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yishdan iborat .

Rivojlangan mamlakatlarda fuqarolarni davlat hokimiyyati organlari faoliyatidan xabardor qilishning turli mexanizmlari mavjud bo‘lib, ulardan eng ko‘p tarqalgan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalaridir.

Jamoatchilikka muhim axborotlarni o‘z vaqtida etkazish, o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish, jamoatchilikning ishonchini qozonish, demokratik qadriyatlarni singdirish ishlari puxta ishlab chiqilgan reja asosida olib borilishini taqazo etadi.

«Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini qo‘llashda har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan, Evropa mamlakatlarida qo‘llaniladigan «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini aynan joriy etib bo‘limasligi mumkin. Bunda xalqning mentaliteti, xususiyatlari, milliy-madaniy merosi, an’analari, qadriyatlari, siyosiy ong va madaniyati darajasi bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarni hisobga olgan holda yondashish muhim. Aks holda, u umume’tirof etilgan demokratik tamoyillarning milliy hususiyatlar bilan bog‘liq ekanligiga ham mos kelmaydi. SHuning uchun, jamoa bilan aloqalar bo‘yicha jahonda katta tajriba to‘plangan bo‘lsa, bu degani, boshqa mamlakatlar uchun “yagona andoza” degani emas. YOki, aynan unga qarab boshqa mamlakatlarga baho berish to‘g‘ri emas. Targ‘ibot texnologiyalaridan, har bir jamoa, xalq, millat mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish milliy g‘oya targ‘iboti maqsadlariga mos keladi hamda demokratik o‘zgarishlarga to‘g‘ri keladi.

Tayanch tushunchalar: Jamoat, «Jamoatchilik bilan aloqalar», «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalari, «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini demokratik asoslari, milliy g‘oya targ‘ibotida jamoat bilan aloqalar, milliy xususiyatlar.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar

1. «Jamoatchilik bilan aloqalar» tushunchasini “SWOT - tahlil” eting.
2. «Jamoatchilik bilan aloqalar» texnologiyalarini axborot kommunikatsion tizimdagи o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda “Klaster” usulida taqoslang.
3. Saylov jarayonida «Jamoatchilik bilan aloqalar» ko‘rinishlari va uning yo‘nalishlarini “Debat” usulida tahlil eting.

11-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida ommaviy axborot vositalarining o‘rni

Reja:

1. Milliy g‘oya targ‘ibotida Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tushunchasi va ma’no-mazmuni
2. Ommaviy axborot vositalari tuzilmasi va tasnifi
3. OAV va milliy g‘oya targ‘ibotining amalga oshirishning zamonaviy ko‘rinishlari. Xalq bilan muloqat

Milliy g‘oya targ‘ibotida Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tushunchasi va ma’no-mazmuni

Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar,

jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir⁴⁸. Milliy g‘oya aholining keng ko‘لامи орасида targ‘ibot va tashviqot ishlarni takomilida shubhasiz ommaviy axborot vositalari (OAV) etakchi o‘rinni egallaydi.

Ommaviy axborot vositalarining bugungi kundagi roli haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Bugun xayotning o‘zi oldimizga fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat’iy qilib qo‘ymoqda. Ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio, televideenie faoliyatini jonlantirish, ularning Internet global tarmotig‘a kirish imkoniyatlarini kengaytirish

⁴⁸ Lex.uz. Ўзбекистон Республикасининг 2007 йил 15 январда қабул қилинган «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш хақида”ги Қонуни.

olib borilayotgan islohotlar siyosatining ochikligi va oshkorligini ta'minlashga, kuchli fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishiga madad berishi darkor”⁴⁹.

Xuquqiy demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli benihoya katta. SHo'rolar davrida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan ommaviy axborot vositalari o'z milliy zaminidan uzelgan edi. U o'zbek xalqiga, O'zbekistonga xizmat qilmas edi. Ommaviy axborot sho'rolar zamirida kommunistik mafkuraning dastyori sifatida mehnatkashlar ommasi ongi va dunyoqarashida tobelik, qaramlik va qullik g'oyalarini targ'ib qilar edi. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari ommaviy axborot vositalari oldiga tub sifat o'zgarishlar davri boshlandi. U o'zining milliy negiziga ega bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro'y bergan tub sifat o'zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ydi. U ham bo'lsa, mamlakat fuqarolari o'rtasida milliy g'oyalarni xolisona targ'ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O'zbekistonni yaratishdek, shuningdek, uni doimo himoya qilishdek, davlat oldida fuqarolarni ma'suliyatini oshirishdek ishlarga ommaviy safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug'vor va olivjanob vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining xuquqiy asoslari yaratildi. SHu bois, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining mustaqil respublika mezonlariga javob bera oladigan yuridik maqomlarini belgilab beruvchi xujjatlar majmuasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi bosh Qomusining 67-moddasida: “Ommaviy axborot vositalari erkendir va to'la qonunga muvofiq ishlaydilar. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javob beradilar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi”⁵⁰, deb belgilab quyilgan. Bugun jamiyatimizning ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. OAV: matbuot, televideonie, radio, axborot agentliklari, internet saytlari va hakazolardan iborat. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy

⁴⁹ Каримов И.А. Мамалакатиизмда демократик ислоҳатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон республикаси Олий Мажлиси Конунчиллик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т.:2010. – Б-56.

⁵⁰ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2008. Б.4

jarayonlardagi etakchi o‘rinni egallashini hisobga olgan holda, bugun OAV “to‘rtinchi hokimiyat” darajasi erkinligi e’tirof etildi.

Milliy g‘oya targ‘ibotida axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu bugun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda Nodavlat ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash maqsadida bir qancha jamoat tashkilotlari tashkil qilindi. O‘z tarkibida 100 dan ortiq elektron ommaviy axborot vositasini birlashtirgan Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi shular jumlasidandir.

YUridik va jismoniy shaxslarning, axborot texnologiyalari va tizimlarini qo‘llagan holda, axborot resurslaridan foydalanish mexanizmlarini belgilab bergen yangi tahrirdagi «**Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonunnin** qabul qilinishi ommaviy axborot vositalarini modernizatsiya qilishni jadal rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda sun’iy yo‘ldosh aloqa tarmog‘i orqali teleradiodasturlarni tarqatish yo‘lga qo‘yildi. Bugungi kunda mamlakatimiz telekommunikatsiyalar tizimi dunyoning 180 ta mamlakatiga 28 ta yo‘nalish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqadigan xalqaro kanallarga ega. YUrtimizdagи teleradiokanallar tomonidan tayyorlanayotgan ko‘rsatuv va eshittirishlar Internet global tarmog‘i orqali real vaqt rejimida jahonga uzatilmoqda.

Dunyodagi etakchi mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishi axborot sohasidagi faoliyatning sifati va saviyasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimida ko‘p jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bunday keng miqyosdagi ishlar natijasida faqat keyingi 10 yilning o‘zida bosma ommaviy axborot vositalarining soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda ularning umumiyl soni qariyb 1200 taga etdi. Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53

foizi, radiokanalarning esa 85 foizi nodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari O‘zbekistonda yashaydigan millat va elatlarning 7 ta tilida faoliyat olib boradi, shuningdek, bosma materiallar va teleko‘rsatuvarlар ingliz tilida ham tarqatilmoqda.

Yana bir muhim yangilik efir orqali uzatiladigan materialarni tayyorlash jarayoniga zamonaviy raqamli va multimedia texnologiyalari joriy qilinayotganida namoyon bo‘lmoqda. YUrtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur’atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 10 milliondan ortgani ham buni tasdiqlab turibdi⁵¹.

Ommaviy axborot vositalariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatni, yurtimizda va xorijda sodir bo‘layotgan vokealarni fikrlar xilma-xilligini hisobga olgan holda, yanada faolrok, yoritish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Nodavlat ommaviy axborot vositalarining tobora kengayib borayotgan tarmog‘i faoliyatining, mualliflik huquqi va intellektual mulk himoyasining, shuningdek, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirilmoqda. SHu boisdan ham mamlakatimizda erkin faoliyatga asoslangan OAV shakllantirildi va uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida avvalo, xuquqiy kafolatlarni yaratishga kirishildi. 1997 yilda “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, 2003 yilda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2004 yilda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, 2007 yilda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi, 1998 yilda “Reklama to‘g‘risida”gi, 2015 yilda “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qabul qilingan qonunlar⁵² yuqoridagi fikrimizning amaliy tasdig‘idir. 1999 yil O‘zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika

|

⁵¹ Каримов И.А. Мамалакатиизмда демократик ислоҳатларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т.:2010. – Б-56.

⁵² Lex.uz.

fakultetining tashkil etilishi o‘zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqealari hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari tuzilmasi va tasnifi

Matbuot milliy istiqlol uchun jamiyatni demokratlashtirish va kelajgi buyuk O‘zbekistonni taraqqiy etishining, milliy g‘oya va milliy manfaatlar tashviqotining o‘tkir quroli ekanligi isbot talab qilmaydigan xaqiqatdir. Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatning har bir oilasi va a’zosi OAVsiz hayotini tasavvur eta olmasligi va hech bo‘lmaganda u bilan bog‘liq ravishda yashayotgan bir davrda bu haqiqat yanada oydinlashadi. Bugun ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida talqin etilishining boisi demokratik davlatlarda hokimiyat bo‘linishining uch tamoyili amal qilsa-da, ularning faoliyatlarini takomillashtirish va ularni xalq bilan bog‘lashning asosiy vositachisi bo‘lgan ommaviy axborot vositalaridir.

Bu o‘rinda milliy targ‘ibotda ommaviy axborot vositalarining o‘mini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Birinchidan, ommaviy axborot vositalarini ma’lumotlarni tezkorlik bilan etkazish imkoniyatiga ega. Ikkinchidan, bugun insonlarning hayotining barcha jabhalariga kirib borishga ulgurdi, o‘ziga xos tarzda ma’lumotlar manbasiga aylanib qoldi. Ommaviy axborot vositalarining asosiy “talabgorlari” yoshlar qatlami bo‘lib, ayni ommaviy axborot vositalarining turli ko‘rinishlari orqali milliy targ‘ibotni yoshga mos tarzdagi ko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar tarzida etkazib berilsa, ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bugun globallashuv davrining yana bir yirik kashfiyoti sifatida baholanayotgan - Internet tizimining yaratilishi OAV yaratilishi tarixida ulkan tarixiy burilishni yasadi va dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi “chegaralar yanada yaqinlashdi”. Ushbu tizim bo‘yicha dunyoning istalgan mamlakati bilan uning maxsus saytlari orqali aloqa qilish, shuningdek, axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Zero, faqatgina Internetning o‘zi fan va texnika, siyosat, iqtisod rivojida, umuminsoniy va milliy madaniyatning o‘zaro ta’sirida, yagona axborot tizimini yaratish sohasida insoniyat uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Internetning paydo bo‘lishi XX asrning 60 yillarning oxiri va 70 yillarni boshlariga to‘g‘ri keladi. Oqibatda, internet ilmiy,

tijorat va notijorat tashkilotlari, mustaqil matbaa va ommaviy axborot vositalari foydalanidigan global tarmoqqa aylandi. 1991 yilda Angliya va Norvegiya ulangan internetga, 1992 yilda AQSH birlashdi. 1996 yilning o‘zida 50 million abonentlar qatoriga O‘zbekiston ham a’zo bo‘lib kirdi. Internet boy axborot manbai va unga xohlagan paytda, har qanday vaziyatda murojaat qilsa bo‘ladi. Unda reklamalar, tijorat takliflari va e’lonlari, TV va radio dasturlari, yirik gazeta va jurnallarning elektron nusxalari e’lon qilinadi. Ammo masalaning yana bir muhim, o‘tkir jihatni borki, bugun bu jarayon nosog‘lom “axborot xurujlari” bilan ham bog‘liqdir. Bugungi kunda jamiyatga jiddiy xavf tug‘dirayotgan yot g‘oyalardan biri terrorizmning asosiy quroli ham yadro quroli emas, balki internet bo‘lib qolayotganligi fikrimizning isbotidir. Bugun biz dunyoning ko‘plab mamlakalaridagi terroristik va buzg‘unchilik harakatlaridan oldin tarqatilgan internet ma’lumotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ispaniyada 2003 yildagi, Angliya metrosidagi 2005 yildagi, Rossiyada 2006 yildagi terroristik xattiharakatlar oldindan turli paytlarda, aniqlab bo‘lmash portallar orqali ma’lumot sifatida tarqatilgan. Bundan tashqari “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi uchun asosiy yo‘lak hamdir. Globallashuv - dunyo xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi ekan, uning tuzilmasi turli munosabatlar asosiga quriladi. Ommaviy axborot vositalari targ‘ibotlarni turli yo‘sinda amalga oshirishi mumkin bo‘lib, ularda reklama va e’lonlar asosiy rol o‘ynaydi. Reklama va e’lonlarda ma’lum bir mahsulotni taqdimoti orqali asosiy etakchi davlatga xos va mos bo‘lgan g‘oya targ‘ib etiladi.

Bugun ommaviy axborot vositalari “ommaviy madaniyat”ning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan turli xil kinofilmlar va seriallar bilan o‘z mijozlariga ega bo‘lmoqda. Bu o‘rinda o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlayotgan kuchlar nisbati haqida jiddiy o‘ylab ko‘rish lozim. CHunki, aynan ommaviy axborot vositalarining turli ko‘rinishlari orqali jamiyatga “yot g‘oyalarni”ning kirib kelishi ham tezlashadi. SHu maqsadda turli xil kinofilm va seriallar, g‘arb ko‘rsatuvlarini taqdim etayotgan telekompaniyalar faoliyatini yanada takomillashtirish va

ommaviy nazoratni kuchaytirish va ma’naviy-mafkuraviy immunitetni oshirish milliy g‘oya targ‘iboti nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, har millat an’anaviy taraqqiyot negizlariga ega bo‘lib, bu o‘rinda albatta zamonaviylikni ham inkor etmasligi lozim. An’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarishi lozim bo‘lgan jamiyat ijtimoiy institutlaridan biri ham aynan ommaviy axborot vositalaridir. Ammo jahon ommaviy axborot vositalari faqatgina o‘z “mijozlari”ga ega bo‘lish maqsadida an’anaviylikka eskilik sarqiti sifatida qarash, yangi zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan manbalardan ko‘proq foydalanish holatlari, afsuski hozirgi kunda uchrab turibdi. Milliy g‘oya targ‘iboti o‘z navbatida, ommaviy axborot vositalari oldiga katta va o‘z o‘rnida ma’suliyatli vazifalarni yuklaydi. Faqatgina ko‘rsatishning o‘zi etarli emas, balki, turli tushuntirish ishlarini ommalashtirish, unga fuqarolarni jalb qilish orqali tashviqotni yanada kuchaytirish, g‘arbona kliplarining o‘rniga milliylik va umuminsoniy madaniyat ruhi bilan sug‘orilgan ko‘rsatuvlarni namoyish etish, asta-sekinlik bilan hammabob teledasturlar tizimini yaratib borish ommaviy axborot vositarining ezgu g‘oya targ‘ibotidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Axborot xurujiga qarshi kurashish-davlat tomonidan maxsus metod (siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy) lar, usullar vositasida, ichki va tashqi axborot makonida o‘z manfaatlarini himoyalashning majmuaviy tizimidir. Axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash quyidagi asosiy sohalarda olib borilmoqda:

- ❖ siyosiy (davlatning ichki va tashqi siyosat) faoliyatida;
- ❖ diplomatik (xalqaro va davlatlararo) munosabatlarda;
- ❖ davlatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarida;
- ❖ harbiy (mudofaa tizimini mustahkamlash).

Davlatlarning milliy manfaatlariga jiddiy xuruj sifatida namoyon bo‘layotgan omillardan biri-global axborot xuruji eng yuqori darajani tashkil qiladi. Xalqaro axborot makonidan o‘zaro kurashuvchi manbalar o‘zaro vaqtincha birikib, muayyan davlatga qarshi axborot xurujini tashkil etishadi. Asosiy maqsad,

xuruj ta'siri ostiga olingan davlatning ichki axborot makonini tanazzulga uchratish, xalqaro axborot makonida o'sha davlatni o'z pozitsiyasini mahrum qilishdir.

1998 yilda texnika fanlari doktori S.Rastorguev o'zining "Axborot urushi"⁵³ nomli kitobida S.Nilusning "Sion donishmandlari yig'ilishi protokollari" nomli xujjatni axborot-texnologik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. CHunki, mazkur xujjatda axborot urushining barcha yo'nalishlari, omillari aniq va qisqa yo'nalishda ko'rsatilgan:

- ❖ boshqaruv tizimi (xokimiyat tarmoqlarini nazorat qilish);
- ❖ aholini fikrini o'zgartirish vositalari (OAV yordamida);
- ❖ terrorizm (davlatni tahlikaga solib, maqsadga erishish);
- ❖ iqtisodiy xuruj, iqtisodiy boshqaruv vositalari;
- ❖ iqtisodiy dastur (iqtisodiy tanazzulga yoki qaramlikka olish);
- ❖ umumxalq ovoz berishlari va h. (siyosiy jarayonni buzish)

Mazkur xujjatdagi ma'lumotlar metodik xarakterga ega bo'lib, ular shunday tuzilganki, axborot xurujining mazmun-mohiyatini anglay oladigan har qanday shaxs uni faoliyatida ishlatishi mumkin.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham bunday xavflarni bartaraf etish masalasi jiddiy g'oyaviy muammolar doirasiga kiradi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar murakablashib borayotgan, uning yangi usullari o'ylab topilayotgan hozirgi kunda ushbu tahdid va ta'sirlarga faqat kuchli g'oya, o'zlikni anglash, sog'lom g'oyalardan iborat mafkuragini qarshi tura oladi. SHuning uchun ham I.A.Karimov tomonidan yuksak mafkuraviy madaniyatni mujassam etgan "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" tamoyili nazariy jihatdan asoslab berildi va mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining faoliyat dasturlarida keng amaliyotga joriy qilinmoqda.

O'zbekistonda senzuraning man qilinishi bilan ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar shakllandi.

⁵³ Қаранг: С.Расторгуев. Информационная война. 1998 г. С.139-140

Axborot makoni globallashuvning hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalarini faoliyatini yanada liberallashtirish orqali milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining mazmunini oshirish - davr talabi hisoblanadi.

OAV va milliy g‘oya targ‘ibotining amalga oshirishning zamonaviy ko‘rinishlari. Xalq bilan muloqat

Mustaqillikning ilk yillardan boshlab Konstitutsiyamiz va unga asosan qabul qilinayotgan qonunlar aholi turmush farovonligini tobora yuksaltirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bosh qomusimizdagи ezgu g‘oyalar bugun jamiyatimizning, davlatimizning asosiy maqsadiga aylanib, yildan-yilga o‘zining hayotiy ifodasini topib borayotir. Konstitutsiyamizning 2-moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” deb belgilab quyilgan. Mazkur modda vositasida Konstitutsiyamizda inson va uning qadr-qimmati bosh maqsad sifatida belgilangan.

Bu borada erishilgan yutuqlar, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan sohalarni 2016 yilning 7 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir” mavzusidagi ma’ruzasida ko‘rsatib berdilar.

Ushbu tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoev Bosh qomusimiz turmushimiz, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyati yuksalishida, barcha sohada amalga oshirilgan samarali islohotlarga asos bo‘lganini ta’kidlab, haqiqatan ham Konstitutsiya har tomonlama rivojlanishimiz, oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarga erishishimizda, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli

fugorolik jamiyati qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda degan fikrni bildirdilar.

Tantanali marosimda 2017 yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, deb e’lon qilindi. Bu Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshlab bergen inson, uning hayoti, ozodligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalishi kabi ezgu g’oyaning mantiqiy davomi bo’ldi.

Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari tushunchasini bir-biridan ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Bu esa yurt taraqqiyotiga, xalq farovonligi yuksalishiga olib keladi. YA’ni, muloqot va manfaat tushunchasi xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak, degan tamoyilga asoslanadi. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilidagi asosiy vazifalar davlat organlarining fuqarolar bilan o’zaro munosabatlari tubdan takomillashishiga zamin bo’lib, aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini topish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa, xalqning davlat va jamiyatga bo’lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

SHu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonga asosan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining kuyidagi qabulxonalari tuzildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O’zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida;

Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, shuningdek har bir tuman va shaharda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu farmoniga asosan:

Aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to‘laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta’minlash;

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlariga va xo‘jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so‘zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan murojaatlar “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qat’iy amal qilgan holda, to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini tashkil etish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan hamda tegishliligi bo‘yicha davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish;

Jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslar vakillarining qabullarini davlat organlari va xo‘jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari ishtirokida, shu jumladan videokonferensaloqa orqali o‘tkazish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushayotgan murojaatlarning qayd etilishi, umumlashtirilishi, tizimlashtirilishi va ko‘rib chiqilishi ustidan nazorat qilinishi bo‘yicha yagona elektron axborot tizimini joriy etish va yuritish yo‘li bilan murojaatlar bilan ishslashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalarining asosiy vazifalari etib belgilangan.

Ayni damda ushbu Farmon bilan murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan tizimli qonunbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan

huquqni qo'llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Xalq qabulxonalariga va Virtual qabulxonaga kelib tushgan, shuningdek tegishliligiga ko'ra davlat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga yuborilgan murojaatlarni qabul qilish, qayta ishlash, ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishi ustidan tizimli monitoring va nazoratni amalga oshirish, shuningdek, Farmonga asosan, boshqa vazifalarni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibiy tuzilmasida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, ana shunday mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda tashkil etilayotgan "Xalq qabulxonalari" Konstitutsiyamizning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar" degan ezgu tamoyilni amalda ro'yobga chiqarish uchun tashkil etiladigan ochiq muloqotning muhim mehanizimi bo'ladi. Zero, bu qabulxonalar har bir hududdagi vaziyatni, avvalo, qonun, farmon va qarorlar ijrosini, aholining keng qatlamiga etkazish, ularning samaradorligini yanada oshirishda muhim qadam bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, inson manfaatlarini ta'minlashga, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, xalqimizning hayot sifati va darajasini oshirish, Vatanimizning jahon miqyosidagi obro'-e'tiborini yuksaltirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettirishga asos bo'ladi.

Tayanch tushunchalar: OAV, axborot, senzura, matbuot, televiedenie, radio, axborot agentliklari, internet, internet saytlari, nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari, axborot, axborot xuruji, Xalq qabulxonasi, Virtual qabulxona.

Mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar

1. OAV tushunchasi, undagi o'zgarishlar va o'ziga xos xususiyatlari
2. Internet – OAV sifatida, undan foydalanishda quilayotgan talablar
3. Milliy g'oya targ'ibotida elektron xukumatdan foydalanishning ahamiyati
4. Milliy g'oya targ'iboti va ijtimoiy tarmoqlar

12-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida xalq og‘zaki ijodidan foydalinishning o‘ziga xos usullari

Reja

1. Xalq og‘zaki ijodi va uning ko‘rinishlari
2. Xalq og‘zaki ijodi – milliy g‘oya negizi
3. Milliy g‘oyada xalq og‘zaki ijodining manbalari va ko‘rinishlari

Xalq og‘zaki ijodi va uning ko‘rinishlari

Xalq og‘zaki ijodi, xalq dostonlari millatning o‘zi kabi qadimiy ildizga ega bo‘lishi barobarida, millat g‘oyasini ajdoddan-avlodga etkazishdek o‘ta muhim vazifani ado etib kelgan. Boshqacha aytganda, xalq og‘zaki ijodi, xalq dostonlari, xalq ruhidagi ezgu g‘oyalarni, orzularni ro‘yobga chiqishida, kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Turkiy xalqlar o‘z yozma adabiyotlarini vujudga keltirmasdan oldin mazmunan boy, shaklan rang-barang bo‘lgan og‘zaki adabiyot – qo‘shiqlar, ertaklar, dostonlarni yaratganlar. To‘y-hashamlarda, xalq yig‘inlarida, bayramlarda, safarlarda xalq shoirlari – baxshilar ovozi yangrar, - qo‘biz, do‘mbira ovozi jaranglar edi. Baxshilar o‘zlarining sodda va samimiy kuylarida sof muhabbat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik,adolatparvarlik, ma’rifatparvarlikni tarannum etganlar. Baxshilar do‘mbirani sayratib, ovozlarini baralla qo‘yib, to‘y va bayramlarga shodlik, quvonch kiritib, xalq yig‘inlarini tantanali qilar, safarlarda xalqni birdamlikka, qahramonlikka, vatanparvarlikka da‘vat etar edilar. Ko‘rinadiki, xalq og‘zaki ijodi, xalq dostonlari nafaqat millat ruhidagi g‘oyani o‘zida ifodalaydi, balki shu g‘oyani millatning mafkurasiga aylanishida qanoat bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodi o‘zida taraqqiyparvar, bunyodkor, ma’rifatparvar ilg‘or g‘oyalarni obrazli tarzda ifodalash, tashish va uzoq kelajakka etkazishdek ezgulikka hamisha xizmat qilib kelgan.

Badiiy adabiyot orqali ifodalanib kelingan xalq og‘zaki ijodi, xalq dostonlarining ulkan kuch - qudratini va imkoniyatlarini yaxshi anglagan

ajdodlarimiz o‘z hayot sinovlaridan o‘tkazgan ezgu fikr, g‘oyalarini, kelajak ideallarini kelgusi avlodlarga foydali jihatlarini so‘z san’atining rang-barang tur va janrlari qatoriga joylab kelganlar. Bunga ko‘p ming yillik tarixga ega donishmand xalqimizning nihoyatda boy og‘zaki va yozma badiiy adabiyot sahifalaridan mustahkam joy olgan va milliy g‘oyada o‘z mujassamini topgan jamiki milliy va umumbashariy qadryatlar dunyosi guvohlik beradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida xususan, qaxramonlik eposlarida vatanparvarlik, yurtsevarlik, zulmatga va yovuzlikka qarshi kurash g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lib, bular sirasiga “Kayumars”, “Alp Erto‘nga”, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”, “SHirin bilan SHakar”, “Orzigul”, “YOdgor”, “Xoldorbek”, “Altbek va Bolibek”, “YUsuf va Ahmad”, “Ravshan”, “YUsuf va Zulayho”, “Tohir va Zuhro” kabilarni keltirishimiz mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi, xalq dostonlari millatning kechmishi, tarixi, tabiatni, sevinchu iztiroblaridan so‘zlovchi go‘zal qissalardir. Badiiy adabiyotning ilk va betakror namunalari ham aynan xalq og‘zaki ijodi, dostonlaridir. Ularning har birida muayyan tarixiy haqiqat nafasi, millatning ruhi ufuradi. Bunda xalqning barcha qatlamlari o‘z so‘zlarini, ijtimoiy va maishiy muammolarini yuksak badiiy ijod bilan tarannum etadilar. SHu nuqtai nazardan qaraganda, xalq og‘zaki ijodi uzoq tarixiy davrda yaratiladi. Xalq og‘zaki ijodi, dostonlar avvalo, baxshilar, darveshlar, kayvonilar qalbidan otilib chiqadi va xalqning boshqa vakillari uni to‘ldiradilar. Xalq dostonlari qahramonlik, jangnoma, ishqiy sarguzasht, tarixiy va kitobiy turlarga bo‘linadi. Eng muhimi va e’tiborlisi, barcha dostonlarda vatanparvarlik, millatparvarlik markaziy o‘rinni egallaydi. Bu hol, hattoki, ishqiy sarguzashtlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Dostonlarda botirning botirligi kimni yoki qancha lashkarni tor mor keltirgani bilan emas, vatanning ravnaqi uchun nechog‘lik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Har qaysi elning o‘z afsonaviy bahodiri, suygan pahlavoni bor. Parokanda elni birlashtirgan Alpomish nomi ham bizning shuurimizga munis onalarimiz aytgan allalar bilan kirgan. Ajdodlar yodi, faxru g‘ururi bizning xotiramizga Alpomish

tim solida jo bo‘lgan. Alpomish o‘zbekning o‘zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz, ajdodlaridan avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘srig‘idir. Dostonda hayot bir butunlik kasb etgan va biz bugun milliy qadriyat deb e’zozlayotgan oliyjanob xislatlar beedad ulug‘langan. “Alpomish” dostonining qadimiyligi – millat jipsligi, el va elatlar qadimiyligining ramzidir.

Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lmoqqa intilib yashadi. O‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan pahlovonlar etib tarbiyalab keldi. “Alpomish” dostoni yoshlarda insonparvarlik, oilaparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, or-nomuslilik kabi fazilatlarni kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga egadir. Masalan, asardagi kichik bir dalilda, katta bir g‘oya mujassasligini ko‘ramiz. Elning qadimiyligini tasavvurlariga ko‘ra, o‘q-yoy – hokimiyat nishoni hisoblangan. Alpomish etti yoshidan o‘n to‘rt botmon jez-bronzadan yasalgan yoydan o‘q otib, “alp” degan unvonga sazovor bo‘lgan. Alp degani – hokimiyat egasi ekanligini inobatga olsak, bu doston uch ming yildan ziyod tarixga ega milliy davlatchiligidan badiiy ifodasi ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Ushbu asarda tarix to‘fonlaridan, hayot mamot sinovlaridan eson-omon chiqib, o‘zligini yo‘qotmagan xalqimizning bag‘rikenglik, matonat, oliyjanoblik kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Masalan, Alpomish dostonida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Alpomish dostonida Barchinoy Qalmoq elidagi taloto‘plarni xat orqali Alpomishga etkazadi. Bu xatni Alpomishning otasi Boybo‘ri atay berkitib qo‘yadi. YOlg‘iz o‘g‘lim or talashib, yot ellarda sarson bo‘lmasin, degan istak uni shunday qilishga undaydi. Alpomishning singlisi esa xatni topib olib, akasiga etkazadi. SHu vatqlarda Hakimbek – Alpomish o‘n to‘rt yoshga kirgan, mast bo‘lgan norday ko‘pik sochib o‘tirgan, necha mahramlar xizmatida turgan bir palla edi. Xatni o‘qib, Olti oychalik yo‘lda bo‘lsa, qalmoqning elida bo‘lsa, zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa, bir xotin olamiz, deb sandiraqlab o‘lamizmi, deb xatni tizzasining ostiga bosib o‘tiradi. Ha, Alpomishning bahodirligiga ta’rif yo‘q, kuch-qudratli bo‘lsada, 14 yashar bo‘z yigit edi. U harbiy ilmni mukammal o‘zlashtirganu, lekin diydasi

qattiq, erka o'sgan bir to'ra edi. Uning ongida hali Vatanparvarlik tuyg'usi to'kis shakllanib ulgurmagandi, ya'ni Vatanni himoya qilish deganda, faqatgina uni yog'iylardan asrab-avaylashni tushunuvchi yovqur bahodir edi. Aqli, ziyrak singil bu pahlavon akasining oriyatini qo'zg'ash, olisdagi qondoshini himoyalash maqsadida uning jig'iga tegadi:

Aka, ayting so'zim og'ir olmagan,
Nar-moda ishini bunda qilmagan.
Bu ishdan bexabar bo'lib turmagan,
Sen bormasang, yoring qalmoq oladi.

Mazkur mislaralar ikki jihat bilan e'tiborni tortadi. Qaldirg'och tomonidan Hakimbekning oriyatini qo'zg'atish birinchi jihat bo'lsa, ayolga, pirovardida Vatanga qanday munosabatda bo'lish kerakligini zardali ohangda aytganidir. SHuningdek, asarda vatanparvarlik g'oyasini Alpomishni Barchinga tug'ilajak farzandi eshitishi kerak bo'lган ilk so'zni quyidagicha aytib turganidan ham bilishimiz mumkin:

Olmada ko'p erur ibora,
Bir so'z bor og'riqdan iborat.
U - Vatan! Barchinim, u - Vatan!
Bolamga "Vatan" de ilk bora.
So'zlagin eng yuksak tilakdan,
Bo'taday bo'zlagan yurakdan.
"Vatan" de... Bolamning qoniga
Oqiblar kirsin u ko'krakdan..."

Xalq og'zaki ijodi – milliy g'oya negizi

Xalq og'zaki ijodi tarkibidan keng o'rin olgan dostonlar, folklorlar, matal va maqollar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, uning qalbi misol mehridaryo va jonbaxshdir. YUrtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari, momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh allayu, olqishlar mavjud. Xalq an'analari va marosimlari jo bo'lган asriy qadriyatlar, ma'naviyat ko'zgusiga aylangan folklor

ijrochilarining ko‘p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida poetik jihatdan sayqallanib, barkamollahib kelgan. Bamisoli kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an’analarini chuqur o‘rganish milliy qadriyatlarimiz moxiyatini yanada teranroq anglash, tushunish imkonini beradi.

O‘zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o‘yinlar, mavsumiy va kasb-xunar marosimlari alohida o‘rinni egallaydi. Bayramlar va marosimlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oluvchi va kishilar o‘zaro munosabatlarining turli jihatlari va shakllarida namoyon bo‘luvchi muayyan urf-odatlar va an’analar, axloqiy prinsiplar va huquqiy tartibotlarning tarixan shakllangan yig‘indisidir.

O‘zbekiston xalklarining tarix sinovidan o‘tgan bayram va marosimlari kishilarning o‘zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks eggiradi. Bunday an’ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma’naviyatining qadimiy ildizlari xam namoyon bo‘ladi. Asrlar davomida shakllanib va riyujlantirib xalq og‘zaki ijodida Vatanga sadoqat, yoshi kattalarga hurmat, ota-onaga, etimlarga va qariyalarga g‘amxo‘rlik, mehmondo‘stlik, qon-qarindoshlik va o‘zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha’nini ehtiyoitlash, hayotdan ko‘z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yod etish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar mujassamlashgan.

Ajdodlar tomonidan yaratilib, xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an’ana va urf-odatlar bevosita, folklor san’atida ifodasini topgan. Bugungi kunda folklor san’atining serjilo chamanlari rivojlanib gurkirab milliy mustaqilligimiz tufayli xalqimizning milliy ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori, ma’naviy dunyosini kundankunga boyitib bormokda. Milliy ruhning, milliy g‘urur, milliy tuyg‘uning tiklanishi - bu rivojlanish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayondir Milliy folklor san’ati an’analarini rivojlantirib ularni yosh avlod turmush tarziga singdirish ana shu jarayonning muhim qirrasidir

Folklor san'ati xalq og'zaki badiiy ijodi durdonalaridan biridir. Bu durdonalar folklor-etnografik jamoalari dasturidan alohida joy olgan. Xalkning turmush tarziga hamohang qo'shiq va laparlar, o'lan va alla, aytimlar va olqishlar, aliyoru-gulyorlar, aytishuv va yor-yorlarning barchasi mujassamlangan holatda o'ziga xos xalq odobnomasini tashkil etadi. Bu odobnomalar millat ruhiyatini ko'taruvchi, asrlar bo'yи ajdodlar xotirasida muhrlanib kelayotgan milliy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Folklor san'ati merosi o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyiliги bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. U millat qalbida ezgu niyat va ulug' maqsadlarga intilish, e'tiqod va orzu-armonlarini uyg'otadi. SHuning uchun ham folklor san'ati xalqlarning barcha orzu-armonlarini iymonu-e'tiqodini, toza ruhi va xotirasini, jamiyatning yaxshi niyatlar aks etgan qadimiy an'analarni o'zida jamuljam etib, kishilar hayotiga qat'iy singib ketganligi bilan ardoqlidir.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, mehr va muruvvat tushunchalarini yanada mustaxkamlashda folklor-etnografik jamoalari dasturidan foydalanish ijobiy samara beradi. Masalan, «Boysun» folklor jamoasi «Oblo baraka» (ya'ni oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish va xirmon ko'tarish marosimi), «Don sepdi», «Navro'zi olam», «Lola sayli», «SHoh moylar», (dalaga birinchi qo'sh chiqarish marosimi), «Xo'p mayda» (g'allani yanchish bilan bog'liq udum), «Turna keldi», «Xosil bayrami», «Boysuncha yor-yor», «O'tin yorish», «Ota sinov» (nikoh to'yi bilan bog'liq udum), Navoiy viloyatidagi «YOr-yor», «Kokil to'yi», bolani birinchi marta sochini olish bilan bog'liq dasturi, Andijon viloyatidan «Bedana», Samarqanddag'i «Beshqarsak» folklor-etnografik jamoasining tayyorlagan sunnat to'yi, Abdulla Qodiriy nomli Toshkent Davlat madaniyat institutidagi «CHashma» folklor jamoasi tayyorlagan chaqaloqni poklik suviga olish, qulog'iga azon aytish, avlodlar shajarasi, guldur-guplar, sanamalar, barhayot an'analar, baxt sinovi dasturi, Jizzax viloyatidagi «Gashtak» jamoasi tayerlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'qqiz to'y» an'anaviy udumi, Toshkent viloyatidagi «To'rg'ay» jamoasi tayerlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'sh qaytarar», «Xorazm»

folklor jamoasining nikoh to‘yi bilan bog‘liq. «Non yopdi», «Lachak to‘yi» ana shunday qadimiy ma’naviy qadriyatlar silsilasi bo‘lmish mehr-muruvvatni tarannum etuvchi an’ana va marosimlarimizni saqlanib qolishida o‘z hissalarini qo‘sghanliklari bilan muhim ahamiyatga molikdir.

Buxorodagi «Qasri orifon» folklor-etnografik jamoasi repertuarida Navro‘z sayli bilan bog‘liq ko‘k somsa tayerlash udumi o‘z ifodasini topgan. Momolar sahnaga o‘hlov, elak, supra, hamir qoradigan tog‘ora olib chiqib yosh kelinchak va qizlarga ko‘k somsa tayyorlash jarayonini ko‘rsatib borishadi. Jamoaning boshqa a’zolari qo‘shiq kuylashadi.

Gul lolalar ochilsin,

Elu yurtga sochilsin,

Doim tinch zamon bo‘lsin,

Elu yurt omon bo‘lsin.

Xichi tering, qoqi tering, ko‘k somsalar pishiring,

Suprachada dumalangan somsa onamdan aylanay,

Suprachada dumalangan qoqi xolamdan aylanay,

Suprachada dumalangan xichi momomdan aylanay,

Navro‘z keldi, qut keldi, doshqozonlar osildi,

Navro‘z go‘ja, kuk somsa, sumalaklar suzildi.

Boshlarida oq ro‘mol, elga tilab omonlik,

Momolar dili shodon, murodi xosil bo‘ldi.

Folklor-etnografik jamoalari o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy an’analarini, og‘zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga saykal berib xalqning o‘ziga qaytarishda jonbozlik ko‘rsatmokdalar.

Toshkent shahridagi «Gavhar» folklor-etnografik jamoasi dasturidan joy olgan «Bolangizga alla ayting onalar» mavzuidagi dasturida mehr-muruvvat tushunchasini ona allasi orqali namoyon bo‘lishi tasvirlangan.

Ona buyuk avlod-ajdodlarimizning ulug‘ sifatlarini davom ettirguvchidir. «Alla» ona mehridan yo‘g‘rilgan mayin yurak sadodir. Bu sado shu qadar serjilo va sermazmun-ki, uning ta’rifiga so‘z ojizdir. Nolada bu dunyodagi eng nozik

his-tuyg‘ular, ezgu tilaklar mujassam. CHunki, faqat ona allasigina jajji chaqaloqning qalbiga mehr-muruvvat, muhabbat, oqibat, iymon va insof tuyg‘ularini joylaydi.

Qora qoshim qunduzim, Ko‘zi tongday yulduzim,

Izlab-izlab topganim, Mexr qo‘yib bokqanim.

Alla bolam, allayo, Qo‘zichog‘im allayo.

Tol ichidan tanlab olgan Toli chovqirim bolam,

Gul ichidan xidlab olgan Guli rayhonim bolam

Alla bolam, allayo, Qo‘zichog‘im allayo.

O‘g‘lisan ozod yurtning Bag‘ri gul, obod yurtning

Onaginang orzusidir Bersin yurtim iqbolini

Alla bolam, allayo, Qo‘zichog‘im allayo.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida faoliyat olib borayotgan «Boysun» folklor-etnografik jamoasi repertuaridagi «Vatan» qo‘shig‘ida har qatra tuprog‘i muqaddas bo‘lgan ona yurt mehri jo‘shib kuylanadi. Xalqimizda «Yordan ayrilgan yomon ammo, lekin Vatandan ayrilgan hammasidan ham yomon», - degan naql bor. Vatan sog‘inchi, yurtdan ayriliq azobi o‘lim bilan barobardir:

Tuprog‘ingdan bir xovuch, Bo‘ynimda tumordir Vatan.

Sen yiroq bo‘lsang ko‘zim yosh, Ko‘ngil ham zordir Vatan.

Biz uchun o‘zga Vatan yo‘q, Sen bizga jonsan Vatan.

Bu keng olam uzra tanho, O‘zbekistonsan Vatan.

Dildan ayrilgan yomondir, Qo‘ldan ayrilgan yomon.

Barchasidan eng yomon, YUrtdan ayrilgan yomon.

Mazkur qo‘shiq aslida professional qo‘shiqchilarimiz, mashhur hofizlarimiz tomonidan ijro etilgan va elga manzur bo‘lgan. Lekin shu qo‘shiqning folklor-etnografik jamoasi repertuariga o‘tishi, birinchidan, mazkur qo‘shiqning xalq orasida g‘oyat keng ommalashganligini, vatan mehrini har bir yurakka jo etadigan bu misralar xalq diliga chuqur o‘rnashib olganligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, folklor-etnografik dostonlarning repertuari faqat an’anaviy xalq qo‘shiqlari hisobigagina

emas, balki muallifi ma'lum bo'lgan, ya'ni muayyan bir muallif tomonidan tuzilib, keyinchalik xalq orasida mashxur bo'lib ketgan asarlar xisobiga ham boyib bormoqda.

Ma'lumki, yurtimizda g'alla mustaqilligiga erishilgan bo'lib, mamlakatimiz barcha viloyatlarida boshoqli ekinlardan mo'l hosil etishtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Sirdaryo viloyati Guliston tuman «Sayxun yigitlari» folklor-etnografik jamoasi dehqonlarimiz dalalariga baraka yog'ishini:

Ot Yili keldi yurtimga,
Qutlug' salomi bilan,
Qadami xalqqa yoqsin,
Ombori donga to'lsin.

**Milliy g'oyada xalq og'zaki
ijodining manbalari va
ko'rinishlari**

Keyingi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib boruvchi folklor-etnografik jamoalari faoliyatida yuksak insoniy fazilat bo'lmish mehr-muruvvatni aks ettiruvchi folklor sahna ko'rinishlari ko'payib bormokda.

O'zbek folklor san'atini yoshlar shuuriga singdirishda faol mehnat qilayotgan: «Bo'ston», «YOr-yor», «Hazrati bob» (Namangan viloyati), «Omonyor», «CHodir jamol» (Farg'ona viloyati), «Bedana», «Zilol» (Andijon viloyati), «Gulyor», «To'rg'ay», «Zarrin YAproqlar» (Toshkent viloyati), «Nozanine», «Mohi Sitora», «Afshona», «Mardona», «Qasri Orifon» (Buxoro viloyati), «CHavqi», «Beshqarsak», «Sarbozi» (Samarqand), «Gashtak», «Zeboixon», «Zotin Sayqali» (Jizzax viloyati), «Orozibon», «Xorazm», «Doston» (Xorazm viloyati), «Boysun», «Bulbuligo'yo», «Zevari», «Bilak uzuk» (Surxondaryo vshuyuyati), «Momogul», «Hilola» (Qashqadaryo viloyati), «YOr-yor», «Keskanterak» (Navoiy viloyati), «Navhar» (Toshkent shahri), «Jayhun to'lqini» (Qoraqalpog'iston Respublikasi) kabi dostonlar o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy udumlari bo'lmish mehr-sahovat, mexr-shafqat kabi oliv himmat qadriyatlarini ommalashtirishda, komil insonlarni tarbiyalashda, qadriyatlarimizni yoshlar turmush tarziga singdirishda, ajdodlar merosini avlodlarga etkazishda

barakali va xayrli ijod qilib, o‘z ijodlarini turfa xil ko‘rinishlarda namoyon qilmokdalar.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash keraki, hozirda radio, televidiniyada uzatilayotgan musiqa, qo‘siklar, eshittirishlar, ko‘rsatuvlarning mazmuni nihoyat sayoz bo‘lgani tufayli yoshlar engil-elpi hayotga moyil bo‘lmoqdalar. Ba’zi yoshlar o‘zbek milliy an’analariga amal qilishni o‘zlariga or biladilar. Hatto, o‘z ona tillarida so‘zlashni yoqtirmaydiganlari xam uchrab turadi. Mumtoz janrlarimizning ayrimlarini bilgan holda boshqalarining nomlarini, asarlarini so‘rasangiz yoki falon marosimni bilasizmi deya so‘rasangiz, elka qisib eshitmagan ekanman deb qo‘yishadi. Afsusu-nadomatlar bilan aytish lozimki, jamiyatimizda bunday holatlar mavjud.

Bugungi davr talabidan kelib chiqib, mustaxkam bilim, milliy qadriyat, ma’naviy barkamollik, umrboqiy an’analar va ajdodlar ta’limotini yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirishda folklor san’atidan foydalanish, maxsus dastur darslik va qo‘llanmalar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Folklor san’atini kollejlar, musiqa maktablari, san’at oliy o‘quv-yurtlarida maxsus kurs sifatida o‘qitilishi yoshlarning milliy g‘ururini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi

Xalq o‘z qo‘sish va dostonlarini ko‘z qorachig‘idek asrab, ajdodlardan avlodlarga boy xazinani qoldirib kelgan. Totalitar tuzum mafkurasi ham xalqimizning boy xazinasidan bebahra etishga qanchalar urinsa-da, biroq bu o‘lmas meros honuzgacha xalqimizning qalbidan chuqur joy olib, mustaqillik sharofati, milliy g‘oyamizning tarixiy ildizlari sifatida yanada barq urib, ko‘kka bo‘y cho‘zmoqda. Bugun xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalari YUNESKO tomonidan ro‘yxatga olinib, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgani har bir yurtdoshimizning qalbida milliy g‘urur va iftihor tuyg‘usini uyg‘otadi.

Ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali yosh avlod ongi va qalbiga Milliy g‘oyani singdirish muhim va samarali ta’sir ko‘rsatidi. CHunki,

Birinchidan, xalq og‘zaki ijodi xalkimizning urf-odatlari, e’tiqodi va umuminsoniy qadriyatlarini o‘zida namoyon etadi.

Ikkinchidan, xalq og‘zaki ijodi yosh avlodni xalqimizning qadimiyan’analarini tiklash va takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlar, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e’zozlashga chaqiradi

Uchinchidan, xalq og‘zaki ijodi shu xalkning takrorlanmas ma’naviy-madaniy merosi bo‘lmish udumlarini, marosim va rasm-rusumlarining o‘ziga xos xususiyatlarini turfa xil ko‘rinishlarda namoyon etadi.

To‘rtinchidan, xalq og‘zaki ijodi orqali marosimlar, qo’shiqlar, rasm-rusumlar yoshlarni - ona diyorimizning muqaddas an’analariga sodiq qolish, uni e’zozlashni ibrat qilib ko‘rsatishlari ahamiyatga molikdir. SHuningdek, Vatanimizning boy ma’naviyatini ko‘z qorachig‘iday saqlash - eng yuksak axloqiy fazilatlar, umuminsoniy xususiyatlar ekanligini uqtirib, murg‘ak qalblarga bugungi kunda O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlayotgan xalqimizga munosib farzandlar bo‘lish, hurmat va ehtirom tuyg‘ularini ko‘rsatish kerakligini namoyon etadi.

O‘zbekning o‘ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatini ifoda etuvchi xalq og‘zaki ijodi milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardan biridir.

Tayanch tushunchalar: Xalq og‘zaki ijodi, xalq dostoni, baxshi, milliy ruh, milliy g‘urur, milliy tuyg‘u, madaniy meros, bayramlar, ommaviy o‘yinlar, mavsumiy va kasb-xunar marosimlar, folklor san’at, millat, marosim, rasm-rusum

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Xalq og‘zaki ijodi tushunchasining mazmuni va uning ko‘rinishlari
2. Xalq og‘zaki ijodining Milliy g‘oyani shakllanitirishdagi roli.
3. Xalq og‘zaki ijodi orqali Milliy g‘oyani targ‘ib etishning o‘ziga xosligi.
4. Xalq og‘zaki ijodining qanday namunalarini bilasiz?
5. Doston va folklorlarda milliy g‘oya targ‘ibotining hozirgi kundagi ko‘rinishlari.

13-mavzu: Milliy g‘oya targ‘ibotida milliy-madaniy markazlarning o‘rnini va roli

Reja:

1. Milliy madaniy markazlar tushunchasi va mazmun-mohiyati
2. Milliy-madaniy markazlar millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili
3. Milliy-madaniy markazlarda millatlararo bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarining mushtarakligi

Milliy madaniy markazlar tushunchasi va mazmun-mohiyati

O‘zbekiston - ko‘p millatli mamlakat. Bugun uning xududida 137 ta millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimiz Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov raxbarligida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka, O‘zbekiston xududida yashayotgan barcha halqlar o‘rtasidagi do‘stlikni yanada mustaxkamlashga qaratilgan milliy siesat ishlab chiqildi.

1992 yilda tashkil etilgan Baynalminal madaniyat markazi mamlakatimiz raxbariyatining millatlararo munosabatlarga bo‘lgan e’tibori va g‘amho‘rligi nishonasidir. Xozirgi paytda u O‘zbekiston xududida faoliyat olib borayotgan 150 ga yaqin milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirmoqda, ularga tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatmoqda.

Bugun mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari Konstitutsiya va mustaqil O‘zbekiston qonunlarida belgilab qo‘yilgan tengxuquqlilik va keng imkoniyatlardan foydalaniib, totuvlik va xamjixatlikda yashamoqdalar, Vatanimizning gullab-yashnashiga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shmoqdalar. O‘zbekistondagi milliy-madaniy markazlar - mamlakatda yashovchi muayyan millat vakillarining milliy-madaniy extiyojlarini qondirishga hizmat qiluvchi jamoat tashkilotlaridir.

Respublika milliy madaniyat markazlari:

Respublika ozarbayjon milliy madaniyat markazi

Koreys milliy madaniyat markazlari assotsiyasi

Arman milliy madaniyat markazi
YAhudiyalar milliy madaniyat markazi
Qozoq milliy madaniyat markazi
Qirg‘iz milliy madaniyat markaz
"WIEDERBURT" nemislar madaniyat markazi
Polyak madaniyat markazi "Svetlica Polska"
Rus madaniyat markazi
Tojik milliy madaniyat markazi
Respublika turk milliy madaniyat markazi
Respublika turkman madaniyat markazi
Uyg‘ur milliy madaniyat markazi
"Slavutich" respublika ukrain madaniyat markazi
Toshkent shahar milliy madaniyat markazlari:
"Gardashliq" Ozarbayjon milliy madaniyat markazi
Arman milliy madaniy markazi
Zaki Validi nomidagi Boshqird madaniyat markazi
Belorus madaniyat markazi
Bolgar madaniyat markazi
"Simho" Buhoro-yahudiy madaniyat markazi
Grek madaniyati jamiyati
Gruzin madaniyat markazi
Dungan madaniyat markazi
YAhudiy jamoaviy madaniyat markazi
Qozoq milliy madaniyat markazi
Koreys milliy madaniyat markazi
Xitoy milliy madaniyat markazi
Qrim tatarlar milliy madaniyat markazi
Tatar madaniy-ma’rifiy markazi
"Oriyono" tojik madaniyati markazi
Litva madaniyat markazi

Turkman madaniyat markazi

Uyg‘ur madaniyat markazi

Markaz huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyat ko‘rsatadi, u milliy madaniyat markazlari, manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari, jamoatchilik va ijodiy tashkilotlar rahbarlaridan, millatlararo munosabatlar muammolari bo‘yicha mutaxassislardan tuziladi. Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibi va Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Markazning Jamoatchilik kengashi:

millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga, Markaz ishlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda qatnashadi;

Markaz tomonidan madaniyat markazlari bilan birgalikda o‘tkaziladigan madaniy-ommaviy tadbirlar dasturlarini tasdiqlaydi;

madaniyat markazlari faoliyatini o‘rganish va ularning ijobiy ish tajribasini ommalashtirish uchun maxsus komissiyalar, ishchi guruhrar tuzadi, zaruriyat bo‘lganda madaniyat markazlariga o‘tkazilgan o‘rganishlar materiallarini ko‘rib chiqish va zarur chora-tadbirlar ko‘rish uchun kiritadi;

madaniyat markazlari rahbarlarining ular faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha axborotlarini eshitadi;

**Milliy-madaniy markazlar
millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili**

Millatlararo munosabatlar sohasida faoliyatni muvofiqlashtirishni yanada takomillashtirish, o‘sib

kelayotgan avlodni milliy mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, xalqlar o‘rtasida do‘stlikni mustahkamlash, O‘zbekistonda yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishiga ko‘maklashish, milliy madaniyat markazlarini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 8 aprelda “Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi 180-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq. Respublika baynalmilal madaniyat markazi to‘g‘risidagi Nizomning yangi tahriri hamda uning tuzilmasi tasdiqlandi.

Nizomga muvofiq Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta‘minlash, ularning o‘ziga xos madaniyatlari va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Nizomga amal qiladi va o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot berib boradi.

Markazning asosiy vazifalari:

tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, shuningdek jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo‘yicha ular faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

turdosh xorijiy tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatalishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko‘maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma’lumotlari bankini barpo etish;

millatlararo munosabatlar masalalariga tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etish;

madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko‘rsatish;

adliya organlaridan ro‘yxatdan o‘tishda madaniyat markazlari tomonidan kiritiladigan hujjatlar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo‘llab-quvvatlash masalalari bo‘yicha maslahatlar berish, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma’naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko‘rsatish, konferensiyalar, seminarlar va «davra suhbatlari» tashkil etish;

har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishga qaratilgan teleradio ko‘rsatuvalar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma’lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish;

madaniyat markazlarining faoliyati to‘g‘risida axborot-tahlil ishlarini yuritish va ushbu masala bo‘yicha zarur ma’lumotlar bankini barpo etishdan iborat.

Markaz quyidagi huquqlarga ega:

madaniyat markazlari o‘z faoliyatini amalga oshirishiga tashkiliy-metodik va amaliy yordam berish, ular ishini muvofiqlashtirish, ular tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirlarda qatnashish, masalalarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda hal etilishiga ko‘maklashish;

millatlararo munosabatlar masalalari bo‘yicha materiallarni ko‘rib chiqish va zarur chora-tadbirlar ko‘rish uchun boshqaruvning tarmoq va hududiy organlariga yuborish;

o‘z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan tegishli axborotni davlat organlari va boshqa organlardan, muassasalar, korxonalar va tashkilotlardan, madaniyat markazlaridan so‘rab olish;

o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengashlar va boshqa kengashlar, jamg‘armalar, komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etish;

xorijiy davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatxonalari bilan millatlararo munosabatlar masalalari bo‘yicha hamkorlikni amalga oshirish;

belgilangan tartibda matbuot organi ta’sis etishni nazarda tutilgan.

Davlatimiz rahbari SH.Mirzeyev Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvda so‘zlagan nutqida: “Ma’lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezbeglik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi” deb, - alohida ta’kidlaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topmoqda.

YUrtimizda hukm surayotgan do‘stlik va birdamlik muhiti – tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro maydonidagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir. Biz barchamiz mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning ana shu tom ma’nodagi bebahoh boyligimizni asrab-avaylash va mustahkamlash borasidagi xizmatlarini yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiyligi – O‘zbekistonimiz ravnaqi yo‘lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat

qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shamoqda.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda.

Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishiga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shamoqda.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib, amaliy va uslubiy yordam berayotgani alohida diqqatga sazovordir.

Markaz mamlakatimizning barcha hududlarida o'tkazilayotgan yorqin tadbirlari asosida madaniy va ijtimoiy hayotimizni yanada teran ma'no-mazmun bilan boyitmoqda, O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtaida do'stlik va bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamamoqda. MDH davlatlari o'rtaida faqat O'zbekistonda shunday tuzilma tashkil etilgani e'tiborga loyiqdir.

Bularning barchasi mamlakatimizda millatlararo munosabatlar sohasida nodavlat tashkilotlarning noyob tizimi shakllanganidan dalolat beradi. Ushbu tashkilotlarning serqirra faoliyati mamlakatimizda tinch va farovon hayotni ta'minlash, muhim madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal etish, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi vaqtida dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda.

Bu illatlar davlatni emirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘slik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Milliy-madaniy markazlarda millatlararo bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalalarining mushtarakligi

Milliy g‘oya negizlariga qat’iy amal qilish va uni targ‘iboti samaradorlikka erishish nuqtai nazaridan yondashganda hozirgi davrda yanada ogoh va sergak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir.

Biz faqat shu yo‘l bilan bugungi kunning barcha tahdid va xavf-xatarlariga samarali qarshi turishimiz, jamiyatimizda turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi qat’iy immunitet yaratishimiz, o‘zimiz tanlagan demokratik taraqqiyot yo‘lida yanada salmoqli natijalarga erishishimiz mumkin.

Biz o‘zimiz uchun eng muhim bo‘lgan ana shu masalaga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz, jumladan, milliy madaniy markazlar faoliyatini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha barcha ishlarni bajaramiz.

Milliy g‘oya targ‘ibotini amalgalashda milliy madaniy markazlar bilan fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorligida mamlakatimizda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni tashkil etish Respublika baynalmilal madaniyat markazining muhim yo‘nalishlarini tashkil qiladi.

Agar O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir milliy madaniy markazning faollari o‘zlarining tarixiy vatanlari bilan madaniy-gumanitar sohadagi

munosabatlarni yanada faol rivojlantirishga e'tibor qaratsa Respublika baynalmilal madaniyat markazi milliy g'oya targ'ibotini samaradorligini oshirishga o'z xissasini qushadi.

Bularning barchasi turli xalqlar madaniyatlarining bir-birini o'zaro boyitishiga, bizning ko'p millatli O'zbekistonimizning ma'naviy va madaniy hayotini yanada yorqin namoyon etishga xizmat qiladi.

Odamlarning dardu tashvishi, manfaatlarini o'ylab yashash, aholi uchun munosib sharoitlar yaratish, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin olishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Mustaqillik yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning yuzdan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Turli millatlar vakili bo'lgan 14 nafar fuqaromiz O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlanganini alohida ta'kidlash o'rinnlidir.

Milliy-madaniy markazlar tomonidan o'tkaziladigan tadbirlar turli millat vakillar o'rtaida o'zaro mehr-oqibatni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda turli millat va elatga mansub fuqarolarining ona tili, milliy an'analar, urf-odatlari, qadriyatlari va rasm-rusumlarining asrab-avaylanishi, ma'naviyati va madaniyatining rivojlanishi, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga alohida e'tibor berilishi Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlangan.

“O'zbekiston – umumiyligi uyimiz” do'stlik va madaniyat festivali hamda uning doirasida o'tadigan tadbirlar mamlakatimizda yashovchi turli millat va elat vakillarining birligi va jipsligini namoyon qilishga, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasidagi milliy-madaniy markazlar faoliyatining takomillashuviga xizmat qilmoqda.

Do'stlik va madaniyat Festivali uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Unda O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillarining professional va havaskor badiiy jamoalari (5-30 kishigacha) hamda yakkaxon ijrochilar, rassomlar, hunarmandlar, san'atshunoslar va faxriy mehmonlar qatnashadilar.

Festivalning asosiy maqsad va vazifalari:

- O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi turli millat va elat vakillarining boy madaniy-tarixiy merosini targ‘ib qilish, davlatimizning milliy siyosati samaralarini namoyish etish;
- milliy-madaniy markazlar huzuridagi badiiy havaskorlik jamoalarining ma’naviy va ijodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, ular tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarga, do‘slik bayramlariga turli millat va elat vakillarini kengroq jalgan etish;
- o‘sib kelayotgan avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalmilallik va milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- barcha millat va elat vakillarining ma’naviy boyishi hamda madaniy rivojlanishiga teng sharoit va imkoniyatlar yaratilganligini namoyish etish;
- Vatanimiz fani va madaniyati ravnaqida turli millat vakillarining hissasini o‘rganish va jamoatchilikka etkazish;
- kelajagi buyuk davlatimiz va uning bunyodkor, mehridaryo xalqini madh etuvchi, insonlar qalbida bag‘rikenglik tuyg‘ularini shakllantiruvchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari, sahna ko‘rinishlari va qo‘sishlar yaratilishiga keng imkoniyat berish;
- - milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirishning istiqbollarini aniqlashdan iborat.

Tayanch tushunchalar: Baynalminal madaniyat markazi, Milliy madaniy markazlar, umuminsoniy g‘oyalar, Millatlararo hamjihatlik, milliy madaniyat, an’ana va urf-odat, konfessiya, diniy tashkilot

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Milliy madaniy markazlarda milliy ma’naviy qadirylatlarni asrab-avaylash
2. Milliy madaniy markazlarda umuminsoniy g‘oyalarga sodiqlik va uning ko‘rnishlari
3. Millatlararo hamjihatlik va hamkorlikni mustahkamlashda milliy madaniyatlar sohasida o‘zaro tajriba almashishning ahamiyati.

14-mavzu: Globallashuv jarayonida yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirish texnologiyalari

Reja:

1. Globallashuvning turli xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liqligi hamda milliy g‘oyaga ehtiyojning zarurati
2. Milliy g‘oya targ‘ibotida yoshlarda milliy g‘oyaga dahldorlik hissi va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash
3. YOshlarni yot va zararli g‘oyalardan himoyalash shart-sharoitlari, omillari va texnologiyalari

Globallashuvning turli xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liqligi hamda milliy g‘oyaga ehtiyojning zarurati

“Global” tushunchasi lot. “Globus” — shar, Er sayyorasi ma’nosini anglatadi. Mamlakatimiz

Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda, shuni obektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘snilari, balki jahon miqyosida mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. SHu ma’noda, globallashuv-bu avvalo, hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir”⁵⁴ deb globallashuv jarayonini to‘laqonli ta’riflab bergenliklarini alohida ta’kidlash lozim. .XX asrning ikkinchi yarmi — XXI boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informatsion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayon. YA’ni, jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura,

⁵⁴ Каранг: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008, Б-111.

madaniyat, hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv jarayoni bilan bog‘lanmoqda.

1985 yilda taniqli amerikalik olim R.Robertson “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushuncha “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, “dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarining kuchayishini” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

XX asrning 70 yillarigacha dunyo mamlakatlarining iqtisodiy – ijtimoiy hamda siyosiy taraqqiyoti har bir davlatning o‘z hududi doirasidagi rivojlangan sur’atlari yoxud ularning o‘zaro munosabatlari darajasidan iborat jarayon sifatida talqin etilar edi.

Globallashuv davriga kelib esa taraqqiyot borasida o‘zgacha qarash voqeа hodisalarni makon va zamondan ajratmagan xolda, sinxron tarzda talqin etish tamoyili ko‘zga tashlana boshladi.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviyat salohiyatlari va siyosati bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmasdan turib, unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma’naviyatini shiddatli selning kuchiga boshqaruvchisiz qayiqni topshirish bilan barobardir. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi bevosita an’anaviy negizlarini asos qilib olgan holda, zamonaviylikni targ‘ib qilish va uni qabul qilish, uning mohiyatini keng ommaga etkazib berish bugun globalashuv jarayonlari avjiga mingan zamonda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, bu jarayonda har bir axborot va ma’lumotlarni etarli asoslab berishga qaratilishi jarayonni bir yo‘nalishda rivojlanishini ta’minlaydi. Turli ta’sirlarga moyil va qiziquvchan xususiyatga ega

va hali hayotning “achchiq” tajribalaridan bexabar yoshlarni chidamli, o‘z fikriga va dunyoqarashiga ega qilib tarbiyalash milliy g‘oya targ‘ibotining asosiy vazifalaridan biridir. Aynan yosh avlodimizni milliy g‘oyani asrovchilari va keyingi avlodga etkazuvchi ekanliklari bu jarayonni nechog‘lik muhim ekanligini yana bir bor isbotlab beradi. “Tabiiyki”, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, indivudalizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”.⁵⁵

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlari o‘tkazgan va o‘tkazayotgan tahlili bu sohada ishlar endigina boshlanganidan dalolat beradi. Globallashuv milliy ma’naviyatga ham ta’sirini o‘tkazadi. Buning uchun milliy ma’naviyatlar o‘zini asrab qolishi va global ta’sirlarga javob bera olishi uchun o‘zining hozirgi zamonda erishilayotgan yutuqlari bilan yanada boyitib borishi muhim ahamiyatga ega. Uning ta’siri kirib kelgan jamiyatning barcha sohalari tez bo‘lmasada, ammo asta sekinlik bilan bo‘lsada, o‘z “iz”larini qoldiradi. Bunday turdagи “ta’sirlar”ga eng beriluvchan, uni oldida hali zaifroq bo‘lgan kuch bu yoshlar hisoblanadi. SHulardan kelib chiqqan holda, globallashuv jarayonida turli g‘oya va mafkuralarni aynan yoshlar orqali “ko‘prik” sifatida foydalanishlariga yo‘l qo‘ymasliklari uchun, millatparvar, xalqchil, umuminsoniy tamoyillarga asoslangan milliy g‘oya asosida qurollantirish bugun ushbu masalaning qanchalik muhimlik darajasini belgilab beradi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati qo‘proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak va eng avvalo, yosh avlodni kelajakda davlatimizni tayanchi sifatida tarbiyalashga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz, globallashuvning mohiyati, yo‘nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni

⁵⁵ Карапг: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008, Б - 117.

chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilar uchun to‘g‘ri yo‘l tanlashi va qarorlar qabul qilinishi uchun imkoniyat yaratilishi mumkin.

Glaballashuv turli axborotlar, g‘oyalar, mafkuralar bilan uzviy bog‘liq. Glaballashuv va turli tazyiqlar «Axborot asri» deb atalagan XXI asrda biron-bir mamlakat yoki hududning taraqqiyotini faol axborot almashinuviz tasavvur etib bo‘lmaydi. Albatta, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida jamiyat muayyan shakl va hajmda axborot bilim almashinushi asosida rivojlanib kelgan. Globallashuvning salbiy ta’sirlari davlatning milliy statusini xavf ostiga qo‘ymoqda, milliy qadriyatlar va an’anaviy madaniyatlarni buzmoqda, hatto, oila hayotiga, insonning shaxsiy hayotiga ham kirib kemoqda.

YOshlarda axborot xavfsizlikni ta’minlovchi omillar:

- ❖ ta’lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, zero I.A.Karimov: «Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani ta’limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»⁵⁶- alohida bu jarayonga mazmun kasb etadi;
- ❖ yoshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni taqsimlash, mahsulot ishlab chiqarish mehnat bozorini engillashtirish muammolarini birin-ketin bartaraf etishi natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshib boradi;
- ❖ ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

Insoniyatning keyingi taraqqiyot yillari globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy ongi, yo‘naltiruvchi maqsadlari, qadriyatlari, hayotiy tushunchalari, dunyoqarashi va oxir-oqibat uning jamiyat bilan munosabatlarida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligiga bog‘liq. Globallashuv davrida:

- ❖ turli xil mafkuralar o‘rtasida kurash;
- ❖ ma’naviy tahdidlar;
- ❖ “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari;
- ❖ odam savdosi;

⁵⁶ Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008. 62-бет.

- ❖ diniy eksteremizm va halqaro terorizm;
- ❖ giyohvandlik, narkobiznes xavfi yanada kuchayadi. Bu mafkuraviy kurashlar mamlakatning geosiyosiy maqsadlariga qarshi yo'naltirilganligi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

SHuning uchun, ijtimoiy va gumanitar fanlar globallashuvining jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalariga ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Globallashuvning inson va postindustrial jamiyatlar hayotidagi o'rni hamda roli haqidagi alohida qarashlar shakllanmoqda. Globallashuv turli xil g'oya va mafkuralar bilan bog'liq. Unda ezgu, bunyodkor g'oyalarni hamda aksincha jaholatga undaydigan tajovuzkor, buzg'unchi g'oyalar ham mavjudligini hisobga olish lozim.

Bu jarayonlar inson tafakkuri va ma'naviy dunyosiga ta'siri masalasiga etarli darajada e'tibor berishni taqazo etadi. Globallashuv sharoitida inson tafakkuri va ma'naviy dunyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

- ❖ globallashuv shaxsni shakllantiruvchi jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalariga ta'sir o'tkazib, muayyan o'zgarishlarga olib keladi, an'anaviy qadriyatlar tizimiga ham turli xil ta'sir etishi mumkin;
- ❖ globallashuv ta'sirida ro'y bergan o'zgarishlar insonning ma'naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin va hozirgi zamon jamiyatining qiyofasini ham muayyan tarzda o'zgartiradi;
- ❖ globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, uning ta'sirida ijtimoiy va individual ongda destruktiv o'zgarishlar ham qayd etilgan. Bu holat individualizm, egoizm, egotsentrizm insonparvarlik tamoyillarining evrilishi, ahloqiy tushkunlik, hayotiy ayrim maqsadlar va tasavvurlarning buzilishi kabi hodisalarda namoyon bo'lmokda;

Globallashuv jarayoni milliy-ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un rivojlanishini taqazo etadi, aks holda ma'naviy tahdidlar kuchayadi.

“Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimizga va kelajagimizga tahdid”⁵⁷ ekanligini hisobga olishimiz lozim. Milliy g‘oya targ‘ibotida xalqimizning tabiatи, irodasi, orzu- intilishilarini ifodalaydigan quyidagi milliy-madaniy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- ❖ xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi;
- ❖ jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ❖ ota-onा, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;
- ❖ millatning ulmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat;
- ❖ kattaga - hurmat va kichikka - izzat;
- ❖ mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi – ayol zotiga ehtirom;
- ❖ sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- ❖ halollik, mehr-oqibat va hakazo.

Milliy g‘oya targ‘ibotida quyidagi umumbashariy qadriyatlar e’tirof etiladi va ulardan oziqlanadi:

- ❖ qonun ustuvorligi;
- ❖ inson haq-huquqlari va xurfikrlik;
- ❖ turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;
- ❖ diniy bag‘rikenglik;
- ❖ dunyoviy bilimlarga intilish, ma’rifatparvarlik;
- ❖ o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish va hakazo⁵⁸. Milliy g‘oya targ‘iboti vositalarining har biri o‘z yo‘nalishida: 1) milliy-madaniy merosga tayanishi uchun asrab-avaylash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi muhim; 2) Milliy-madaniy xususiyatlarni inkor etmagan holda, umumbashariy tamoyillarga sodiq qolgan holda targ‘ibot ishlarini olib borish milliy g‘oya maqsadlarini O‘zbekiston xalqining ishonch va e’tiqodiga, hayotiy

⁵⁷ Карап: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т. “Маънавият” 2008, Б-110-119.

⁵⁸ Карап: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар ва тамойиллар. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000, Б-49-50.

qadriyatiga aylanib borishiga xizmat qiladi. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarida bu uyg‘un tarzda doimo ifodasini topib borishi, mamlakatda Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishga xizmat qiladi.

Milliy g‘oya targ‘ibotida yoshlarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissi va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash

Demokratik jamiyatda xalqlar o‘z milliy g‘oyasiga tayanadi. Bu mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishning muxim shartidir.

SHuning uchun ham, yoshlarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlanirish taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. YOshlarning milliy g‘oyaga daxldorlik hissining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari, ta’lim-tarbiya tizimi, qadriyatlar tizimiga, har bir insonning ong va tafakkuri shakli, dunyoqarashi, hayotiy mo‘ljallariga bog‘liq bo‘ladi.

Insonning ulg‘ayishi, ijtimoiy hayotda o‘zining o‘rnini topishi, muayyan mavqeiga ega bo‘lishi, ayni paytda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarda ham o‘zaro o‘rnatilgan tartiblar, qabul qilingan qonunlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, yoshlarda mas’uliyat-daxldorlik hissini uyg‘otadi. Daxldorlikni anglash yuksak ma’naviyat mezoni sifatida namoyon bo‘lib, jamiyat oldida turgan maqsad-g‘oyalariga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning hal qiluvchi omili haqida gapirganda, avvalo odamlarimizning ongu tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, ularning yon-atrofdagi voqealarga munosabati, daxldorlik hissi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi tobora o‘sib borayotganini ta’kidlash lozim”⁵⁹ – deb unga alohida e’tiborni qaratdi.

Jamiyat hayotida “daxldorlik”, “daxldorlik hissi” tushunchalari o‘ziga xos mazmunga ega. “Daxlsizlik” tushunchasi esa “Inson hayoti”ning daxlsizligi yoki

⁵⁹ И.А.Каримов. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруzasи. “Халқ сўзи” газетаси. 2015 йил 8 декабр

unga daxl qilishga hech kimning haqqi yo‘qligini anglatadi. “Daxldorlik hissi” esa fuqaroning hayotiga, yon-atrofida sodir bo‘lgan yot voqealarga, insonlar hayotiga, muammolariga befarq bo‘lmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan insoniy tuyg‘udir.

Daxldorlik hissi fuqarolarning o‘zaro munosabatining ifodasidir. Ma’lumki, inson hayoti davomida daxldorlik hissini qanday sezishi, yon-atrofidagilarga munosabati shakllanib, o‘zgarib, rivojlanib boradi. Ulg‘ayib, voyaga etgan sari ijtimoiy makon xam unga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Daxldorlikni xis etish imkoniyatlari, unga ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lgan resurslar ko‘lami oshib boradi.

Dunyoda jamiyatning g‘oyaviy – mafkuraviy asosini o‘zgarishi bilan daxldorlik hissi, uning mazmuni va mohiyati ham o‘zgaradi. Bugun ongda milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillarini ijtimoiylashishi, o‘ziga xos transformatsiyalashishi jarayoni orqali kechmoqda. Mustaqillik ana shunday yangi imkoniyatni yaratdi. Bugungi kunda yakka, hukmron kommunistik g‘oya bilan bog‘liq maqsadlar, asosiy tushuncha va tamoyillaridan tubdan farq qiladigan milliy g‘oya maqsadlariga mos holda daxldorlikni his etish assoslari qaror topmoqda. YAngi g‘oyaviy maqsadlar, tushuncha va tamoyillar yoshlarda daxldorlikni yangicha idrok etish, bir-birlariga yangicha munosabatda bo‘lish, insonni qadrlash va unga eng oliv qadriyat sifatida qarash, daxldorlik hissining mazmunini, mohiyatini belgilab bermoqda.

Endi odamlar yon-atrofida bo‘layotgan voqea – hodisalarga va bir-birlariga nisbatan mavhum "Sinfiylik" tamoyili orqali emas, real hayotiy insoniy tamoyillar, mustaqillik talablari va maqsadlariga mos holda, voqelikni idrok etmoqdalar. Bu, insonlarning hayotiy maqsadlariga yangicha g‘oyaviy mazmun baxsh etadi. Ajdodlar merosini hurmat qilish, tarixiy xotira, madaniy yodgorliklar, milliya ma’naviy meros va qadriyatlarni o‘zining ma’naviy borlig‘idan o‘tkazgan holda, o‘zini-o‘zi asrab-avaylashga, avlodlarga etkazishda, uni yanada boyitib, rivojlantirib borishda fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissining mohiyatini yanada oshirmoqda. Daxldorlik hissi aloqadorlik, burch, ma’suliyat, inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq. Bu bir tomondan

insonning daxlsiz huquqlarini, ikkinchi tomondan, insonlararo munosabatda ularning bir-biriga nisbatan befarq bo‘lmaslikni, o‘zaro mas’uliyatli ekanini anglatadi.

Daxldorlik hissi, o‘zlikni anglash bilan ham uzviy bog‘liq. CHunki, o‘zlikni anglash xalqi, millatiga, madaniyatiga, ona tiliga, Vatanga bo‘lgan mansublik hissi bilan tutash va mushtarakdir. Hayotda, yoshlarning daxldorlik hissini idrok etishi har xil. Masalan: daxldorlik hissi yuqori; daxldorlik hissi o‘rtacha, daxldorlik hissi past yoshlar uchraydi. Bu ularning ma’naviy darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Bugun milliy g‘oyaga daxldorlik hissi quyi yoki past bo‘lgan ayrim kishilar va yoshlar uchraydi. Bu o‘ziga xos befarqlik, loqaydlik bilan bog‘liq qusurlardir. Bu yot va zararli g‘oyalarni farqlamaslik, tafakkur va hayotiy pozitsiyasini zaifligining ifodasidir. “Egotsentrizm”, “egoizm”, “Vatansizlik” g‘oyasi, xudbinlikning boshqa ko‘rinishlari milliy g‘oyaga daxldorlik hissini anglashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Hayot o‘zgarishlari bilan daxldorlik hissi o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odamlar bilan umumiyluhiyatda bo‘lish ma’naviy - ruhiy yaqinlikni shakllantiradi. YUksak ma’naviyatli yoshlarda daxldorlikni his etish madaniyati yuqori bo‘ladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi yuqori yoshlar yot g‘oyalarning jozibasiga uchmaydi. Ularga qarshi g‘oya bilan javob berish, mustaqil fikri yuqori bo‘ladi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi :1) Fuqarolikni his etish mas’uliyati va madaniyati bilan; 2) Vatanni anglash unga sodiqlik va vatanparvarlik bilan; 3) Milliy o‘zlikni anglash milliy ma’naviy meros va umuminsoniy demokratik qadriyatlarga sodiqlik tuyg‘ulari bilan; 4) Qonunni hurmat qilish; qonun ustuvorligi; adolat tamoyillariga tayanish; 5) Insonni e’zozlash, unga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish madaniyati ham daxldorlik hissi va madaniyatini oshiradi. Bu milliy g‘oya negizlari uyg‘unligida aniq namoyon bo‘ladi.

Bu insonni o‘zligini anglab olishga undaydi. Milliy va umuminsoniy ma’naviyatga daxldorlik hissi quyidagilarda o‘z aksini topadi: 1) Milliy ma’naviy merosni bilish; 2) Milliy ma’naviy merosni qadrlash; 3) Milliy ma’naviy merosni asrab-avaylash; 4) Milliy ma’naviy merosni yangilash; 5) Milliy ma’naviy

merosni boyitib borishga o‘zini mas’ul, daxldor deb bilish; 6) Umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, unga tayanish madaniyatidir.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi va fuqarolarning hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lishi uzviy aloqador va bir-birini taqazo etadi. Bu ichki va tashqi omillar bilan belgilaniladi. Ichki omillar – mamlakat ichkarisidagi ijtimoiy – ma’naviy muxit, yoshlarning ma’naviy salohiyati, ma’naviy darajasi, ta’lim – tarbiya, fuqarolik jamiyatini rivojlanishi, mamlakatni modernizatsiyalash demokratik islohotlarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi omillar – globallashuv, turli-xil g‘oyaviy – mafkuraviy kurashlar, ma’naviy tahdidlar, tinchlik va osoyishtalik uchun kurash, xavfsizlikni ta’minalash shart-sharoiti, omillari bilan aloqador. YOshlarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissi qancha oshib borsa, mamlakatni ichki va tashqi xavf – xatarlardan himoya qilish imkoniyati shuncha yuqori bo‘lib boradi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi yuqori bo‘lgan yoshlar turli-xil zararli g‘oyalarning ta’siriga tushmaydi, taqlid qilmaydi, g‘oyaviy – ma’naviy immuniteti yuqori bo‘ladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi – sotsial-g‘oyaviy tushunchagina emas, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy asosga va mazmunga ega tushunchadir. Bu turli millatga, yoshga mansub bo‘lgan kishilarning mamlakatda o‘zi yashaydigan Vatan, uni idrok etishda fuqarolikni anglashi, unga o‘zini mansub deb bilishi, o‘zligini Vatan tuprog‘i, davlat ramzlarini, shu Vatanda yashagan ajdodlarini yaratgan axloqiy - ma’naviy merosini va qadriyatlarni, urf-odat va an’analarini asrab-avaylashga, uni yanada boyitishga, rivojlantirishga daxldorlikni xis etishi orqali unga ko‘mak bo‘ladigan amaliy ishlarni bajarishi, mas’uliyati ularni kundalik real ishlarda aloxida daxldorlikka undaydi. Ular o‘zaro hamkor va hamjixatlik bilan Vatan uchun ishlashini daxldorlik burchi ekanligini amaliy ishlari bilan yanada mustaxkamlaydi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi ajdoddardan o‘tib kelayotgan milliy-ma’naviy meroslar bilan birga, umuminsoniyatning demokratik qadriyatlariiga, prinsiplariga nisbatan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi - Vatanga nisbatan aloxida ma’no va mazmunga ega. Vatanning yaxlitligini his etish, Vatan tuprog‘i va uni asrab-avaylash, uni har qanday ko‘rinishdagi yot g‘oya va maqsadlardan xalos qilishning

muhim sharti hisoblanadi. Daxldorlik hissi yoshlarni ong va tafakkurini yangilashga, Vatan taraqqiyoti yo‘lida mustaqillik tafakkuriga ega bo‘lish, yangiliklarni qabul qilish, yangi-yangi ixtiolar qilishga o‘zini undash, har bir kishi hayotining mazmuniga, maqsadiga va hayotiy mayliga aylangan bo‘lishi-taraqqiyotning talabidir. “O‘z uyingni o‘zing asra!” degan shior yurtimizda yashayotgan har qaysi insondan hamon uchrab turadigan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan xolos bo‘lishni, eng muhimi, yon atrofimizda bo‘layotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashashni bugungi kunda eng dolzarb masala sifatida oldimizga quymoqda⁶⁰. Bu Vatan taraqqiyoti yo‘lida tinchlikni asrab-avaylashni, qadrlashni va qadriga etishga, tinchlik uchun kurashga daxldorlik hissi doirasida namoyon etadi. Mamlakatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Daxldorlik hissi yoshlarni ezgu maqsadlar, g‘oyalar bilan yashashga undaydi. SHuning uchun daxldorlik hissini, ayrim tor doiradagi manfaatlar tizimi nuqtai-nazaridan emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, umuminsoniy demokratik qadriyatlar nuqtai-nazaridan keng anglash madaniyati insoniyatga, kelajakka xizmat qiladi. Bu turli xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasida ham o‘zaro bag‘rikenglikni, totuvlik va hamjixatlikni ta’minlashning muxim sharti xisoblanadi.

Milliy g‘oyani bilish, anglash uning targ‘iboti - tashviqoti orqali yoshlarda ishonch va e’tiqod yanada mustahkamlanadi. Ular daxldorlik hissi, Vatanga, ajdodlar merosiga, qadriyatlariga, davlat ramzlariga, o‘zligiga, madaniyatiga, tiliga daxldorlikni his etishi, qadriyatlar tizimini borlig‘i orqali idrok etishi muhim ahamiyatga ega. Undan tashqarida o‘zini his etmaydi. Bu Vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada oshiradi!

Milliy g‘oyaning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish bilan bog‘liq bosh g‘oyasi har bir kishining ozodlikka, Vatanning obod va farovon bo‘lishiga hissasini qo‘sishsga, erkin va farovon hayot qurishga bo‘lgan daxldorlik hissini shakllantiradi. Milliy g‘oyaning asosiy g‘oya va tamoyillari “Xalq

⁶⁰Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тинчлик ва осойишталик барча ютуқларимиз асоси” мавзусида сўзлаган нутки. “Халқ сўзи” газетаси. 2016 йил 9 май. 90-сон.

farovonligi”, “Vatan ravnaqi”, “Tinchlik”ni asrab-avaylash, “ijtimoiy hamkorlik”, “dinlararo bag‘rikenglik” va “millatlararo totuvlik”, “komil inson” g‘oyalari⁶¹ yoshlar hayotiga, ularning hayotiy maqsad va manfaatlariga, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ma’suliyat hissini, huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlashga, taraqqiyotga xizmat qiladi. Bugun mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti sohalarida erishilgan yutuqlarni yoshlarning milliy g‘oyaga daxldorlik hissi natijasi sifatida ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, birinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlikni anglash, taraqqiyotning muxim sharti bu milliy g‘oya maqsadlariga, asosiy tushuncha va tamoyillariga ishonch va e’tiqod bilan bog‘liq; ikkinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik, uning negizlariga milliy ma’naviy meros, qadriyatlarga, umuminsoniy demokratik prinsiplarga amal qilishni, unga mas’ullikni anglatadi; uchinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik, jamiyat mafkurasiga, O‘zbekistonda yashayotgan turli xalqlar, millatlarning, ajdod va avlodlarning hayotiy orzu-tilishlariga, maqsad va mayllariga bo‘lgan hurmat, uni asrab-avaylash, himoya qilish va yangilab, boyitib borishdir; to‘rtinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik - O‘zbekistonning istiqboli va kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish, ijtimoiy hayot rivojida yangi - yangi yutuqlariga erishish, mamlakatni modernizatsiyalash - yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdir; beshinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlikni his etish, uni o‘zining g‘oyasi, xalqi, millatning, jamiyatning g‘oyasi - maqsadlari sifatida idrok etishiga undaydi. Bu xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qiladi.

YOshlarni yot va zararli g‘oyalardan himoyalash shart-sharoitlari, omillari va texnologiyalari

YOshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, yot va zararli yooyalardan himoyalash hozirgi globallashuv davrida eng dolzarb muammolardan biridir. Immunitet –

lotincha “immunillare” so‘zidan olingan bo‘lib, biror narsadan xolos bo‘lish, qutulish degan ma’noni bildiradi. Inson butun hayoti davomida tashqi ta’sirga javoban aks sadolar sifatida ortirgan bilimlar va malakalari asosida o‘zida

⁶¹Миллий истиқтол ғояси: асосий тушунча ва тамоилилар. Ўзбекистон. – Т.: 2000

immunitet tizimini shakllantiradi⁶². Tashqi g‘oyaviy ta’sirlarga javob berish quvvati xavfsizlikni ta’minalash, turli-xil g‘oyaviy ta’sirlarga javob berish qobiliyati «mafkuraviy immunitet» darajasiga bog‘liq. YA’ni, ularning fikrni fikrdan farqlash, yot va zararli g‘oyalarga nisbatan, o‘zining aniq maqsadi, g‘oyasi bilan uni e’tirof etmaslik, unga nisbatan g‘oyaviy jihatdan javob bera olish salohiyatini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “YOshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”⁶³ lozimligi alohida ta’kidlanganligini qayd etish lozim.

YOshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning:
1) dunyoqarashini; 2) milliy g‘oya negizlariga hurmati, ishonch va e’tiqodi;
3) dunyoviy va diniy bilimlarga xabardorlik darajasiga bevosita bog‘liq. Bu, dunyoda mafkuraviy kurashlarning tuxtamayotganligi hamda uning markazida yoshlarning turganligi, sog‘lom fikrlaydigan, ezgulik va tinchlik tarafdoi bo‘lgan kuchlarni, ilmiy jamoatchilikni o‘ylashga, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga undamoqda.

Bu quyidagi omillar: 1) YOshlarning aholi tarkibidagi ulushi bilan; 2) YOshlarning dunyoqarashi, ong-tafakkurdagi o‘zgaruvchan xususiyatlari bilan; 3) YOshlarni murakkab ijtimoiy tuzilishga ega ekanligi bilan; 4) YOshlarning qiziqishi, maqsad va manfaatlarining xilma-xilligi bilan; 5) YOshlarni ijtimoiy guruh sifatida, ularning g‘oyaviy-mafkuraviy muljallarini, hayotiy fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan axborot makonidagi o‘zgarishlar ko‘lамини ortib borayotganligi bilan uзвиy bog‘liq.

Muammoga, tarixan yondashganda, turli davrlarda yoshlarga g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ularning ongini yot va zararli g‘oyalarning ta’sirida o‘z

⁶² Маънавият асосий тушунчалар изоҳли лугати. Фофор Ғулом. Т.: 2010. 292 б.

⁶³ Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга oid давлат сиёсати тўғрисида”ти Қонунининг 5-моддаси. Халқ сўзи. 2016 йил 15 сентябрь

manfaatlari tomon o‘zgartirishga, ulardan foydalangan holda mamlakatda tartibsizliklarni keltirib chiqarishga bo‘lgan urinishlar davom etmoqda. Ayrim yoshlarda bunday mafkuraviy kurashlarning ta’siriga tushib qolmoqda. Bular, hozirgi yoshlarning qaysi toifasi ekanligini va nima uchun ular yot g‘oyalarning ta’sirida ekanligini sabablarini quyidagicha tahlil etish mumkin. Ular: birinchidan, o‘zining mustaqil fikriga, qarashiga ega bo‘lmagan, milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodi sust bo‘lgan yoshlardir. Bunday yoshlar g‘oya bilan g‘oyaning farqiga borolmaydi. Soxta, yolg‘on g‘oyalarga ishonadi, ergashadi. Ikkinchidan, hayotdan yashashdan maqsadni, “qaerda yashash yaxshi” bo‘lsa, shu erni “Vatan” deb hisoblaydigan ayrim yoshlardir. Bu ham amalda “Kosmopolitizm” g‘oyasi, “Vatansizlik” mafkurasini yoshlar ongiga singdirish orqali, ularni ona – Vatanga bo‘lgan mehr-muxabbatini, sadoqatini zaiflashtirishni maqsad qilib, ularning mafkuraviy immunitetlarini zaiflashtirishga urinadilar, tug‘ilib o‘sgan Vatanlariga, ijtimoiy hayot sohalarida erishayotgan yutuqlarni bir tomonlama baholash, yutuqlarni xolisona ko‘rmaslik kayfiyatini shakllantirishga harakat qiladilar. Uchinchidan, yoshlarning milliy-ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini o‘zgartirishga bo‘ladigan ayrim xolatlar ularning mafkuraviy immunitetini zaiflashtirib, shu orqali demokratianing “yakkayu-yagona” modelini targ‘ib etish va unga moyil ayrim yoshlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq mafkuraviy maqsadlarni ko‘zlamoqdalar.

YOshlar uni farqiga borishlari uchun ham, o‘z fikriga, g‘oyasiga ega bo‘lishlari “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan”⁶⁴ javob bera oladigan yuksak ma’naviyatga ega bo‘lishlari muhim. Zero, yuksak ma’naviyatli yoshlar mafkurasiga hech kim dahl qila olmaydi.

Buning uchun yoshlar: ilm-fan sirlarini qunt bilan egallashlari, unga sodiq holda o‘rganishlari muhim. Ilm o‘rganmoqlik to‘g‘risidagi muborak xadislarga amal qilishlari, ularni ma’rifat sari etaklaydi, ayrim yot va zararli, buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siridan ta’siridan himoya qiladi.

⁶⁴ И.А.Каримов Юксак маънавият – енгилмас куч. Ўзбекистон. Т.: 2008.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, birinchidan, mustaqallik O‘zbekiston yoshlari hayotida buyuk istiqbollarni ochdi. Ularni hayotda o‘z o‘rinlariga, ijtimoiy mavqega ega bo‘lishlari uchun etarli shart-sharoit yaratildi. YOshlarni undan oqilona foydalanishlari uni kafolatlaydi. Ikkinchidan, yoshlar mamlakatning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishda muhim strategik kuchdir. Unga qarshi qaratilgan har xil mafkuraviy tazyiqlarga javob bera olishlari uchun ham kuchli bilim va tafakkurga ega bo‘lishlari lozim. “Tafakkurdagi va bilimdagi zaiflik” (A.N.Farobi) esa yot va zararli g‘oyalarning ta’sirini o‘tkazish uchun o‘ziga xos “darcha”dir. Uchinchidan, yoshlarning OAV dan, axborot kommunikatsiya tizimi, internet orqali turli-xil “ijtimoiy tarmoqlar”dan foydalanishda ijtimoiy ma’suliyatni va madaniyatni yanada oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarga keng jamoatchilikning e’tiborini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchidan, yoshlarning mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash maqsadida ularning milliy g‘oyaga dahldorlik hisssi yanada oshirish mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: Globallashuv, globallashuvni turli xil g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liqligi, “Mafkuraviy kurashlar”, axborot xurujlarning oldini olishda milliy g‘oyaning zarurligi, Milliy g‘oya, daxldorlik hissi, milliy g‘oyaga daxldorlik, milliy g‘oyani anglash shart-sharoitlari va omillari, milliy g‘oyaga daxldorlikni his etish; ajdodlar merosiga sodiqlik, tarixiy xotira, Vatanparvarlik, milliy g‘oya tushunchalarini ongda transformatsiyalashishi.

Mavzuni mustaxkamlash bo‘yicha topshiriqlar.

1. Globallashuv sharoitida turli mafkuraviy ko‘rinishlarni “Klaster” usulida tahlil qiling.
2. “Ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini milliy g‘oyaga zid tomonlarini asoslang.
3. YOt va zararli g‘oyalarga qarshi kurash va uning zararli oqibatlarini “aqliy xujum” usulidan foydalanib tahlil qiling.

15-mavzu. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari

Reja:

1. Inson – milliy g‘oya targ‘ibotining muhim omili
2. Milliy g‘oyani inson ongiga va qalbiga singdirish
3. Inson ongi va qalbi uchun kurashda axborot xavfsizligini ta’minlash texnologiyalari

Inson – milliy g‘oya targ‘ibotining muhim omili

Hozirgi davrda inson ongi va qalbi uchun kurash dunyoda turli mafkuraviy kurashlarning o‘ziga xos maqsadidir Milliy g‘oyaning targ‘ibotini amalga oshirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga erishish ko‘pgina omillar bilan uzviy aloqador bo‘ladi. Lekin, unda inson omili muhim, ustuvor ahamiyat kasb etadi va belgilovchi rol o‘ynaydi.

Inson ongi va qalbi uchun kurashda turli xil g‘oyalarning maqsadlari har xil ekanligini hisobga olish lozim. Inson ongi va qalbi uchun kurashdan kuzlangan maqsadni farqlash muhim ahamiyatga ega. Milliy g‘oya inson ongi va qalbiga uning maqsadlari bilan bog‘liq g‘oyalarni, tushuncha va tamoyillarni olib kirish orqali ularni bunyodkor maqsadlar sari yo‘naltirishni asosiy maqsad qilib quyadi. YOt va zararli g‘oyalar esa inson ongi va qalbi uchun kurashar jkan muayyan geosiyosiy mqsadlarni kuzda tutadi. Inson ongini tafakkurini bir tomonlama o‘zgartirish orqali unga ma’naviy jihatdan ta’sir ko‘rasitishni, “ongni boshqarishni” ko‘zlaydi. Uni ma’naviyatdan uzoqlashtirishga harakat qiladi.

Bunda “Milliy g‘oya” deganda “Milliy” so‘zining ma’nosini ikki jihat, darajasini hisobga olish. U, muayyan millatni va mamlakatni anglatishini nazarda tutish milliy g‘oyani to‘g‘ri tushunishga asos bo‘ladi. Milliy g‘oya – chuqr tarixiy, falsafiy negizga ega bo‘lib, xalqlarning o‘tmishi, bugunini va kelajakdagi maqsadlarini ifodalaydi. Ajdodlarni va avlodlarni bir-biri bilan bog‘lab turadi. Bunda har bir millat va xalqning milliy-madaniy merosi, uning umuminsoniy demokratik mohiyati mujassamlashadi.

Demak, milliy g‘oya ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan, mamlakatda ko‘pchilik tomondan e’tirof etilgan, ishonch va e’tiqodga aylangan g‘oya, tushunchalar, maqsadlar majmui sifatida qanday mazmun va mohiyat kasb etishi insonning: ma’naviy dunyosi, ijtimoiy qiyofasi, dunyoqarashi, ong va tafakkur shakli, hayotiy maqsad va mayllari, orzu –intilishlari orqali o‘zining ifodasini topadi. Mamlakatning milliy g‘oyasida mujassamlashadi. Inson esa muayyan xalq, millat etnik guruh yoki qatlamga mansub bo‘ladi.

“Milliy g‘oya targ‘iboti” esa ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan, har bir inson, xalq, millat, ijtimoiy guruh qatlamning mushtarak maqsad va manfaatlarini o‘zida ifoda etgan tushuncha, g‘oyalarni yangi avlod vakillariga targ‘ib, tashviqot etish orqali, ularni umumiy maqsad yo‘lida birlashtirish, safarbar etishga xizmat qiladigan inson ongi va qalbdan chuqur joy olishni nazarda tutadi ya’ni, insonlarni qalban uyg‘onishiga iymon-e’tiqodini butun bo‘lishiga, ona Vatan uchun o‘zining faoliyatni yo‘naltirishga va buni eng oliy saodatdir deb hisoblashga tegishli shartsharoit yaratadi.

“Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi” esa – ana shu maqsadga erishish yo‘llari, usullari, vositalari va undan foydalanish mahorati, layoqati hamda san’atidir.

SHuning uchun ham milliy g‘oyaning targ‘ibotida insonning “meni”ni hisobga olish lozim. Insonning “meni” qanday bo‘lsa, shunga mos xatti-xarakatlar, dunyoqarash, maqsad va mayllar, yurish-turish, o‘zaro muloqot orqali o‘ziga xos o‘zaro ta’sir muxiti yaratiladi. Milliy g‘oya targ‘ibotida shunchaki, ikkinchi darajali ko‘ringan xolatlar mavjud emas. Insonga xos barcha holatlar, albatta o‘zaro ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Insondagи bunday holatlar turfa xil bo‘lib, uni faqat “yaxshi” yoki “yomon” bo‘lishi mumkin emas. Ayrim insonlarda yaxshi fazilatlar ustuvor bo‘ladi. Bu uning ma’naviyat darajasi ongi va qalbiga xos xususiyatlar bilan bog‘liq. Bu uning mohiyatini tashkil etadi. Inson esa ma’naviy mavjudot. Inson ma’naviyat darajasining xilma-xilligi milliy g‘oyaning targ‘ibotida aks etadi. Ma’naviyati yuksak, o‘rtacha yoki quyi odamlarning milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rni bir xil darajada bo‘lmashligi tabiiy. SHuning uchun xam

“yuksak ma’naviyatli odamlarni tarbiyalash” milliy g‘oya maqsadlari bilan o‘zaro mushtarakligini doimo hisobga olish, unga milliy g‘oya targ‘ibotida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarasi nuqtai nazaridan e’tibor berish dolzarb va amaliy ahamiyatga ega. Bu bugungi global hayot, mafkura sohasidagi axborot xurujlarining kuchayishi, axborot ko‘lamining kengayib, turli-xil yot va zararli g‘oyalarning tarqalishini texnik imkoniyatlari, texnologiyalarini takomillashib borayotganligi bilan uzviy bog‘liq.

Milliy g‘oya targ‘ibotida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari, umummilliy va umuminsoniy darajada, uyg‘un holda har bir inson “meni” orqali amaliy namoyon bo‘ladi. Insonni milliy g‘oya bilan bog‘liq g‘oya va tushunchalarni qadrlashi va shunday tushuncha va g‘oya atrofida ular birlashgan bo‘lishi, hamkor, xamjihatlik orqali el-yurt, Vatan va insonlar oldidagi o‘zlarining burch va ma’suliyatlarini anglashlarini taqozo etadi. Bu O‘zbekistonning kelajagi, istiqboli bilan bog‘liq. Lekin insonning o‘zi uchun qanday tushuncha va g‘oyani (maqsadni) bayroq qilib olishi, unga ishonishi, e’tiqodli bo‘lishi murakkab jarayon bo‘lib, silliq ko‘chmaydi. Bu, qolaversa insonga uning go‘daklik davridan boshlab berilgan ta’lim-tarbiyasiga, oila, ota-onasiga, qarindosh-urug‘lar, mahalla, el-yurt tomonidan yo‘l qo‘yilgan ta’lim-tarbiya muxitiga, sifatiga, insonning kelajagiga, ajdodlardan o‘tib kelayotgan qadriyatlargaga ega bo‘lgani, qanday g‘oya va tushunchalarga ishonishiga, unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Insonni qadrlash, uning hayoti bilan bog‘liq g‘oya va tushunchalarni hurmat qilishi, insonning hayoti, uning daxlsizligi, erkinligi, sha’ni bilan bog‘liq qadriyatlarni avloddan avlodga etkazish, milliy g‘oya bilan bog‘liq maqsadlarni asrab - avaylashga xizmat qiladi. Inson insonni qadrlashi, milliy g‘oya targ‘ibotida oliy qadriyat deb bilish targ‘ibotning samarasini belgilaydi. Insonning ma’naviy dunyosiga ko‘p omillar ta’sir ko‘rsatadi. Hayotda uning o‘zaro uyg‘un bo‘lishi jamiyat rivojlanishining muhim qonuniyatidir. Bu ma’naviy va moddiy hayot sohalari unga bo‘lgan munosabat orqali kechadi. Insonlar esa har xil bo‘ladi. Ularning ayrimlari hayotlarida moddiy hayotni, ayrimlari esa ma’naviy omillarni ko‘proq qadrlaydilar. Ayni paytda shunday odamlar xam borki, hayotida har ikkala omilni

xam uyg‘un ko‘radilar. Birini ikkinchisidan ustun ko‘rmaydilar. Unga bunday qarash yoki yondashuv ham ularning ma’naviy olami, hayotiy ideallari orqali kechadi. Bu insonni hayotda milliy g‘oya maqsadlarini qanday anglashga bog‘liq bo‘ladi. Moddiy hayotga ustuvor qaragan odamning hayotiy ideallari bilan ma’naviy qadriyatlarni ustuvor baholagan odamlarning milliy g‘oya targ‘ibotidagi o‘rni, yondashuvi, munosabati bir-biridan farq qiladi. Milliy g‘oya targ‘ibotida “ma’naviy va moddiy hayotning uyg‘unligiga”⁶⁵ amal qilish muxim metodologik ahamiyatga ega. Bu hayot falsafasini, insonning moxiyatini, milliy g‘oyaning targ‘ibotini to‘g‘ri tushunishga va tashkil etishga yordam beradi. Ma’naviyatsiz kelajakni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Inson ma’naviyati orqali milliy g‘oyaning asosiy tushunchalarini, maqsadlarini to‘g‘ri tushunish va amaliy faoliyatda to‘g‘ri qo‘llash madaniyati hamda mas’uliyati yuksalib boradi. Inson milliy g‘oya targ‘ibotida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Insonning o‘rni: 1) Milliy g‘oya maqsadini avlodlarga etkazishda; 2) Milliy g‘oya tushunchalarini mazmun va mohiyatini to‘g‘ri anglashda; 3) Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishda; 4) OAV milliy g‘oya maqsadlariga mos tashkil etishda; 5) Milliy g‘oya xalqning milliy – ma’naviy merosi va qadriyatlarning negizlarini demokratik prinsiplarga mos targ‘ib etadi; 6) Umuminsoniy demokratik qadriyatlarni ijtimoiy hayotga to‘g‘ri tadbiq etish, undan to‘g‘ri foydalanish hamda amal qilishda insonning hayotiy qarashlari maqsadlarining xarakteri muxim ahamiyatga ega bo‘ladi. Buning uchun uning ma’naviy tarbiyasi to‘g‘ri bo‘lishi lozim.

Har bir inson milliy g‘oya targ‘ibotiga katta ijtimoiy – ma’nvviy ma’suliyat bilan qarash madaniyatiga ega bo‘lishi, unga daxldorlik xissini tuyishi lozim. Bu umummilliy va umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lib, insonning jamiyatdagi tegishli institatlardagi faoliyati orqali amalga oshadi. U: 1) Ta’lim-tarbiya; 2) Fan va ilmiy muassasalar; 3) Madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar; 4) Adabiyot va san’at; 5) Din; 6) Jismoniy tarbiya va sport; 7) Oila; 8) Mahalla; 9) Mehnat jamoalari; 10) Siyosiy partiyalar; 11) OAV va boshqa sohalarda faoliyat

⁶⁵ И.А.Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент. “Маънавият”. 2008, Б-65.

yuritayotgan har bir inson milliy g‘oyaning targ‘ibotiga alohida e’tibor berishi bevosita yoki bilvosita uning samarasiga ta’sir ko‘rsatadi⁶⁶.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning hal qiluvchi omili haqida gapirganda, avvalo odamlarimizning ongu tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, ularning yon-atrofdagi voqealarga munosabati, dahldorlik hissi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi tobora usib borayotganligini ta’kidlash lozim⁶⁷.

Insonning ma’naviy dunyosi yuksak fazilatlar, milliy g‘oyaning bosh g‘oyasi, g‘oyalari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur. Milliy g‘oya targ‘ibotida insonning: 1) So‘zi bilan ishi mos bo‘lishi; 2) Inson ibrat bo‘lishi; 3) Milliy g‘oyaning umumdemokratik g‘oyalari va prinsiplariga sodiq bo‘lishi; 4) Qonun ustuvorligiga amal qilishi; 5) Adolat tamoyili hayotiy mezonga aylanishi; 6) Insonga bo‘lgan ishonch va e’tiqod hayot tarzi tamoyili sifatida amal qilinishi milliy g‘oya targ‘iboti bilan bog‘liq, inson omili orqali mujassamlanadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotida insonlarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan ishonchi mustahkam bo‘lishi muxim. Bu insonni qadrlash, insoniylik, mehr – oqibatli bo‘lish, insonni to‘g‘ri tushunishga harakat qilish, yuksak ahloqli bo‘lishini taqazo etadi.

Hayotning ma’nosи, go‘zalligi xam inson bilan. SHuning uchun insonning o‘zi har tomonlama go‘zal, imon va e’tiqodli, ezgu maqsadli bo‘lishi lozim. Ular bir-birlariga o‘zaro mehrli, oqibatli bo‘lsalar, bu atrofdagilarga yuqori kayfiyat bag‘ishlaydi. Insonlarni yanada yuksak marralarga, maqsadlarga, tashabbuskorlikka, ijtimoiy faollikka undaydi. Bu ularning amaliy faoliyati natijalari bilan mamlakat taraqqiyotiga, erkin va faravon hayot qurish, ozod va obod Vatanda yashash,adolatli, demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish maqsadlari bilan oshno qiladi.

⁶⁶ Миллий истиқлол гоёси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2001, Б-62-69.

⁶⁷ И.А.Каримов. “Асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат” Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 23 йиллигига бағишиланган тадбирдаги маъruzаси. Халқ сўзи. 2015 й. 6 декабрь.

Milliy g‘oya targ‘ibotidan ko‘zlangan maqsad xam insonlarga xizmat qilish, ular uchun zarur shart-sharoit va yangi imkoniyatlar yaratadi. Natijada, inson faollashuvi o‘zi mansub bo‘lgan Vatan uchun, uning kelajagi uchun o‘zining iqtidori, salohiyatini safarbar etadi.

Milliy g‘oyaning targ‘iboti, faqat ta’lim orqali emas, undan tashqari kundalik hayot munosabatlarida, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot, xizmat ko‘rsatish sohalari orqali, jamoa joylarida ham amalga oshib boradi. Bu bevosita va bilvosita o‘zaro mafkuraviy targ‘ibot ta’sir kuchiga ega.

Milliy g‘oya targ‘ibotida inson omili ustuvor ahamiyatga ega ekanligini bizningcha yana quyidagi jihatlar orqali anglash mumkin :1) Bu milliy g‘oya targ‘ibotining maqsadi bilan bog‘liq. Unda inson eng oliv qadriyatdir. Targ‘ibot xam ana shu prinsipga mos bo‘lishni anglatadi. 2) Inson ongi va tafakkurining shakli qanday bo‘lsa, milliy g‘oya targ‘ibotida aks etadi. SHuning uchun xam insonning demokratik ong va tafakkurga ega bo‘lishi, ilmiylik, xolislik va haqiqat tamoyillarini hisobga olish muhim. 3) Inson muayyan ajdod va avlodlarga mansub bo‘ladi. Ajdoddardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ilg‘or g‘oyalar va maqsadlar o‘zining hayotiyligi bilan inson manfaatlariga mos keladi. 4) Insonning hayotiy maqsadlari, mayllarining mazmuni va xarakteri milliy g‘oya maqsadlari bilan uzviy bog‘liq. Ezgu maqsad va mayllarga oshno bo‘lish jamiyatning erkin va farovon bo‘lishiga, ezgu amallarni insonlar o‘rtasida keng tarqalishiga imkoniyat yaratadi. 5) Inson omili milliy g‘oya targ‘ibotining samaradorligiga erishishda muxim ekanligini anglatadi. Inson ijtimoiy hayotning qaysi sohasida faoliyat yuritmasin, milliy g‘oyaga bo‘lgan ishonch va e’tiqod asosida munosabatda bo‘lishi, milliy g‘oya negizlariga bo‘lgan hurmat, ularni birlashtirib turadi.

Milliy g‘oya targ‘ibotida inson omiliga talab oshib bormoqda. Bu har bir insonda: 1) yuksak ma’naviyat; 2) yuksak ma’suliyat bilan yondashish; 3) g‘oyalarning xilma-xilligin hisobga olish; 4) yot va zararli g‘oyalarga milliy g‘oya maqsadlari va tamoyillariga tayangan holda, g‘oya bilan javob berish; 5) jamiyatdagi g‘oyaviy-mafkuraviy o‘zgarishlarni hisobga olish; 6) milliy g‘oya targ‘ibotida milliy va umuminsoniy manfaatlarni uyg‘unligiga amal qilish; 7) davr

va zamon o‘zgarishlarini hisobga olish; 8) targ‘ibotni an’anaviy va zamonaviy holda tashkil etish; 9) targ‘ibotda zamonaviy texnologiyalardan maxorat bilan foydalinish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishni taqozo etmoqda.

Bu uzlusiz va davomiy jarayon ekanligini hisobga olish zarur. Milliy g‘oya ham shakllanadi va rivojlanib boradi. Bu ong va tafakkurdagi yangilanishlar, qadriyatlar va unga munosabat bilan bog‘liq holda kechadi. YAngiliklarni qabul qilish va undan targ‘ibotda qo‘llash, taraqqiyotga xizmat qiladi, milliy g‘oyaga hayotbaxshlikni ta’minlaydi.

Buning uchun inson hayot o‘zgarishlaridan orqada qolmasligi, faol, ijodkor ong va tafakkurga ega bo‘lishi, bunyodkorlik va tadbirkorlik sifatlariga ega bo‘lib borishni o‘zgarishlar taqozo etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi global o‘zgarishlar milliy g‘oya targ‘ibotida inson omiliga alohida e’tibor berishni taqozo etmoqda.

Insonning ma’naviy dunyosi milliy g‘oya targ‘ibotining samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib bormoqda.

Milliy g‘oyaning targ‘iboti qanday shaklda olib borilmasin, u inson omili orqali namoyon bo‘ladi. Uning eng zamonaviy texnologiyalari ham, axborot kommunikatsiya tizimi ham, internet tarmoqlari ham nimani targ‘ib qilishi, axborotlarni qanday etkazilishi, unda nimani muljal qilib olish ham insonlarning ma’naviy dunyosiga, hayotiy maqsad va muljallariga bog‘liq bo‘ladi.

Milliy g‘oyani inson ongiga va qalbiga singdirish

Demokratik jamiyatda xalqlar o‘z milliy g‘oyasiga tayanadi. Bu mustaqil taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishning muxim shartidir. SHuning uchun ham, fuqarolarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlantirish taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolarning milliy g‘oyaga daxldorlik hissining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari, ta’lim-tarbiya tizimi, qadriyatlar tizimiga, har bir insonning ong va tafakkuri shakli, dunyoqarashi, hayotiy mo‘ljallariga bog‘liq bo‘ladi.

Insonning ulg‘ayishi, ijtimoiy hayotda o‘zining o‘rnini topishi, muayyan mavqeiga ega bo‘lishi, ayni paytda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida ham

o‘zaro o‘rnatilgan tartiblar, qabul qilingan qonunlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimi, fuqaroda mas’uliyat-daxldorlik hissini uyg‘otadi. Daxldorlikni anglash yuksak ma’naviyat mezoni sifatida namoyon bo‘lib, jamiyat oldida turgan maqsad-g‘oyalariga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning hal qiluvchi omili haqida gapirganda, avvalo odamlarimizning ongu tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, ularning yon-atrofdagi voqealarga munosabati, daxldorlik hissi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi tobora o‘sib borayotganini ta’kidlash lozim”⁶⁸ – deb unga alohida e’tiborni qaratdi.

Milliy g‘oya - O‘zbekiston jamiyatining mafkurasi - g‘oyaviy asosi sifatida, uning tushunchalari, prinsiplari, insonlarda milliy g‘oya maqsadlariga daxldorlikni anglashlarida imkoniyat yaratadi.

Bu dunyoda e’tirof etilgan milliy va umuminsoniy demokratik prinsiplar orqali aniq ifodalanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”⁶⁹ deb belgilab qo‘yilgan.

Jamiyat hayotida “daxldorlik”, “daxldorlik hissi” tushunchalari o‘ziga xos mazmunga ega. “Daxlsizlik” tushunchasi esa “Inson hayoti”ning daxlsizligi yoki unga daxl qilishga hech kimning haqqi yo‘qligini anglatadi. “Daxldorlik hissi” esa fuqaroning hayotiga, yon-atrofida sodir bo‘lgan yot voqealarga, insonlar hayotiga, muammolariga befarq bo‘lmaslik bilan bog‘liq bo‘lgan insoniy tuyg‘udir.

Daxldorlik hissi fuqarolarning o‘zaro munosabatining ifodasıdır. Ma’lumki, inson hayoti davomida daxldorlik hissini qanday sezishi, yon-atrofidagilarga munosabati shakllanib, o‘zgarib, rivojlanib boradi. Ulg‘ayib, voyaga etgan sari

⁶⁸ И.А.Каримов. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул килинганинг 23 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруzasи. “Халқ сўзи” газетаси. 2015 йил 8 декабр.

⁶⁹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Ўзбекистон. – Т.: 2014.

ijtimoiy makon xam unga o‘zining ta’sirini ko‘rsatadi. Daxldorlikni xis etish imkoniyatlari, unga ta’sir ko‘rsatish kuchiga ega bo‘lgan resurslar ko‘lami oshib boradi.

Dunyoda jamiyatning g‘oyaviy – mafkuraviy asosini o‘zgarishi bilan daxldorlik hissi, uning mazmuni va mohiyati ham o‘zgaradi. Bugun ongda milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillarini ijtimoiylashishi, o‘ziga xos transformatsiyalashishi jarayoni orqali kechmoqda. Mustaqillik ana shunday yangi imkoniyatni yaratdi. Bugungi kunda yakka, hukmron kommunistik g‘oya bilan bog‘liq maqsadlar, asosiy tushuncha va tamoyillaridan tubdan farq qiladigan milliy g‘oya maqsadlariga mos holda daxldorlikni his etish asoslari qaror topmoqda. YAngi g‘oyaviy maqsadlar, tushuncha va tamoyillar odamlarda daxldorlikni yangicha idrok etish, bir-birlariga yangicha munosabatda bo‘lish, insonni qadrlash va unga eng oliy qadriyat sifatida qarash, daxldorlik hissining mazmunini, mohiyatini belgilab bermoqda.

Endi odamlar yon-atrofida bo‘layotgan voqeа – hodisalarga va bir-birlariga nisbatan mavhum "Sinfiylik" tamoyili orqali emas, real hayotiy insoniy tamoyillar, mustaqillik talablari va maqsadlariga mos holda, vogelikni idrok etmoqdalar. Bu, insonlarning hayotiy maqsadlariga yangicha g‘oyaviy mazmun baxsh etadi. Ajdodlar merosini hurmat qilish, tarixiy xotira, madaniy yodgorliklar, milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarni o‘zining ma’naviy borlig‘idan o‘tkazgan holda, o‘zini-o‘zi asrab-avaylashga, avlodlarga etkazishda, uni yanada boyitib, rivojlantirib borishda fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissining mohiyatini yanada oshirmoqda. Daxldorlik hissi aloqadorlik, burch, ma’suliyat, inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi bilan uzviy bog‘liq. Bu bir tomondan insonning daxlsiz huquqlarini, ikkinchi tomondan, insonlararo munosabatda ularning bir-biriga nisbatan befarq bo‘lmaslikni, o‘zaro mas’uliyatli ekanini anglatadi.

Daxldorlik hissi, o‘zlikni anglash bilan ham uzviy bog‘liq. CHunki, o‘zlikni anglash xalqi, millatiga, madaniyatiga, ona tiliga, Vatanga bo‘lgan mansublik hissi bilan tutash va mushtarakdir. Hayotda, odamlarning daxldorlik hissini idrok etishi

har xil. Masalan: daxldorlik hissi yuqori; daxldorlik hissi o‘rtacha, daxldorlik hissi past odamlar uchraydi. Bu ularning ma’naviy darajasi bilan bevosita bog‘liq.

Bugun milliy g‘oyaga daxldorlik hissi quyi yoki past bo‘lgan ayrim kishilar va yoshlar uchraydi. Bu o‘ziga xos befarqlik, loqaydlik bilan bog‘liq qusurlardir. Bu yot va zararli g‘oyalarni farqlamaslik, tafakkur va hayotiy pozitsiyasini zaifligining ifodasidir. “Egotsentrizm”, “egoizm”, “Vatansizlik”, “missionerlik”, “diniy ekstremizm va terrorizm”, ma’naviy tahdid, “ommaviy madaniyat ko‘rinishlari” ayrim insonlarni ong va tafakkurini egallahsha, unga bosim o‘tkazib uni monupulyasiya qilishga o‘rinmoqda. Bu muayyan geosiyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanishni nazarda tutadi. Bugungi axborot kommunikatsiya tizimi imkoniyatlaridan bir tomonlama nosog‘lom maqsadlar yo‘lida foydalanishga bo‘lgan o‘rinishlar davom etayotganligini anglatadi. Hayot o‘zgarishlari bilan daxldorlik hissi o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Odamlar bilan umumiyluhiyatda bo‘lish ma’naviy - ruhiy yaqinlikni shakllantiradi. YUksak ma’naviyatlari odamda daxldorlikni his etish madaniyati yuqori bo‘ladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi yuqori odam yot g‘oyalarning jozibasiga uchmaydi. Ularga qarshi g‘oya bilan javob berish, mustaqil fikri yuqori bo‘ladi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi :1) Fuqarolikni his etish mas’uliyati va madaniyati bilan; 2) Vatanni anglash unga sodiqlik va vatanparvarlik bilan; 3) Milliy o‘zlikni anglash milliy ma’naviy meros va umuminsoniy demokratik qadriyatlargacha sodiqlik tuyg‘ulari bilan; 4) Qonunni hurmat qilish; qonun ustuvorligi; adolat tamoyillariga tayanish; 5) Insonni e’zozlash, unga eng oliy qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish madaniyati ham daxldorlik hissi va madaniyatini oshiradi. Bu milliy g‘oya negizlari uyg‘unligida aniq namoyon bo‘ladi.

Bu insonni o‘zligini anglab olishga undaydi. Milliy va umuminsoniy ma’naviyatga daxldorlik hissi quyidagilarda o‘z aksini topadi: 1) Milliy ma’naviy merosni bilish; 2) Milliy ma’naviy merosni qadrlash; 3) Milliy ma’naviy merosni asrab-avaylash; 4) Milliy ma’naviy merosni yangilash; 5) Milliy ma’naviy merosni boyitib borishga o‘zini mas’ul, daxldor deb bilish; 6) Umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, unga tayanish madaniyatidir.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi va fuqarolarning hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘lishi uzviy aloqador va bir-birini taqazo etadi. Bu ichki va tashqi omillar bilan belgilaniladi. Ichki omillar – mamlakat ichkarisidagi ijtimoiy – ma’naviy muxit, fuqarolarning ma’naviy salohiyati, ma’naviy darajasi, ta’lim – tarbiya, fuqarolik jamiyatini rivojlanishi, mamlakatni modernizatsiyalash demokratik islohotlarning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi omillar – globallashuv, turli-xil g‘oyaviy – mafkuraviy kurashlar, ma’naviy tahdidlar, tinchlik va osoyishtalik uchun kurash, xavfsizlikni ta’minalash shart-sharoiti, omillari bilan aloqador. Fuqarolarda milliy g‘oyaga daxldorlik hissi qancha oshib borsa, mamlakatni ichki va tashqi xavf – xatarlardan himoya qilish imkoniyati shuncha yuqori bo‘lib boradi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi yuqori bo‘lgan inson turli-xil zararli g‘oyalarning ta’siriga tushmaydi, taqlid qilmaydi, g‘oyaviy – ma’naviy immuniteti yuqori bo‘ladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi – sotsial-g‘oyaviy tushunchagina emas, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy asosga va mazmunga ega tushunchadir. Bu turli millatga, yoshga mansub bo‘lgan kishilarning mamlakatda o‘zi yashaydigan Vatan, uni idrok etishda fuqarolikni anglashi, unga o‘zini mansub deb bilishi, o‘zligini Vatan tuprog‘i, davlat ramzlarini, shu Vatanda yashagan ajdodlarini yaratgan axloqiy - ma’naviy merosini va qadriyatlarni, urf-odat va an’analarini asrab-avaylashga, uni yanada boyitishga, rivojlantirishga daxldorlikni xis etishi orqali unga ko‘mak bo‘ladigan amaliy ishlarni bajarishi, mas’uliyati ularni kundalik real ishlarda aloxida daxldorlikka undaydi. Ular o‘zaro hamkor va hamjixatlik bilan Vatan uchun ishlashini daxldorlik burchi ekanligini amaliy ishlari bilan yanada mustaxkamlaydi. Milliy g‘oyaga daxldorlik hissi ajdodlardan o‘tib kelayotgan milliy-ma’naviy meroslar bilan birga, umuminsoniyatning demokratik qadriyatlariga, prinsiplariga nisbatan munosabatida namoyon bo‘ladi. Inson hayotida faqat o‘z qobig‘ida yashay olmaydi. Bu uni dunyodan ajralib qolmasligiga sabab bo‘ladi. SHuning uchun ham dunyo xalqlari hayoti, fan va ta’lim sohasida erishayotgan yutuqlarini o‘z hayotiga olib kirishga harakat qilishi taraqqiyot uchun muhim. Bu insonlarning ta’lim-tarbiya, ilm-fan yutuqlariga nisbatan daxldorlik hissini shakllantiradi va tarbiyalaydi. Bu daxldorlikni anglash,

uni fan yutuqlarini bilishga, o'rganishga va tatbiq etishga undaydi. Natijada yangi—yangi texnologiyalarni yaratishga, ijtimoiy hayot soxalariga tatbiq etishga chorlaydi. Insonning ma'naviyati yuksalib boradi. Bu ularni mamlakat xalqi va millatning istiqboli yo'lida ularning hayotini yaxshilash, erkin va farovon bo'lib borishiga, ozod va obod vatan tuyg'ulari bilan bog'laydi. Buni har bir kishi o'ziga xos ruhiy-ma'naviy kuch-qudrat, ilxom, faollik kabi insoniy intilishi bilan bog'liq harakatlarni yuzaga chiqaradi. Vatan uchun ishlash, yashash, uni sevish xayotiy amaliy shioriga aylanadi. Bu turli millat va xalqlarni yanada birlashtiradi. Ularni yagona Vatan yo'lida fidokorona mexnat qilishga chorlaydi.

Milliy g'oyaga daxldorlik hissi - Vatanga nisbatan aloxida ma'no va mazmunga ega. Vatanning yaxlitligini his etish, Vatan tuprog'i va uni asrab-avaylash, uni har qanday ko'rinishdagi yot g'oya va maqsadlardan xalos qilishning muxim sharti hisoblanadi. Daxldorlik hissi insonni ong va tafakkurini yangilashga, Vatan taraqqiyoti yo'lida mustaqillik tafakkuriga ega bo'lish, yangiliklarni qabul qilish, yangi-yangi ixtiolar qilishga o'zini undash, har bir kishi hayotining mazmuniga, maqsadiga va hayotiy mayliga aylangan bo'lishi-taraqqiyotning talabidir. "O'z uyingni o'zing asra!" degan shior yurtimizda yashayotgan har qaysi insondan hamon uchrab turadigan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan xolos bo'lishni, eng muhimi, yon atrofimizda bo'layotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashashni bugungi kunda eng dolzarb masala sifatida oldimizga quymoqda⁷⁰. Bu Vatan taraqqiyoti yo'lida tinchlikni asrab-avaylashni, qadrlashni va qadriga etishga, tinchlik uchun kurashga daxldorlik hissi doirasida namoyon etadi. Mamlakatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Daxldorlik hissi insonlarni ezgu maqsadlar, g'oyalar bilan yashashga undaydi. SHuning uchun daxldorlik hissini, ayrim tor doiradagi manfaatlar tizimi nuqtai-nazaridan emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, umuminsoniy demokratik qadriyatlar nuqtai-nazaridan keng anglash madaniyati insoniyatga, kelajakka xizmat qiladi. Bu turli

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тинчлик ва осойишталик барча ютуқларимиз асоси" мавзусида сўзлаган нутқи. "Халқ сўзи" газетаси. 2016 йил 9 май. 90-сон.

xalqlar, millatlar, dinlar o‘rtasida ham o‘zaro bag‘rikenglikni, totuvlik va hamjixatlikni ta’minlashning muxim sharti xisoblanadi.

Milliy g‘oyaning asosiy tushunchalari inson tafakkurining mahsuli. U shunday mohiyatga egaki, unda turli millatlar, xalqlarning ajdod va avlodlarining hayotiy maqsadlari, orzu-tilishlari, o‘ziga xos ong va tafakkur modeli o‘zining ifodasini topgan. Bu ularning Vatanga, ajdod va avlodlar merosiga, tarixiga, milliy va ma’naviy qadriyatlariga shuningdek, insoniyat tomonidan e’tirof etib kelingan va kelinayotgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplariga sodiqlik, ishonch va e’tiqod, unga nisbatan ezgu niyatli har bir insonning daxldorlik hissini yanada mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Milliy g‘oya tushunchalari har bir insonning xalq va millatning hayoti, kelajagiga daxldorligi bilan ularni birlashtirib turadigan mushtarak maqsadlarni ifodalaydi.

Milliy g‘oyani bilish, anglash uning targ‘iboti - tashviqoti orqali fuqarolarda ishonch va e’tiqod yanada mustahkamlanadi. Ular daxldorlik hissi, Vatanga, ajdodlar merosiga, qadriyatlariga, davlat ramzlariga, o‘zligiga, madaniyatiga, tiliga daxldorlikni his etishi, qadriyatlar tizimini borlig‘i orqali idrok etishi muhim ahamiyatga ega. Undan tashqarida o‘zini his etmaydi. Bu Vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada oshiradi!

Milliy g‘oyaning bosh g‘oyasini, asosiy tushuncha va tamoyillarini anglash hamda uni ijtimoiy ong darajasida uyg‘unlashishi, ishonch va e’tiqodga aylanishi, ularda Vatanga dahldorlik hissini yanada oshiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, birinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlikni anglash, taraqqiyotning muxim sharti bu milliy g‘oya maqsadlariga, asosiy tushuncha va tamoyillariga ishonch va e’tiqod bilan bog‘liq; ikkinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik, uning negizlariga milliy ma’naviy meros, qadriyatlarga, umuminsoniy demokratik prinsiplarga amal qilishni, unga mas’ullikni anglatadi; uchinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik, jamiyat mafkurasiga, O‘zbekistonda yashayotgan turli xalqlar, millatlarning, ajdod va avlodlarning hayotiy orzu-tilishlariga, maqsad va mayllariga bo‘lgan hurmat, uni asrab-avaylash, himoya

qilish va yangilab, boyitib borishdir; to‘rtinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlik - O‘zbekistonning istiqboli va kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish, ijtimoiy hayot rivojida yangi - yangi yutuqlariga erishish, mamlakatni modernizatsiyalash - yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdir; beshinchidan, milliy g‘oyaga daxldorlikni his etish, uni o‘zining g‘oyasi, xalqi, millatning, jamiyatning g‘oyasi - maqsadlari sifatida idrok etishiga undaydi. Bu xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qiladi.

**Inson ongi va qalbi uchun kurashda
axborot xavfsizligini ta’minlash
texnologiyalari**

O‘zbekistonda yosh avlodni yangicha fikrlashga va tafakkurini rivojlantirishga, siyosiy faolligini yo‘naltirishga, ularni mustaqillik g‘oyalariga sodiq qilib tarbiyalash vazifalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida siyosiy ta’sir ko‘rsatishning yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarbligini ko‘rsatadi. Targ‘ibot texnologiyalari axborotni uzatish imkoniyatlarini oshiradi. Axborotning xajmi va ko‘lami ortadi. YOshlarni dunyoda sodir bo‘ladigan turli xil voqeа va hodisalardan, yangilik hamda texnologiyalardan habardor qiladi. Ayni paytda ularni “murakkab axborot olamiga” olib kirib, ularning onggiga, maqsad va mayillariga ta’sir ko‘rsatadi. YOshlarning axborotni qabul qilish darajasi va tajribasi etarli bo‘lmaganligi uchun ham, undan to‘g‘ri, xulosalar chiqarishi oson emas. Axborotlarni yoshlар onggiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘proq “taqlidchan yoshlар”da kuzatiladi. Bu ularda salbiy, hattiharakatlarni shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunday yoshlarni “zararli g‘oyalar”ning ta’sirida ularning ruhiyati o‘zgarib, axborotlarning ta’siri ortadi. Axborot xavfsizlik muammosi paydo bo‘ladi.

Xavfni sezish va unga qarshi kurashish tuzilmalari - shaxsning o‘zini-o‘zi anglash jarayonida shakllanadi. YOshlarda shaxsiy fikr, mulohaza, dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tahliliy va tanqidiy fikrlash paydo bo‘ladi.

YOshlar o‘ziiing siyosiy konsepsiyasini mustaqil ravishda to‘g‘ri shakllantirishda, siyosiy jarayonlarni aniq qamray olishida va tahlil qila olishida, mohiyatni tushunishi muhim.

Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta’minlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish – davr talabidir. YOshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash vazifasi, o‘z navbatida jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgai paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo‘lishini taqazo etadi.

YOshlarning axborot immunitetini shakllantirish jarayoni zamonaviy texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o‘z navbatida bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi qo‘yida keltirilgan tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi:

- mavjud siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglash, undan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda foydalanish;
- immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish va qayta ishslash;
- axborot immunitetni shakllantirishga tegishli ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- muammolarni sezish, aniqlash;
- immunitetning rivojlanish tamoyillarini anglash, qabul qilish;
- tashqi va ichki vaziyatni strategik ko‘p faktorli analiz qilish;
- axborot, moliyaviy, tashkiliy-texnik resurslarning chegaralanishini aniqlash, resurslarni boyitish ishlarini amalga oshirish;
- xalqaro maydondagi voqealarning rivojlanishini kuzatish, tahlil va siyosiy bashorat qilish;
- geopolitik manfaatga erishishning strategiya va taktikasini shakllantirish, tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni tavsiflash, ularni betaraflash hamda sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish;
- axborot muhitini shakllantirishniig texnologiyalarini, metodlari va usullarini ishlab chiqish, amaliyatga tadbiq etish;

- immunitetni ta'minlash ishlarini amalga oshirishning muqobil echimlarini ishlab chiqish;
- u yoki bu muqobil echimlarni tadbiq etishda yuzaga keladigan holatlar hamda vaziyatlarni bashorat qilish;
- amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan har bir ishni baholash;
- davlatning tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish, axborot tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashuvchanligini ta'minlash;
- mafkuraviy immunitetni shakllantirishning eng maqbul ko'rinishlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- yoshlar onggi va tafakkurida, qaror qabul qilishga ko'rsatiladigan ta'sirni tahlil qilish;
- yoshlarning o'zi qabul qilgan qarorlarini o'zi o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- yoshlarni o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilishlarini shakllantirish.

SHuningdek, yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik omillarni to'liq ishlab chiqish ham zarur. Bu esa yuzaga keladigan xavflarni vaqtida bartaraf etish imkonini berishi mumkin. Bu axborot xurujlarining olidini olishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. SHuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzlusiz targ'ibotni tashkil etish muhim sanaladi.

Milliy g'oyaning tamoyillarini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lib, turli shakl va vositalardan foydalanganda ularning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari xisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning har bir joyning xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Insoniyat evolyusiyasidagi g‘oyaning o‘rni va ahamiyati doimiy ravishda jamiyatning intellektual salohiyatlari a’zolarining diqqat-e’tiborida bo‘lgan: Buni dunyo taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan nazariy ta’limot va mafkuralar asoschisi bo‘lgan, tarixning turli davrlarida yashagan Suqrot, Konfutsiy; Alisher Navoiy, Maxatma Gandhi kabi mutafakkirlar asarlaridagi ilmiy fikrlar misolida ham ko‘rish mumkin.

Targ‘ib qilinayotgan g‘oyalarning inson ongida axborot, ma’lumot tarzida o‘rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga etib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o‘rnashadi. Buning uchun esa targ‘ibotchining milliy g‘oyaga chuqur ishonchi va qat’iyatini xis qilishi kerak. Lekin, targ‘ibotda g‘oyalarga e’tiborni tortish bilan ham qanoatlanish etarli emas. CHunki, e’tiborni jalb qilish - targ‘ibotning birinchi bosqichi, xolos. Milliy g‘oya targ‘ibotida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar va yutuqlarga tayanish, uni g‘oyaviy va ma’naviy hayot bilan mosligiga erishish, demokratianing umuminsoniy prinsiplariga qat’iy amal qilish, yot va zararli g‘oyalar bilan bunyodkor g‘oyalarni bir-biridan farqlash madaniyatining yuksalib borishi ayrim yoshlarni ongi va qalbini zararli g‘oyalarning ta’siridan himoyalashga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: Inson ongi va qalbi uchun kurash, milliy inson o‘zligini anglash omili, ma’naviy-mafkuraviy immunitet, inson – milliy g‘oya targ‘ibotining muhim omili, dahldorlik hissi.

Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar.

1. Inson milliy g‘oya targ‘ibotining muhim omili ekanligini qiyosiy tahlil eting va asoslang.
2. Inson ongi va qalbini yot va zararli g‘oyalar ta’siridan himoyalashda milliy g‘oyani muhim omili ekanligini “SWOT - tahlil” qiling..
3. Insonda milliy g‘oyaga dahldorlik hissini oshib borishini O‘zbekiston kelajagi va mustaqilligini mustahkamlash bilan bog‘liq shart-sharoitlarni asoslang..

Xulosa

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarini o‘rganish hozirgi davrda ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatga ega. Uning ilmiy-nazariy jihatni milliy g‘oyani va targ‘ibotini amalga oshirishning ilmiy usul, mazmun mohiyatini, milliy g‘oyanining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini, bosqichlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini tegishli talablarga tayangan holda o‘rganish imkoniyatini beradi. Amaliy jihatdan esa milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalarining ta’lim jarayoniga tadbiq etish, yoshlarni uning usullari, texnologiyalari bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda keng jamaotchilik orasida tegishli mavzularda ma’nnaviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga erishish ijtimoiy hayot talablariga, mos dunyoqarash, ong-tafakkur, g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach qo‘lga kiritilgan yutuqlarni dunyo hamjamiyati tan olmoqda. Buning amaliy isbotini “YAqinda SHveysariyada Jahon iqtisodiy forumi - «World Economic Forum» iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar reytingini e’lon qildi. Jahon bankining «Global iqtisodiy taraqqiyot» (10) prognozi asosida tayyorlangan mazkur ma’lumotda 2014 yildan 2017 yilgacha bo‘lgan davrda yillik o‘sish darajasi eng yuqori bo‘lgan davlatlar orasida O‘zbekiston 5-o‘rinda qayd etilgani albatta ko‘p narsadan dalolat beradi”⁷¹. Bunday natijalarga erishishni jamiyatimiz milliy g‘oyasini va uning targ‘ibotining saradorligiga erishishning o‘ziga xos natijasi sifatida baholash mumkin.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu milliy g‘oya targ‘iboti va ma’nnaviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirishni taqazo etadi. Ma’lumki, immunitet – lotincha “immunillare” so‘zidan olingan bo‘lib, biror narsadan xolos bo‘lish, qutulish degan ma’noni bildiradi. Inson butun hayoti davomida tashqi ta’sirga javoban aks sadolar sifatida ortirgan bilimlar va

⁷¹ Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.:“Ўзбекистон”, 2015, Б-10-11.

malakalari asosida o‘zida immunitet tizimini shakllantiradi⁷². Tashqi g‘oyaviy ta’sirlarga javob berish quvvati xavfsizlikni ta’minlash, turli-xil g‘oyaviy ta’sirlarga javob berish qobiliyati «mafkuraviy immunitet» darajasiga bog‘liq. YA’ni, ularning fikrni fikrdan farqlash, yot va zararli g‘oyalarga nisbatan, o‘zining aniq maqsadi, g‘oyasi bilan uni e’tirof etmaslik, unga nisbatan g‘oyaviy jihatdan javob bera olish salohiyatini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “YOshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “YOshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”⁷³ lozimligi alohida ta’kidlanganligini qayd etish lozim.

YOshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularning:
1) dunyoqarashini; 2) milliy g‘oya negizlariga hurmati, ishonch va e’tiqodi;
3) dunyoviy va diniy bilimlarga xabardorlik darajasiga bevosita bog‘liq. Bu, dunyoda mafkuraviy kurashlarning tuxtamayotganligi hamda uning markazida yoshlarning turganligi, sog‘lom fikrlaydigan, ezgulik va tinchlik tarafdoi bo‘lgan kuchlarni, ilmiy jamoatchilikni o‘ylashga, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga undamoqda.

Bu quyidagi omillar: 1) YOshlarning aholi tarkibidagi ulushi bilan; 2) YOshlarning dunyoqarashi, ong-tafakkurdagi o‘zgaruvchan xususiyatlari bilan; 3) YOshlarni murakkab ijtimoiy tuzilishga ega ekanligi bilan; 4) YOshlarning qiziqishi, maqsad va manfaatlarining xilma-xilligi bilan; 5) YOshlarni ijtimoiy guruh sifatida, ularning g‘oyaviy-mafkuraviy muljallarini, hayotiy fuqarolik pozitsiyasini shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan axborot makonidagi o‘zgarishlar ko‘lamini ortib borayotganligi bilan uзвиy bog‘liq.

Muammoga, tarixan yondashganda, turli davrlarda yoshlarga g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ularning ongini yot va zararli g‘oyalarning ta’sirida o‘z

⁷² Маънавият асосий тушунчалар изоҳли лугати. Фоур Ғулом. Т.: 2010. 292 б.

⁷³ Қаранг: Lex.uz.

manfaatlari tomon o‘zgartirishga, ulardan foydalangan holda mamlakatda tartibsizliklarni keltirib chiqarishga bo‘lgan urinishlar davom etmoqda. Ayrim yoshlarda bunday mafkuraviy kurashlarning ta’siriga tushib qolmoqda. Bular, hozirgi yoshlarning qaysi toifasi ekanligini va nima uchun ular yot g‘oyalarning ta’sirida ekanligini sabablarini quyidagicha tahlil etish mumkin. Ular: birinchidan, o‘zining mustaqil fikriga, qarashiga ega bo‘lmagan, milliy g‘oyaga ishonch va e’tiqodi sust bo‘lgan yoshlardir. Bunday yoshlar g‘oya bilan g‘oyaning farqiga borolmaydi. Soxta, yolg‘on g‘oyalarga ishonadi, ergashadi. Ikkinchidan, hayotdan yashashdan maqsadni, “qaerda yashash yaxshi” bo‘lsa, shu erni “Vatan” deb hisoblaydigan ayrim yoshlardir. Bu ham amalda “Kosmopolitizm” g‘oyasi, “Vatansizlik” mafkurasini yoshlar ongiga singdirish orqali, ularni ona – Vatanga bo‘lgan mehr-muxabbatini, sadoqatini zaiflashtirishni maqsad qilib, ularning mafkuraviy immunitetlarini zaiflashtirishga urinadilar, tug‘ilib o‘sjan Vatanlariga, ijtimoiy hayot sohalarida erishayotgan yutuqlarni bir tomonlama baholash, yutuqlarni xolisona ko‘rmaslik kayfiyatini shakllantirishga harakat qiladilar. Uchinchidan, yoshlarning milliy-ma’naviy meros va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini o‘zgartirishga bo‘ladigan ayrim xolatlar ularning mafkuraviy immunitetini zaiflashtirib, shu orqali demokratianing “yakkayu-yagona” modelini targ‘ib etish va unga moyil ayrim yoshlarni har jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq mafkuraviy maqsadlarni ko‘zlamoqdalar.

YOshlar uni farqiga borishlari uchun ham, o‘z fikriga, g‘oyasiga ega bo‘lishlari “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan”⁷⁴ javob bera oladigan yuksak ma’naviyatga ega bo‘lishlari muhim. Zero, yuksak ma’naviyatli yoshlar mafkurasiga hech kim dahl qila olmaydi.

Buning uchun yoshlar: ilm-fan sirlarini qunt bilan egallashlari, unga sodiq holda o‘rganishlari muhim. Ilm o‘rganmoqlik to‘g‘risidagi muborak xadislarga amal qilishlari, ularni ma’rifat sari etaklaydi, ayrim yot va zararli, buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siridan ta’siridan himoya qiladi.

⁷⁴ И.А.Каримов Юксак маънавият – енгилмас куч. Ўзбекистон. Т.: 2008.

YOshlarning mafkuraviy immunitetining qanday bo‘lishi, avvalo, ularning avvalo o‘zlariga va ta’limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ta’limning sifatini yanada oshirishga bog‘liq. Bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining ta’limga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunga barcha fanlar ta’lim sohalari bo‘yicha yoshlarning ta’limga nisbatan yangicha, zamonaviy dunyoqarashini shakllantirishi zarur. Buni O‘zbekiston yoshlari hayotning turli jabhalarida erishgan yutuqlari bilan Vatanga bo‘lgan sadoqatlari orqali, dunyo yoshlarini lol qoldirmoqda, ibrat namunalarini ko‘rsatmoqda. Bu yot va zararli g‘oyalarning ta’siriga tushib qolgan ayrim yoshlarni o‘z maqsadlarini to‘g‘ri belgilab olishlari, xatolarini tushunib, to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga da’vat etadi.

Mustaqallik O‘zbekiston yoshlari hayotida buyuk istiqbollarni ochdi. Bu borda yurtimiz salmoqli ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Ma’lumki, aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo‘lib yashashiga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. YAqinda ayni shu ko‘rsatkichlar bo‘yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQSHning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan ijtimoiy so‘rov va tadqiqotlar o‘tkazilib, shu asosda «Butunjahon baxt indeksi»ning («World Happiness Index») yangi reytingi e’lon qilindi. Diqqatga sazovor jihatni shundaki, ushbu ro‘yxatda O‘zbekiston 158 mamlakat orasida 44-pog‘onada, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo mamlakatlar orasida esa birinchi o‘rinda qayd etildi. Aytish joizki, bundan ikki yil avval mazkur ro‘yxatda mamlakatimiz 60-o‘rinni band etgan edi”⁷⁵. Darhaqiqat mamlakatiimzda yoshlarni hayotda o‘z o‘rinlariga, ijtimoiy mavqega ega bo‘lishlari uchun etarli shart-sharoit yaratildi. YOshlarni undan oqilona foydalanishlari uni kafolatlaydi. Ikkinchidan, yoshlar mamlakatning mustaqil demokratik taraqqiyot yo‘lidan rivojlanishda muhim strategik kuchdir. Unga qarshi qaratilgan har xil mafkuraviy tazyiqlarga javob bera olishlari uchun ham kuchli bilim va tafakkurga ega bo‘lishlari lozim. “Tafakkurdagi va bilimdagи zaiflik” (A.N.Farobi) esa yot va zararli g‘oyalarning

⁷⁵ Каримов И.А. Она юртимиз баҳту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.:“Ўзбекистон”, 2015, Б-11-12.

ta'sirini o'tkazish uchun o'ziga xos "darcha"dir. Uchinchidan, yoshlarning OAV dan, axborot kommunikatsiya tizimi, internet orqali turli-xil "ijtimoiy tarmoqlar"dan foydalanishda ijtimoiy ma'suliyatni va madaniyatni yanada oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga keng jamoatchilikning e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. To'rtinchidan, yoshlarning mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash maqsadida ularning milliy g'oyaga dahldorlik hissni yanada oshirish mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu ishlarni amalga oshirishda milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari fanning o'qitilishi va uning asosiy mavzularini yoritishda tegishli manbalardan oqilona foydalangan holda milliy g'oyani targ'ibotida ko'tilgan samaraga erishish mumkin bo'ladi. Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalarini nafaqat ta'lim jarayonida ta'limdan keyingi bosqichlarda ham tadbiq etib jamoatchilik orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish hozirgi zamonning dolzarb savollariga javob berish orqali ta'limning innovatsion texnologiyalardan keng foydalanishni va milliy g'oya targ'ibotiga tadrijiy, uzluksiz ravishda e'tibor berish mamlakatimizni mustaqil taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Glossariy

Axborot (arab. axbor – xabarlar, ma'lumotlar) - muayyan voqealari, hodisalar to‘g‘risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, keng ma’no kasb etayotgan tushuncha

Axborot olish kafolatlari va erkinligi - har bir shaxsning o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatishga haqli ekanini ifoda etadi

Axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga ishlov berish, saqlash va jamiyat a’zolariga etkazishga bog‘liq ekanini anglatadigan tushuncha

Aqidaparastlik - kishilarning qalbi va ongiga mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e’tiqod darajasiga ko‘tarilgan dunyoqarash shakllaridan biri

Bag‘rikenglik (tolerantlik) - o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvatli, g‘amxo‘r, saxiy, kengfe’lli bo‘lgan, ana shunday ma’naviy fazilatlarga ega kishilarni ifodalovchi tushuncha

Vayronkor g‘oyalar - bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuini ifoda etadigan tushuncha

Vatan (arab. tug‘ilib o‘sgran joy, ona yurt) - insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun-mohiyat baxsh etadigan tabarruk maskandir.

Vatan manfaati - yuksak ma’naviy tamoyillardan biri; Vatanning ozodligi va mustaqilligi, uning hududida yashayotgan xalqning tinchligi va osoyishtaligi, bugungi va kelajak hayotini, huquq va manfaatlarini, barcha milliy boyliklarni asrab-avaylash, boyitish va himoya qilish bilan bog‘liq barcha maqsad-vazifalarni ifoda etadigan tushuncha

Vatan ravnaqi - milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g‘oyalaridan biri. Bu g‘oya – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiradigan, uni xalq baxt-saodati yo‘lida xizmat qilishga da’vat etadigan bunyodkor g‘oyadir

Vatanparvarlik - Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oljanob faoliyatni anglatadigan tushuncha

Vatanfurushlik - Vatanga xoinlik qilish, Vatanni sotishni anglatuvchi tushuncha

Vijdon erkinligi - fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi

Dinlararo bag'rikenglik - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, oljanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjamiyat bo'lib yashashini anglatadi

Giyohvandlik (narkomaniya) - inson ma'-yatiga zid bo'lgan, uning ijtimoiy -ruhiy holatini butkul izdan chiqaradigan g'oyat xatarli illat, bedavo xastalik.

Globallahuv (lot. *globus* - shar, Er sayyorasi) - bu avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir

Diniy ekstremizm - ekstremizmning diniy sohada namoyon bo'lish shakli

Jamiyat hayoti sohasi - jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlari.

Zamonaviy texnologik uslublar - milliy g'oyani targ'ib va tashviq etishda foydalaniladigan ilm-fan yutuqlari, eng so'nggi natijalariga tayangan texnik vositalar hamda ulardan foydalanish mahoratidagi yangicha g'oya, qarashlar, uslublar hamda innovatsion texnologiyalar majmui.

Ijtimoiy hamkorlik - murosa falsafasi bo'lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiyligi maqsad yilidagi hamjihatligini ta'minlaydi.

Immunitet (lot. *immunillare* - biron narsadan xalos bo'lish, qutulish) - organizmning doimiy ravishda o'z ichki barqarorligini saqlashi, turli

xususiyatlarga ega tashqi ta'sirlardan, xususan, infeksiyalar kirib kelishidan himoyalanishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmuasi.

Internet (lot. *inter* - aro va *net (work)* - tarmoq) - katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'laydigan butun jahon kompyuter tizimi, butun dunyo bo'ylab faoliyat ko'rsatadigan xalqaro axborot almashuvining global kompyuter tarmog'i, turli-tuman masalalar va sohalar bo'yicha ma'lumotlarni qamrab oladigan, uzoq masofalardan turib aloqani amalga oshirish, elektron tijorat, masofaviy ta'llim, audeo, video, tele, tasvir ayirboshlash va umuman, ko'pdan-ko'p yangilik va malumotlarni jamlaydigan elektron axborot vositasi va dasturini anglatuvchi tushuncha

Komil inson - ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan g'oyadir

Madaniy meros - ajlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklarni anglatuvchi tushuncha

Mafkura (arab. fikrlar majmui) - muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlat manfaatlari, orzu-istak va maqsad-muddaolari ifodalangan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish tizimi

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida Er yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha

Mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi

Mafkuraviy markazlar - muayyan g'oyani ilgari suruvchi, targ'ibot va tashviqotning turli usul, vositalari orqali odamlar ongi, ruhiyatiga ta'sir etuvchi kishilar uyushmasi, tashkilot yoki muassasalardir.

Mafkuraviy plyuralizm (lot. *Pluralis* - xilma-xillik, rang-baranglik) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi

g‘oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydigan tushuncha

Mahalla - sog‘lom ijtimoiy muhit maskanidir. Jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlariniadolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligi - joylarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va tarbiyaviy ishlardan kutilgan natijaga erishilganini ifodalaydigan tushuncha

Ma’naviyatga tahdid - o‘zligimizga va kelajagimizga tahdid

Metod - usul, uslub demakdir.

Mehnat jamoalari - inson umrining asosiy qismi o‘tadigan, uning tafakkuri, hayotga munosabati shakllanadigan ijtimoiy-ma’naviy muhitdir

Millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi shu joydagi tinchlik va barqarrlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi

Milliy g‘oya - ajdoddardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyojini va xalq talabiga aylanib ketgan, har qaysi millatning ezgu orzu-tilishlari va umid-maqsadlari.

Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyasi - ajdoddardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ezgu g‘oyalarning ma’nosini, mazmunini, mohiyatini yoritish, tushunish orqali shu ezgu maqsadlarga yoshlarni da’vat qilish, chorlashda texnik vositalar, yangi texnologiyalardan foydalanish, uning ezgu maqsadlarga yo‘naltirish, safarbar etish orqali jipslashtirish, yot va zararli g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash usul va uslublarini o‘rganish to‘g‘risidagi fandir.

Oila - jamiyat negizi bo‘lib, milliy g‘oya targ‘ibotida jamiyatning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir.

OAV - milliy g‘oya targ‘ibotining muhim vositasi. Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar,

jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi) shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllaridir.

Samara - natija, hosila, foyda.

Samaradorlik - samarali, foydali bo‘lishlik; foydalilik.

Sinkveyn - targ‘ibot texnologiyalari ichida yana keng tarqalgan usullardan biri, ya’ni axborotlarni yig‘ish usuli hisoblanadi

Targ‘ibot - arabcha “targ‘ib” xoxishni, qiziqishni kuchaytirish, rag‘batlantirish ma’nolarini anglatadi.

Targ‘ibotchi - targ‘ibot ishlarini olib boruvchi shaxsni, “targ‘ibotchilik” esa targ‘ibot olib borishni, targ‘ibot ishini anglatadi

Texnologiya - yunoncha, techne - mahorat, san’at; logos-ta’limot ma’nosini bildiradi. Ishlab chiqarishning biror sohasiga ishlov berish, qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan usullar majmuini anglatadi.

YUrt tinchligi - bebahoe ne’mat, ulug‘ saodatdir. Bashariyat o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. YUrt tinchligi-barqaror taraqqiyot garovi

Xalq farovonligi - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliv maqsadi-xalqimizga munosib turmush sharoitini yaratishdan iborat. YA’ni, islohot-islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun hizmat qilishi kerak. Jamiyatimizda har qanday yangilanish, har qanday o‘zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Раҳбарий адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиёев. “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. – Т.: “Ўзбекистон”. 2016. – 56 б.
2. Ш.М.Мирзиёев. “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлиги гарови” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъruzаси. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 48 б.
3. Ш.М.Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон. – 2017.
4. Ш.М.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 488 б.
5. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”. 2017. – 592 б.
6. Ш.М.Мирзиёев. Ҳалқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”. 2018. – 508 б.
7. Ш.М.Мирзиёев. Ҳалқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”. 2018. – 508 б.
8. Ш.М.Мирзиёев. “Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор ҳалқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир” мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъruzаси. Ҳалқ сўзи. 2018 йил декабрь.

9. Ш.М.Мирзиёев. Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь. 270-сон.
- 10.Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жиллар. -Т.:“Ўзбекистон”, 1996-2016.
- 11.Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:“Маънавият”, 2008.
- 12.Каримов И.А. Мамлакатимида демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2010.
- 13.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида.-Т.: “Ўзбекистон”, 2011.
- 14.Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. –Т.:”Ўзбекистон”, 2015
- 15.Каримов И.А. Асосий вазифамиз — жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлаштириш, мамлакатимизни модернизация қилиш жараёнларини янги босқичга кўтаришдан иборат. - Т.: “Ўзбекистон”, 2016.
- 16.Каримов И.А. Озодлик ҳавосидан тўйиб нафас олган халқ ўз йўлидан ҳеч қачон қайтмайди. –Т.:”Ўзбекистон”, 2016.
- 17.Каримов И.А. Ҳаёт синовларида тобланган Қашқадарё эли ҳар қандай юксак маррани эгаллашга қодир. –Т.:”Ўзбекистон”, 2016.

2. Норматив-хукуқий хужжатлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.:“Ўзбекистон”, 2016.
2. “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 1997 йил 29 август. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997. –Б. 20-29.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. // Халқ сўзи. 11 февраль, 2004.
4. “Ахборот технологиялари соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. // Халқ сўзи, 2005 йил, 5 июнь.

5. “Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш, “Интернет”нинг халқаро ахборот тизимларига кенг кириб боришини таъминлаш дастурини ишлаб чиқишини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Халқ сўзи. 24 май, 2001.
6. “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янгитаҳири)// Ўзбекистон Республикасининг оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, 2007. Б-80.
7. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997. –Б. 30-52.
8. “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Халқ сўзи. 2006 йил 26 август.
9. Республика “Маънавият ва маърифат жамоатчилик марказини тузуш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1994 йил 23 апрельдаги Фармони. Интернет сайт: www.lex.uz
- 10.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Таълим-тарбия ва кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, баркамол авлодни вояга етказиш тўғрисида»ги Фармони. 1997 йил 6 октябрь. / «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори». –Т.:«Шарқ», 1998.
- 11.“Маънавият ва маърифат жамоатчилик маркази фаолиятини янада такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 9 сентябрдаги Фармони. Интернет сайт: www.lex.uz
- 12.“Республика Маънавият ва маърифат Кенгашини қўллаб-қувватлаш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 3 октябрдаги Фармони. Интернет сайт: www.lex.uz
- 13.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги Қарори. Халқ сўзи. 2006 йил 26 август.

14.«Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар» фани бўйича ўкув дастурини тайёрлаш ва таълим тизимига жорий этиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 18 январдаги Фармойиши.

3. Асосий ва қўшимча адабиётлар:

1. Аббосхужаев О., Умарова Н., Кўчқаров Р. Мафкура полигонларидағи олишув. – Т.: “Академия”, 2007.
2. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Т.: 1968.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. —Т.: Абдулла Қодирий номидаги «Халқ мероси» нашриёти, 1993.
4. Абилов Ў. Миллий ғоя, маънавий омиллар. -Т.: “Маънавият”, 1999.
5. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. – Т.: 1987.
6. Алимова Д. Инсоният тарихи - ғоя ва мафкуралар тарихидир. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2001.
7. Амир Темур. Темур тузуклари. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.
8. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. —Т.: «Шарқ», «Академия», 2001.
9. Азизхўжаев А.А. Давлатчилик ва маънавият. -Т.: “Шарқ”, 1997.
10. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. -Т.:”Академия”, 2003.
11. Гафарли М.С., Касаев А.Ч. Ривожланишнинг Ўзбек модели: тинчлик ва барқарорлик-тараққиёт асоси. –Т.: Ўзбекистон, 2000.
12. Жакбаров М. Комил инсон ғояси: тарихий-фалсафий таҳлил. -Т.: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2000.
13. Жакбаров М. Комил инсон ғояси. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2002.
14. Жўраев Н. Мафкуравий иммунитет. -Т.: “Маънавият”, 2001.
15. Жалолов А., Хоназаров Қ. умумий таҳририда. Мустақиллик: изоҳли-илмий оммабоп лугат. Т., «Шарқ», 1998.
16. Жўраев Т.А. Миллий давлатчилик: хавфсизлик ва барқарорлик. – Т.: “Академия”, 2007.

- 17.Исломов З., Исоқов Б., Юсупов О., Мухаммадиев Д., Минаваров С. Бунёдкор ғоялар. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2001.
- 18.Каримова В. Тарғиботнинг психологик услублари. -Т.: “Маънавият”, 2001.
- 19.Каримова В., Умаров А., Қуронов М. Миллий истиқлол ғоясини халқимиз онгига сингдириш омиллари ва воситалари. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2001.
- 20.Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. -Т.: «Ўзбекистон», 2001.
- 21.Левитин Л., Карлайл С. Ислом Каримов — янги Ўзбекистон Президенти. —Т.: «Ўзбекистон», 1996.
- 22.Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати – Т: “Фоғур Ғулом”, 2009. 148 бет
- 23.Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Т: “Ўзбекистон”, 2000.
- 24.Миллий истиқлол ғояси. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик (масъул муҳаррир И.Эргашев), Тошкент, “Академия”, 2005 йил.
- 25.Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: “Академия”, 2007.
- 26.Миллий ғоя: назарий манбалар (Хрестоматия). – Т.: “Академия”, 2007.
- 27.Миллий ғоя-илмий тадқиқотларнинг назарий-методологик асоси-илмий тўплам.1-китоб. «Ҳаёт нашрёти» Андижон-2008 й.
- 28.Мустақил Ўзбекистон тараққиётининг ғоявий асослари. –Т.: “Шарқ”, 2001.
- 29.Муртазо Қаршибой. Бунёдкор халқ ғояси. -Т.: “Маънавият”, 2001.
- 30.Муртазо Қаршибой. Янгиланишдан буюк ўзгариш сари. -Т.: Фағур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
- 31.Муминов А. Ўзбекистон ахборотлашган жамият сари. – Т.: “Turon zamin ziyo”. 2013. Б-164.
- 32.Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. -Т.: “Шарқ”, 2000.

- 33.Назаров К., Эргашев И. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти -Т., “Ғафур Гулом”, 2008.
- 34.Отамуротов С., Мамашокиров С., Холбеков А. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2001.
- 35.Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. –Т.: “Ўзбекистон”, 2004.
- 36.Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. -Т.: «Академия», 2001.
- 37.Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. – Т.: Маънавият, 2008. Б-96
- 38.Тўраев Ш. ва б. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларнинг ахборот-психологик хуружларидан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. – Т.: “Turon zamin ziyo”. 2016. Б-96.
- 39.Ўзбекистон: сиёсий ислоҳотлар стратегияси, эришилган натижалар ва истиқболлар. - Т.: “Академия”, 2010.
- 40.Ўзбекистонда маънавият соҳасидаги ислоҳотлар: ривожланиш босқичлари, эришилган натижалар ва истиқболлар. - Т.: “Академия”, 2010.
- 41.Ўзбекистонда давлат қурилиши соҳасидаги ислоҳотлар ва ҳуқуқий сиёsat: ривожланиш босқичлари,эришилган натижалар ва истиқболи. - Т.: “Академия”, 2010.
- 42.Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда (Шарҳлар). -Т.: “Ўзбекистон”, 2000.
- 43.Ўзбекистон юксалиш йўлида. -Т.: «Ўзбекистон», 2001.
- 44.Қадр-қимматим, таянчим ва ифтихоримсан, мустақил Ўзбекистон. Услубий қўлланма. –Т.:“Маънавият”, 2013.
- 45.Қодирова М. Ёшлар онгига ғоявий дунёқарашни шакллантириш. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2002.
- 46.Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. -Т.: «Шарқ», 2002.
- 47.Шарафитдинов О. Чўлпонни англаш. -Т., «Ёзувчи», 1994.
- 48.Шарофуддин Али Яздий. Зафарнома. — Т.:»Шарқ», 1997.
- 49.Эргашев И. Ақл ва илҳом сатирлари.-Т.: “Жамият ва бошқарув”, 2008.
- №2,14-15 бет.

50. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси. -Т.: “Академия”. 2000.
51. Эргашев И., М. Жакбаров, Н. Назаров. Жамиятни демократлаштириш ва миллий ғоя. – Т., “Академия”, 2007.
52. Эргашев И. Миллий ғоя ва фуқаролик жамияти. (Ҳаммуаллифликда). –Т.: Академия, 2005.
53. Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. —Т.: «Академия», 2011.
54. Эргашев Ф., Эргашев И. Фидойилик - ҳаёт мазмуни. -Т.: «Ўзбекистон», 2001.

4. Интернет сайклар

1. www.Lex.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.Edu.uz
4. www.Ma'naviyat.uz
5. www.Bilim.uz
6. www.Fikr.uz
7. www.Uza.uz
8. www.Senat.uz
9. www.Nauka.uz
10. www.Faylasuf.uz
11. www.Muloqot.uz
12. www.Xabardor.uz
13. www.Huquqburch.uz